


# GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 3



2023/3  
February

ISSN 2181-4120  
VOLUME 1, ISSUE 3  
FEBRUARY 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/issue/view/55>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL****VOLUME 1, ISSUE 3, FEBRUARY, 2023****EDITORIAL BOARD****G. Kholmurodova***Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***A. Madaliev***Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University***G. Sotiboldieva***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Rashidova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University***D. Darmonov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***X. Abduxakimova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Ruzmetov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan***M. Yusupova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***M. Kambarov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University***S. Sadaddinova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies***M. Fayzullaev***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University***Z. Muminova***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***B. Kuldashov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***Kh. Askarov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute***S. Nazarova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University***O. Rahmonov***Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute***G. Tangirova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***Z. Koryogdiev***Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University***S. Ubaydullaev***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology***R. Yuldasheva***Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***M. Yuldashova***Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University***EDITOR-IN-CHIEF: M.YUSUPOV**

## MUSTAQILLIK YILLARIDA HAJ ZIYORATI

**Uroкова Feruza**

Nizomiy nomidagi TDPU 2 kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Mustaqillik yillarida mamlakatimizda diniy qadriyatlarni tiklash, e'tiqod erkinligini ta'minlash, benazir ilmiy merosimizni va me'moriy obidalarni asrab-avaylash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, respublika fuqarolariga muqaddas shaharlarni ziyorat qilish uchun ham qulay sharoitlar yaratildi. Istiqlolgacha sanoqli kishilar muborak ziyoratlarga borish baxtiga muyassar bo'lgan bo'lsalar, mustaqillik yillarida minglab fuqarolarimiz umra va haj safarlariga borishga muvaffaq bo'lmoqdalar.*

#### **Kalit so'zlar**

*Haj, mustaqillik, diniy idoralar, shariat, Ka'ba, Makka, Arofot, Zam-zam, meros, Mino g'ori, Islom dini, haj ziyorati, yurtdoshlarimiz, O'zbekiston.*

Shariatga binoan, har bir musulmonning hayotda aqalli bir marta Makka shahrining muqaddas yerlarini hamda xudoga sig'inishi va Ka'bani ziyorat qilishi haj deb ataladi. Ziyorat quyidagi talablarni bajarishni taqozo etadi: Ka'bani yetti marta aylanish, qora toshni o'pish, Safa va Marva tepaliklari o'rtasida tez yurish, Zamzam muqaddas qudug'idan suv ichish, Arafot tog'i yonida turish, Mino vodiysida shaytonga tosh otish, Ollohga qurbonlik qilish kabi marosimlar shular jumlasidandir. Kim haj qilsa, «hoji» unvoniga ega bo'ladi va uning oq salla o'rab yurishiga ruxsat etiladi.

1980 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha faqat 17 kishi muqaddas haj ziyoratiga borgan bo'lsa, 2001 yilning o'zidayoq 4 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz bu saodatga musharraf bo'lganlar. Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida minglab yurtdoshlarimiz haj va umra ziyoratini amalga oshirish baxtiga muyassar

bo'ldilar. O'zbekiston musulmonlari idorasining sobiq raisi muftiy Abdurashid qori Bahromov bu haqda shunday deydilar: «Ilgarilari yurtimizda istibdod mafkurasi hukmronlik qilgan davrlar, haj safariga borish juda qiyin bo'lib, safar ijozati nihoyatda past darajada cheklangan edi. Taassufki, uzoq yillar davomida diyorimiz musulmonlarining bu boradagi orzu niyatlariga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Natijada, ko'plab ulamolarimiz va bir qancha imon-e'tiqodli kishilarimiz yetmish yillar mobaynida tilak va orzular qilib, hajga bora olmasdan, armon bilan dunyodan ketdilar. Endilikda mingminglab mo'min-musulmonlar muborak haj safariga borishga musharraf bo'lmoqdalar va bo'ladilar»<sup>1</sup>

O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991- yilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovor bo'lgan bo'lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga etdi. Jami mustaqillik yillari Haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo'lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi. 2018-yilda Haj safariga boruvchilar 7 ming nafar kishini tashkil etmoqda, Umra safariga borishni istagan barcha fuqarolar uchun to'la imkoniyat yaratildi Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri «Navro'z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. 1992-yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. 2018- yildan boshlab, bu bayramlar kunlari uch kun nishonlash imkoniyati yaratildi<sup>2</sup>.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 26 avgust kunidagi Farmoniga asosan tuzilgan "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha Jamoatchilik kengashi ziyoratchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratib berish, haj va umra safarlarini namunali tashkil etish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Shu o'rinda mamnuniyat bilan aytish lozimki, so'nggi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlarning soni oshib borayotganini e'tiborga olib, 2017 yildan

<sup>1</sup> Abdurashid qori Baxromov. Mustaqillik va vijdon erkinligi// Demokratiya va inson huquqlari.-T., 1999.-№ 34.-B-47

<sup>2</sup> Холикулова Х.Ю. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавиймаданий тараққиёти. (Ўқув қўлланма). Жиззах, 2020. 118-бет



o‘zbekistonlik fuqarolar uchun haj kvotasi 7200 nafar qilib belgilandi (ilgari bu ko‘rsatkich 5200 nafar edi)<sup>1</sup>.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi, “Nuroniyy” jamg‘armasi, “Mahalla” fondi takliflariga binoan hamda o‘zbek xalqining bag‘rikeng va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, joriy yilda mazkur kengash tomonidan bir va undan ortiq marotaba haj va umra safarlariga borgan shaxslarning muborak ziyoratlarga borishlari kechiktirib turilishi haqida qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorning qabul qilinishida respublika miqiyosida muborak umra va haj safarlariga borish istagini bildirgan fuqarolar sonining tez sur‘atlarda ortib borishi, mustaqillik yillarida fuqarolar turmush darajasining yuksalishi, aholi sonining o‘shishi, ular tomonidan haj va umra safarlariga borish istagida amaliy yordam so‘rab ko‘plab murojaatlar qilinishi ham e‘tiborga olingan. O‘z o‘rnida Jamoatchilik kengashining ushbu qarori aksariyat vatandoshlarimiz tomonidan keksalarimizga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik sifatida iliq kutib olingani kuzatilmog‘da.

Ayni paytda ta’kidlash joizki, islom dini ta’limotlariga ko‘ra har bir insonga umrida bir marta haj ziyoratini amalga oshirish (haj safari davomida umra ziyorati ham bajariladi) farz qilingan. Bunda albatta uning sog‘lom va iqtisodiy jihatdan yaxshi ta’minlangan bo‘lishi belgilangan. Shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham Arabiston yarim orolida yashagan bo‘lsalarda umrlarida bir marta haj amalini bajarganliklari tarixdan ma’lum.

Aksariyat musulmon mamlakatlarida, jumladan, Saudiya Arabistoni Podshohligida ham o‘z fuqarolariga 5 yilda bir marta haj qilishlari mumkinligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Umid qilamizki, yurtdoshlarimiz haj va umra ibodatlarini ado etmagan fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida Jamoatchilik kengashining umra va haj safarlarini tashkil etish bilan bog‘liq bu yilgi qarorini to‘g‘ri tushunadilar.

---

<sup>1</sup> Усмонов М. Маънавий ва маданий меросни асрашнинг ҳуқуқий асослари. ЎзДСМИ хабарлари — 2018/1(5) – Б.4

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya vakillari o‘z ibodatlarini emin-erkin ado etib, tinch-totuv, ahil-inoqlikda yashab kelmoqda. Ikki ming bir yuzga yaqin masjidlarda yurtdoshlarimiz tinchlik-xotirjamlikda ibodatlarini ado etmoqda. O‘ttiz yil ichida bu borada ko‘p o‘zgarishlar bo‘ldi. Shu bilan birga, ba’zida qaltis xatolar, cheklashlarga ham yo‘l qo‘yildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan rezolutsiyani qabul qilish taklifi bilan chiqar ekan, shunday degan edi: “...Ushbu rezolutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan”. Bu rezolutsiya BMT ga a’zo davlatlar tomonidan yuksak hurmat bilan qarshi olinishi va qabul qilingani O‘zbekistonga nisbatan jahon hamjamiyatining ehtiromi va e’tirofi yanada kuchayishiga xizmat qildi<sup>1</sup>.

Keyingi yillarda tobora obod bo‘lib borayotgan masjidlarimiz, u yerda ibodatga keluvchilar uchun yaratilayotgan pokiza sharoitlar, issiq suv, sovuq suv, masjidlar sahniga to‘shalgan yaxlit gilam-joynamozlarni ko‘rganda, Qurbon va Ramazon hayitlaridagi o‘zgacha munosabat, o‘zgacha fayzni ko‘rganda beixtiyor dilingizda “Bo‘lar ekan-ku!” deb yuborasiz. O‘zbekistonni avtomobilda kezsangiz, qurilayotgan ko‘plab masjidlarga ko‘zingiz tushadi. Katta yo‘l bo‘ylaridagi maxsus belgilar shu yaqin atrofda masjid borligini ko‘rsatib turadi. Har bir mehmonxonada maxsus belgilar bilan qibla tomon belgilab qo‘yilgan. Yana bir jihat, islom diniga xos masjidlardan tashqari mamlakatimizdagi boshqa diniy tashkilotlarga tegishli ibodatxonalarda ham ko‘plab qurilish ishlari amalga oshirildi.

Yana bir muhim jihat. Mustaqillik yillarida 305 ming nafar yurtdoshimiz Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borib, shulardan 130 ming kishi Haj, 175 ming kishi Umra amalini ado etgan bo‘lsa, keyingi yillarda yaratilgan sharoit, emin-erkinlik, xalqimiz xohish-istaklari asosida bu ko‘rsatkich yanada o‘sdi. 2017-yili O‘zbekiston tarixida

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017 Б-234

birinchi marta Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 150 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularning hamrohlari imtiyozli ravishda Haj ziyoratiga yuborilishi yuksak insonparvarlikning yana bir namunasi bo‘ldi. 2018-yildan boshlab esa Umra ziyorati yil davomida amalga oshirila boshlandi, o‘sha yili 16 000 nafar, 2019-yili 38 000 nafar, 2020-yilning I choragida 28 000 nafar yurtdoshimizga ulug‘ ziyorat saodati nasib etdi<sup>1</sup>.

2017-yil 1-sentabr kuni davlatimiz rahbari Hazrati Imom majmuasiga tashrifi chog‘ida diniy soha xodimlari, jamoatchilik vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvda “Qur‘on musobaqasi” o‘tkazish taklifini ilgari surdi. Qur‘oni karim tilovati bo‘yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil etilib, unda besh mingdan ziyod qori ishtirok etdi. Bu xalqimizga cheksiz quvonch va shukronalik baxsh etdi<sup>2</sup>

2017-yil 19-sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasi minbaridan turib so‘zlagan nutqini butun dunyo hamjamiyati, qanchadan qancha davlatlarning prezidentlari, islom olami ulamolari, butun dunyo musulmonlari, jumladan, O‘zbekiston xalqi katta hayajon, g‘urur, shukronalik bilan tingladi. Negaki, shu kuni ilk bor islom dinining asl insonparvarlik mohiyati bilan birga buyuk vatandoshimiz, ulug‘ muhaddis Imom Buxoriy nomi ushbu qutlug‘ minbarda uning munosib avlodi tomonidan yangradi.

“Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”<sup>3</sup>.

Mustaqillik yillarida 32 ming o‘zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo‘ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. „Islom

<sup>1</sup> <https://oyina.uz/uz/article/43> M. Mirzo, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari

<sup>2</sup> <https://oyina.uz/uz/article/43> M. Mirzo, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017



nuri“ gazetasi chiqmoqda. Qur’oni Karim sakkiz marta 1 mln nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg‘onishidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017*
2. *Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017*
3. *Abdurashid qori Baxromov. Mustaqillik va vijdon erkinligi// Demokratiya va inson huquqlari.-Т., 1999.-№ 34.*
4. *Холикулова Х.Ю. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавиймаданий тараққиёти. (Ўқув қўлланма). Жиззах, 2020.*
5. *Усмонов М. Маънавий ва маданий меросни асрашнинг ҳуқуқий асослари. ЎзДСМИ хабарлари — 2018/1(5)*
6. *<https://oyina.uz/uz/article/43> М. Mirzo,Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari*

**ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI TALQINI****Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Hazrat Alisher Navoiyning chizgilari naqadar go‘zal bo‘lib, ular insonda g‘azal janriga oshuftalik kasb etadi. Uning g‘azallarida ishq ifodalanadi. Uning "Deyin" radifli g‘azali boshqa ishqiy mavzudagi lirik she‘rlardan keskin farq qilmagandek, oshiq ma‘shuqaning, odatdagidek, chiroyini turli uzvlari, ya‘ni qoshi, ko‘zi, sochi, yuzi, labidan chiqqan so‘zlar va kiyimi, ya‘ni moviy ko‘ylagi, gulrang to‘ni ta‘rifi orqali tasvirlab, ishqiy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq, aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu so‘z va qiyoslar zamirida ajib bir badiiy go‘zallik yashiringan.*

*kalit so‘zlar:* o‘xshatish, she‘riy san‘atlar, oshiqona so‘z, radifli g‘azal, vasf, qofiya.

**ANNOTATION**

*Hazrat Alisher Navoi's lines are so beautiful, they make people fall in love with the ghazal genre. Love is expressed in his ghazals. His radif ghazal "Deyin" is not significantly different from other lyrical poems on romantic themes, as usual, the beauty of a lover is expressed in various parts, i.e. eyebrows, eyes, hair, face, words from lips and clothes. , i.e. the blue shirt, the pink dress, by describing it, it seems to describe his romantic anguish. However, in fact, with the power of the great poet's pen, a strange artistic beauty is hidden under these words and similes.*

*key words:* simile, poetic arts, romantic speech, rhyming ghazal, adjective, rhyme.

Alisher Navoiy – buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiydan milliy madaniyatimiz va abiyotimiz uchun bebaho ijodiy-ilmiy merosi qolgan. Alisher Navoiyning buyuk va bebaho nodir adabiy asarlari asrlar osha dunyo xalqlarini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Alisher Navoiy yuksak ma’rifat egasi, g‘azal mullining sultonidir. Uning g‘azallarida nafislik ufurib turadi. Navoiyning g‘azallarini o‘qish barobarida inson uning mazmun-mohiyatini anglab, ruhan tushunib boradi. Navoiyning g‘azallarida ishq kuylanadi, yor vasfiga oshuftalik motivi ilgari suriladi.

Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki fors tilida ham ijod qilgan. U turkiy tilda yozgan asarlarida Navoiy, fors tilidagi asarlariga Foniyl taxallusini qo‘llagan. Uning g‘azallarida oshiqona so‘z mavjud. Jumladan, uning "Deyin" radifli g‘azalini tahlil etadigan bo‘lsak, g‘azal umumiy tavsifda juda go‘zal ma’no kasb etadi.

*Qoshi yosinmu deyin...*

*Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,*

*Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?*

*Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,*

*Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?*

G‘azalda ohangdorlik faqat qofiya va radif orqaligina ta’minlanmaydi. Baytlarning birinchi qismidayoq ohangdorlik mavjud. Baytlarning har birida tushunchalar ifodalanadi. Jumladan, birinchi baytdayoq yorning qoshi va ko‘zi ifodalanadi. Bu orqali uning qoshi egik va ko‘zlarining naqadar go‘zal qora rangga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ikkinchi baytda esa "ko‘z qahri" va "kipriki zahri" haqida so‘z boradi. Uning go‘zalligi, vasfi va jamolida aks etgan go‘zalliklar tasvirlanadi. Uchinchi baytda oshiqning yoq hajrida jafu chekkanligini, ishqida yonganini bildiradi. Bu yerda unga izhor va uning vasliga yetishish umidi bor. G‘azalning boshqa baytlarida ham shu kabi oshiqona so‘z va yorning iztiroblari aks etadi. To‘rtinchi

baytda yorning "zulfi" tilga olinadi. Oshiq uchun yorning zulfi uning sochlarining uzunligi-yu, tim qora tunga qiyos qilinishi tasvirlab kelinadi. Albatta, gʻazallarida tasvirlanadigan parilar juda goʻzal va betakror tasvirlanadi. Baʻzan bu tasviriy ifodalar bilan birga mubolagʻa va turli sheʻriy sanʻatlar ham ifodalalanadi. Yorning qoshi, koʻzi va boshqa diltortar xusni tashxis orqali jonlantirilib gulga, jonsiz predmetlardan kamonga va boshqa vositalarga oʻxshatiladi. Beshinchi baytda yorning qaddi niholga qiyoslanadi. Oshiq uchun sevimli yoq hamisha nozik va niholdek nafis tasvirlanadi. Koʻp gʻazallarda uchragani kabi yor qaddi sarv daraxtiga qiyoslanishi ham kuzatiladi. Bu esa uning tik qomatga ega ekanligidan dalolat berishga xizmat qiladi. Navoiy gʻazallarida ham bu kabi tasviriy ifodalar va oʻxshatishlar juda goʻzal qalamga olinadi. Navoiy ajib sir ila ajoyib goʻzallikni bunyod etadi. Ushbu gʻazal hazrat Navoiyning sheʻrxon tuygʻularini titroqqa solib, uning tafakkur tarziga oʻzgarishlar kiritadigan sheʻrlaridan biri boʻlib, u ishqiy-tasavvufiy mavzudadir.

Mazkur gʻazalda tasviriy ifodalardan tashqari, sheʻriy sanʻatlar ham joy olgan. Baytlarda uchraydigan tazod sanʻati buning yorqin dalilidir. Jumladan, dard va davo, hajr va yor vasfiga erishmoqlik soʻzga olinadi. Bu esa gʻazalning qimmatini oshishiga xizmat qiladi. Umuman, gʻazal tahlillari asarning mazmun-mundariyasi, badiiy obrazlar tizimi, shoirning sanʻatkorlik mahorati haqida yaxlit, qamrovli tasavvur hosil qiladi. Navoiy qalamining qudrati nechogʻlik kuchga ega ekanligini birgina shu gʻazal orqali anglab yetish mushkul emas.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI***

1. <https://tafakkur.net/qoshi-yosinmu-deyin/alisher-navoiy.uz>
2. <https://fayllar.org/birinchi-qism.html?page=7>
3. <https://anarim.az/img/search.php?newwindow=1&safe=off&hl=az&q=Navoiyning+boshdan+oyoq+savol+javob+tarzida+yozilgan+gazali&sa=X&ved=2ahUKEwjXztmskLXzAhW7CRAIHXXGC18Q1QJ6BAgAEAc>
4. <https://yuz.uz/uz/news/bir-gazal-tarixiyoxud-alisher-navoiy-hayotida-inson-rizoligining-muqaddasligi>

## IMPROVING SPEAKING SKILLS THROUGH CONTENT LANGUAGE AND INTEGRATED LEARNING

**Orzikulova Mavsuma Mamatkulovna**

SamDCHTI stajyor- o'qituvchisi

### **ABSTRACT**

*The article gives information about the meaning and usage of CLIL, how CLIL helps to develop the class, aim of the subject, benefits of Content language integrated learning, ways of improving speaking skills by the help of content language and integrated learning.*

**Key words:** *CLIL, knowledge, benefits, advantages, subjects, STT, TTT,*

The basis of CLIL is that content subjects are taught and learnt in a language which is not the mother tongue of the learners.

- ✓ Knowledge of the language becomes the means of learning content
- ✓ Language is integrated into the broad curriculum
- ✓ Learning is developed through increased motivation and the study of natural language seen in context. When learners are interested in a topic they are stimulated to learn language to communicate
- ✓ CLIL is focused on language acquisition rather than enforced learning
- ✓ Language is seen in real-life situations in which students can acquire the language. This is natural language development which builds on other forms of learning
- ✓ CLIL is long-term studying. Students become academically proficient in English after 5-7 years in a good bilingual program



✓ Fluency is more crucial than accuracy and errors are a natural part of language learning. Learners develop fluency in English by using English to communicate for a variety of purposes

✓ Reading is the important skill.

The pro of CLIL

CLIL aids to:

- ✓ Introduce the wider cultural context
- ✓ Prepare for internationalisation
- ✓ Access International Certification and enhance the school profile
- ✓ Develop overall and specific language competence
- ✓ Prepare for future studies and / or working life
- ✓ Improve multilingual interests and attitudes
- ✓ Diversify methods & forms of classroom teaching and learning
- ✓ Increase learner motivation.

CLIL in the classroom

CLIL assumes that subject teachers are able to exploit opportunities for language learning. The best and most common opportunities arise through reading texts. CLIL draws on the lexical approach, encouraging learners to notice language while reading.[1]

Content Language Integrated Learning (CLIL) is a dual-focused educational approach in which an additional language is used for the learning and teaching of both content and language. That is, in the teaching and learning process, there is a focus not only on content and but also on language. CLIL is not a new form of studying language and it is not a new form of subject education. CLIL is an educational approach in which various language supportive methodologies are used which lead to a dual-focused form of instruction where attention is given both to the language and the content: achieving this twofold aim calls for the development of a special approach to teaching in that the non-language subject is not taught in a foreign language but with and through a foreign

language. It opens up doors on an educational experience which can be very hard to achieve in a language-learning classroom. But CLIL is an approach which is neither language learning nor subject, but an amalgam of both and is linked to the processes of convergence. Content and language integrated learning (CLIL) is a method for acquiring content through an additional language (foreign or second) or language with some specific content, hence teaching the subject through the language. David Marsh identified the term in 1994. At first, the idea was connected with teaching business content to business people, and the principal aspect is linked to effective language immersion. CLIL is very important in the world as it integrates the teaching of content from the significant with the teaching of a non-native language. Some scientists prefer to choose an identical theme within the language course — soft CLIL, others would prefer to focus on teaching half of the curriculum in the target language — hard CLIL. There are four components of CLIL:

### **1. CONTENT**

The subjects according to curriculum taught in CLIL consist of art, citizenship, classics, design and technology (DT), economics, environmental studies, geography, history, information and communication technology (ICT), literacy, mathematics, music, physical education (PE), philosophy, politics, religious studies (RE), science, social science and technology.

### **2. COMMUNICATION**

Students should improve communication skills for expressing ideas about subject content and to support students to be active. They need to explain and interpret functions (facts, data, thoughts, and feelings), both in writing as well as orally. Communication skills are vital. Thus, CLIL is aimed at STT (student talking time) and reduce TTT (teacher talking time). To improve meaningful and effective communication the following strategies are utilized:

- brainstorming to introduction and end of topic of study
- open questions
- discussions with each other

- peer feedback
- group feedback
- share ideas with a partner before writing and after writing
- report back on research found on the Internet
- prepare poster or PowerPoint presentations
- role play or debates

### 3. COGNITION

CLIL promotes cognitive or thinking skills such as reasoning, abstract thinking, hypothesing, creative thinking synthesis, evaluating and so on.

### 4. CULTURE

‘Culture is at the fundament of CLIL. CLIL gives us opportunities to introduce a wide range of cultural contexts to help students develop positive attitudes and become aware of the responsibilities of global as well as local citizenship. To understand how CLIL works, have a look at [lessons](#) covering various subjects and how English intensifies and provides the learning process. CLIL helps students discover and develop multiple skills — so-called literacy skills. CLIL approach emphasizes on Pluriliteracy skills development through cognitive discourse functions. In other words, you help your students build and structure knowledge according to [higher order thinking](#). Hence your students learn the language to perform and apply it to their field.[2]

The aims of CLIL The aims of CLIL may be different: they range from helping young people understand the point of learning a language to developing advanced language skills; the aims may include getting teachers to change teaching practice (content and language teachers), or increasing levels of harmony between inter-ethnic groups.

Benefits of CLIL implementation: - Language Proficiency. Different approaches in Bilingual education focus on the learners’ proficiency development. Learners acquire the abilities to learn from the second language by ‘developing study skills’. Coonan mentioned that who states that when the learners are engaged cognitively, they learn languages more successfully. Coyle noted that the use of CLIL improves

students' proficiency as they have been exposed to the target language in classes. Accordingly, Dupuy demonstrated that CLIL has not only improved the target language proficiency but also extended both first and second language awareness. Moreover, Mehisto agrees that implementing CLIL synthesizes language abilities rather than focusing on teachers' performance, he also distinguishes that the materials provide some linguistic features and register, which improves students' linguistic awareness. According to Liubiniene CLIL helps to integrate students' language abilities. For this, our teaching experience and our knowledge share the fact that these students are interested in all information related to their specialization. This means that they may develop their skills in CLIL classes and can be observed in their attitude in the class. As a consequence, it proofs the value of developing certain skills using CLIL for the reason to improve their study skills, which leads for a better proficiency. Marsh assumes that CLIL programs can develop a feel good attitude among students. This is clear when they achieve higher proficiency level may have a positive effect on their willingness to learn and develop their language competence. Research projects conducted in various contexts have illustrated that the attitudes and motivation to learn a second language can vary not only from language to language but even within the same group of learners and also within different age groups (ibid). A remarkable case is a study carried out in the Basque Country. The study tried to analyze the attitudes towards English of three different groups of students. The first group consisted of students enrolled in the fourth year of primary education; the second one of second year secondary education students and the third one was designed of first-year high school students. The findings showed that the first group held significantly more positive attitudes towards the Second language, whereas the third group presented the least positive ones. The researcher used both psychological and educational factors to explain these results. The third group's reaction would be based on older students' rejection of the school policy as a result of the change from a family identity to a more individual and peer group identity. The other is connected with the various teaching methodologies used in primary and secondary education. In primary education learners

enjoy the oral-based approach and methodologies based on drama and storytelling, whereas in secondary education and high school grammar 10 and vocabulary become obvious and the methodology is usually teacher-centered. The conclusion to be drawn is therefore that there is a failure in attitudes towards the second language due to both psychological and educational issues and this leads us to think whether the use of CLIL approach may help to avoid or at least reduce the effect of the mentioned factors. Implementing CLIL will be an enormous addition for learners and their willingness to learn a second language. Learners often claim that part of their success is related to ability of the teachers. They falsely believe that if they have a native teacher they will gain more but they forgot the fact that teaching is a skill and it is not about only fluency [3]

There are a lot of different people in the world and everybody has different way of studying, the same happens with CLIL process. The American professor Howard Gardner says that there are eight different kinds of intelligence. All of people can be divided into eight intelligent groups: • Linguistic. • Logical-mathematical • Bodily-physical. • Visual-spatial. • Musical. • Naturalistic. • Interpersonal. If a teacher is using the theory about different intelligence, it helps students to produce the information and language in a lot of different ways. If we talk about CLIL techniques using during the lesson, student will have some benefits, such as: - Students learn the same way as native speakers do. - Lessons are based around highly motivational topics using a top down approach. - The content is familiar to students and multiple intelligence friendly. - Students focus on fluency and communication and have the opportunity to experiment with language. The necessity to educate multilingual and multicultural citizens has created the dire need to explore new teaching methodologies that can ensure the learners' command of foreign languages. Content Language Integrated Learning is an innovative method of teaching whereby language is used as a tool for learning both the content of a subject of the school curriculum and the language itself. Although CLIL is not a new trend in Europe, in Greece only in the past few years have some attempts been made to implement it in schools on an experimental basis. The present study



examines the potential of CLIL in the development of the speaking skills of students in the sixth grade of Primary School. Given the complexity of the speaking skill, it is difficult to find ways to explore and assess the learners' oral production on the basis of valid and reliable criteria. Hence, both quantitative and qualitative methods of research are employed in order to provide data for the analysis and interpretation of the results. The assessment criteria of the speaking tests of the national certificate of competence in foreign languages were applied. Observation, of the CLIL lessons, and a questionnaire investigating the students' attitude to the approach, were also applied. The findings, of this research, show the effectiveness of CLIL in the speaking skills of students. [4]

### **REFERENCE**

1. <https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/educational-policies-practices/articles/content-and-language>
2. <https://skyteach.ru/2019/04/01/what-is-clil-and-how-can-we-apply-it-to-english-teaching/>
3. *МальцеваЕ.Ю. Content Language Integrated Learning 2020*
4. <https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/educational-policies-practices/articles/content-and-language>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

**Esanova Muyassar Nazar qizi**

TerDPI Maktabgacha ta’lim mutaxassisligi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning rivojlanishining bosqichlari va o‘ziga xosliklari, bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan, jumladan multimediali vositalardan foydalanish afzalliklari hamda “O‘zbekim dasturlari” elektron nashrlar tahririyati haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Maktabgacha yosh, tafakkur, idrok, diqqat, o‘yin, AKT, kommunikativ, yetakchi faoliyat.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrda PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi. o‘yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi - boshqa tarbiya vositalari qatorida to‘plangan ijtimoiy

tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazilishini, bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. O'yinning ijtimoiy tabiati shundan iboratki, u faqat muayyan ijtimoiy sharoitda voqe bo'la oladi. Jamiyatning katta a'zolari bolalarning yashashi va o'sishi uchun zarur moddiy sharoit yaratish asnosida o'yinlarning rivojlanishi uchun ham ob'ektiv imkoniyatlar yaratadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi u juda muhim ahamiyatga ega: ular uchun o'yin - bu o'rganish, ular uchun o'ynash - bu mehnat, ular uchun o'yin - bu ta'limning jiddiy shakli. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin bu atrofdagi dunyoni o'rganish usulidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ynashga bo'lgan ehtiyoj va o'ynash istagi muayyan ta'lim muammolarini hal qilish uchun ishlatilishi kerak. O'yin, agar u yaxlit pedagogik jarayonga kiritilgan bo'lsa, ta'lim vositasi bo'ladi. O'yinni olib borish, o'yinda bolalar hayotini tashkil etish, bolaning shaxsini rivojlantirishning barcha jihatlariga ta'sir qiladi: his-tuyg'ular, ong, iroda va umuman o'zini tutish. O'yinda bola yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Idrok, diqqat, xotira, taffakur fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'yinlar umuman maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishiga qaratilgan. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda bolalarni maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalar asosida kasb-hunarga qiziqishlarini oshirish hozirgi kunda yaxshi natija berayotgan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi bu jarayonda bolaning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. O'yinli texnologiyalar ta'lim jarayonida sifat samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Bolalarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. O'zbekistonda birinchi marta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur "Rang va shakllarni

o‘rganamiz” deb nomlanib, “O‘zbekim dasturlari” yaratilgan bo‘lib, bolalarning ranglar va shakllarni ajrata olish ko‘nikmalarini oshirish hamda qiziqarli o‘yinlar va misollar orqali mantiqiy tafakkurga o‘rgatishga qaratilgan. Bolalar dastur yordamida qizil, sariq, oq, jigarrang, ko‘k, yashil kabi ranglarni oson ajrata boshlaydilar, doira, uchburchak, to‘rtburchak kabi sodda shakllarni, shuningdek, narsa-buyumlarni ma’lum bir belgilariga qarab tasniflashni o‘rganadilar. Kiritilgan turli rasmlar va qisqa multfilmlar orqali bolalarning o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan yanada yaqindan tanishuvlari ta’minlanadi. O‘quv jarayonidagi rag‘batlantirish yordamida esa bolalarni bilim olishga qiziqtirib boriladi. Dastur maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuterda ishlash normalariga asoslangan bo‘lib, bolalar dastur bilan mustaqil ishlay oladilar. “Rang va shakllarni o‘rganamiz” nomli ushbu multimediyada dasturi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan dasturlar tizimining dastlabki namunasi. Hozirgi kunda “O‘zbekim dasturlari” elektron nashrlar tahririyati tomonidan shu turkumdagi yana yangi dasturlar tayyorlanmoqda. Ular bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish, sanoq va matematik amallarni tez va oson bajarish ko‘nikmalarini hosil qilish ingliz, rus alifbolarini o‘rgatish va boshqa shu kabilar yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan. Bugungi kunda kompyuter deyarli har bir oilada bor, shu bois u hatto kichkintoylarda ham qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Axir ularga biroz vaqtingizni nima uchundir monitorga qaragan holda o‘tkazishingiz juda qiziq-da. Sirli narsalar esa odamlarni har doim o‘ziga tortib kelgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-sonli Qarori.*
2. *Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.*
3. *Rahmonov A. Jumanazarov Yo. “Yosh va pedagogik psixologiya”. Namangan. 2008*
4. *Рогов Е.А Настольная книга практического психология Москва. 1999*

## **BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYALAR ASOSIDA YARATILGAN BIOPREPARATLAR**

**Shodiyeva Dildora G‘iyosovna**

SamDTU Mikrobiologiya, virusalogiya va immunologiya kafedrası assistenti

**E-mail:** [dildoraannayeva786@gmail.com](mailto:dildoraannayeva786@gmail.com)

**Jamalova Feruza Abdusalomovna**

SamDTU Mikrobiologiya, virusalogiya va immunologiya kafedrası assistenti

**Boltayev Komil Sultanovich**

SamDTU Mikrobiologiya, virusalogiya va immunologiya  
kafedrası katta o‘qituvchisi B.F.N<sup>3</sup>

### **ANNATOTSIYA**

*Bacillus turiga mansub bakteriya shtammlaridan biopreparatlar tayyorlashda keng foydalaniladi. Ushbu turga kiruvchi bakteriyalar bir qator ijobiy xususiyatlarga ega. Fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi yuqori antagonistik xususiyatga ega, biologik faol moddalar (vitaminlar, almashinmaydigan aminokislotalar, fitogarmonlar, GK, ISK) sintezlaydi. Bacillus turiga mansub bakteriyalardan biopestitsid sifatida 70% preparatlar ishlab chiqilgan (Melo va boshq., 2016; Liu va boshq., 2019). Bacillus thuringiensis bakteriya shtammlari asosida yaratilgan biopreparatlar, o‘simlik zararkunanda hasharotlariga qarshi eng ko‘p ishlatiladigan biologik vosita hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Bacillus, Bacillus thuringiensis, Cyt-oqsillar, N-atsetilglyukozamin, ko‘sak qurti.*

### **ABSTRACT**

*Bacillus strains are widely used in the preparation of biopreparations. Bacteria belonging to this type have a number of positive properties. It synthesizes biologically active substances (vitamins, essential amino acids, phytohormones, GK, ISK) with high antagonistic properties against phytopathogenic microorganisms. 70% of*



*preparations have been developed as biopesticides from bacteria belonging to the genus Bacillus (Melo et al., 2016; Liu et al., 2019). Biopreparations created on the basis of Bacillus thuringiensis bacterial strains are the most widely used biological agents against plant pests.*

**Kirish:** *Bacillus turiga* mansub bakteriya shtammlaridan biopreparatlar tayyorlashda keng foydalaniladi. Ushbu turga kiruvchi bakteriyalar bir qator ijobiy xususiyatlarga ega. Fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi yuqori antagonistik xususiyatga ega, biologik faol moddalar (vitaminlar, almashinmaydigan aminokislotalar, fitogarmonlar, GK, ISK) sintezlaydi. *Bacillus turiga* mansub bakteriyalardan biopestitsid sifatida 70% preparatlar ishlab chiqilgan (Melo va boshq., 2016; Liu va boshq., 2019). *Bacillus thuringiensis* bakteriya shtammlari asosida yaratilgan biopreparatlar, o'simlik zararkunanda hasharotlariga qarshi eng ko'p ishlatiladigan biologik vosita hisoblanadi. Bitoksibatsillin- spora hosil qiluvchi *Bacillus thuringiensis* bakteriyasi asosida yaratilgan. Biopreparat oq –jigarrang kukun shaklida bo'ladi. Bakteriya shtammining sporalari preparatning dastlabki ta'sir qiluvchi moddasi hisoblanadi. Dipel- AQSh da ajratib olingan *Bacillus thuringiensis* bakteriya shtammi asosida yaratilgan. G'ozga o'simligida zarar keltiruvchi ko'sak qurtiga qarshi qo'llaniladi. Biopreparat bilan g'ozga o'simligiga butun vegetatsiya davomida 2 marta ishlov beriladi.

**Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili:** *Bacillus thuringiensis* bilan zararlanishda infeksiya jarayon rivojlanishini asosan kristall shaklli va oqsildan iborat bo'lgan endotoksin ta'minlaydi. *Bacillus thuringiensis* vegetativ hujayrasida kristall paraspora tuzilma mavjudligini Berliner 1915-yili aniqlagan bo'lsada, uning tabiati va ta'sir mexanizmini o'rganish bo'yicha jiddiy tadqiqotlar o'tkazish XX asming ikkinchi yannidan boshlandi. Bunda chuqur ma'lumotlar tangachaqanotli hasharotlarga patogen bo'lgan o-endotoksin o'rganilganda olindi. *Bacillus thuringiensis* o-endotoksinni kodlovchi ko'pchilik genlar bakterial hujayra plazmidalariga mansubdir. Endotoksin genlarini ilk bor *Escherichia coli* hujayralarida klonlangandan so'ng *Bacillus*

*thuringiensis* -toksinlar genlarini ajratishga oid juda ko'p ma'lumotlar to'plandi va ulami tizimga solish ehtiyoji tug'ildi. Insektitsid ta'sirli va kristall shaklli oqsillarni kodlovchi genlarni cry (inglizcha crystall - kristall so'zidan) atamasi bilan, toksinlarning o'zlarini esa Cry atarnasi bilan belgilandi. Genlar va oqsillarga berilgan harf va raqamlar (masalan, Cry IAb yoki Cry 3Ca) oqsil aminokislotlari ketma-ketligining o'xshashlik darajasini aks ettiradi. *Bacillus thuringiensis* subsp. israelensis kenja turida, Cry-oqsillardan tashqari, gemolitik ta'sirga ega bo'lgan Cyt-oqsillar ham ma'lum.

**Metodologiya:** Tadqiqot ishini amalga oshirishda mavzu yuzasidan barcha elektron hamda yozma manbalar o'rganildi ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi shu bilan birga tadqiqot amaliy qismida biotexnologik, mikrobiologik, botanik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Yangi nomenklaturaga binoan Cry- va Syt-oqsillari quyidagicha tavsiflanadi. Cry - tadqiqotdagi organizmga ishonchli, tajribada isbotlab bo'ladigan, toksik ta'sir ko'rsatadigan kristall oqsildir yoki aminokislotlar ketma-ketligi muayyan Cry-oqsilnikiga juda o'xshash bo'lgan har qanday oqsildir. Cyt - gemolitik xususiyati mavjud bo'lgan BI kristalli oqsildir yoki aminokislotlar ketma-ketligi muayyan Cytoqsilnikiga juda o'xshash bo'lgan har qanday oqsildir.

**Natija muhokama:** Cry-oqsilning rentgenostruktura analizida ular uch domendan iborat ekanligi aniqlandi. I-domen yetti alfa-spirallar dastasidan iborat. II-domen, chiqib turuvchi halqalar bilan I Domen - muayyan modda yoki bo'yicla farqlanuvchi muayyan bir qimmi. 80 tugallanadigan antiparallel beta-strukturalardan iborat. III-domen sandwich shaklida joylashgan ikkita beta-strukturadan tashkil topgan. II-domen bilan bog'lanadigan retseptorlar tabiati ancha qiziqish uyg'otadi. Bir necha hasharotlar turlarida Cry IAs retseptorlari sifatida, tarkibida bevosita bog'lovchi molekula sifatida N-atsetilglyukozamin faoliyat ko'rsatadigan va molekular og'irligi (m.o.) 120 kDa bo'lgan Aminopeptidaza (APN) xizmat qilishi aniqlangan. Turli toksinlarning molekular og'irligi 120 kDa emas, balki 40, 120 va 210 kDa bo'lgan retseptorlari ham topilgan. Molekular og'irligi 120 kDa bo'lgan, ammo APN dan ancha farqlanadigan retseptor ham aniqlangan. Bu retseptor tarkibida biotin mavjud bo'lgan

oqsil ekanligi va uning bog'lovchi molekulasi biotin ekanligi aniqlandi. Toksinlar hujayraga kirishidan oldin ulaming retseptorlari hujayra membranasi bog'lanadi. 1-domeni strukturasi toksin membranaga o'mashish mexanizmini belgilaydi. Bu jarayonning ikki modeli taklif qilingan.

**Xulosa:** Birinchi «qalamtarosh» modeliga binoan, g'ovakcha hosil qilish uchun bir qancha toksin molekulalarining oligomerizatsiyasi yuz beradi va ayni paytda 1-domenning alfa-S va alfa-6 spirallari pichoq singari ochilib, membranaga kiradi. Ikkinchi «soyabon» modeliga binoan, alfa- va alfa-5 qo'shaloq spirallari sochto'g'nag'ich kabi membranaga kiradi, qolgan spirallar esa membrana sirtiga soyabon simto'ri singari joylashadi. Spiral sochto'g'nag'ich membranada g'ovakcha hosil qiladi. Hasharot ichagida epitelial hujayra membranasi kirgan toksin proteaza fermentlari ta'siriga chidamli bo'lib, u g'ovakchalar yoki ion kanallari hosil qiladi. Bu suv va ionlar oqimi hujayraga kirishiga, hujayra shishishi va lizisiga olib keladi. Shunday qilib Cry-toksinlar ta'sir sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin: - hujayra membranalari retseptor bilan bog'lanishi; - toksin hujayra membranasi kirishi va unda g'ovakchalar yoki ion kanallari hosil qilishi; - osmotik disbalans yuz berishi va hujayra nobud bo'lishi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Annayeva, D. (2022). *CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL*. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. *извлечено от* <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>
2. Giyosovna, S. D. (2023). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI*. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>
3. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB Olish*. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-972.

<https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

4. Ташкенбаева, Э. Н., Аннаев, М., & Абдиева, Г. А. (2022). ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ В ИЗУЧЕНИИ КАРДИОЛОГИИ. Журнал кардиореспираторных исследований, 3(4).

5. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>

6. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEKNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120.

7. Одилова Гулноза Махсудовна, Рустамова Шахло Абдухакимовна, Мамарасулова Нафиса Исрофиловна, and Болтаев Комил Султонович. "Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях" *Вопросы науки и образования*, no. 28 (77), 2019, pp.

8. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256.

9. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF NEMATODA FACILITIES OF SHORTAGE PLANTS AND TREES IN ZARAFSHAN FOREST BIOTOPES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 101-105.

10. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324.

11. Жамалова Ф. А. и др. Цинк И Заживление Ран: Обзор Физиологии И Клинического Применения // *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 33-40.

12. Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 50-55.

*Erkin Vahidov’s work is highly analyzed in terms of subject, idea, style, variety of genres. In the example of the author’s creativity, we can understand the statement of many topical and eternal literary problems. One of them is the issue of national liberation. In the article, thoughts and opinions about the motive of freedom were expressed. The expression of this topic in the epics of the poet was analyzed using examples.*

**Key words:** *motif, theme, interpretation, leitmotif, character, landscape, detail, modern literature, freedom, song, introduction.*

## KIRISH

Shaxs erki va ozodlik g'oyasi adabiyotning muhabbat kabi qadimiy va azaliy mavzularidan biridir. Muqaddas Hadisi sharifimizdan tortib, xalq og'zaki ijodida uchraydigan hikoyatlarning katta qismi, xalq maqollari, hind xalq eposi "Kalila va Dimna"ning ko'pchilik hikoyatlari ayni shu mavzu xususida bahs yuritadi. XVIII asr o'zbek adabiyotining yorqin vakili Gulxaniyning "Zarbulmasal"idan o'rin olgan "Tuya bilan Bo'taloq" masalida erk va ozodlikning qimmatini naqadar baland ekanligi majoziy obrazlar vositasida juda ta'sirchan ifodalangan. Keyingi asrlarda ham bu mavzu adabiyotda yetakchi mavzulardan bo'lib keldi. XX asrda shaxs erki va ozodlik g'oyasining falsafiy, ijtimoiy-axloqiy mazmuni kengayib, siyosiy motivlar kuchaydi, butun bir xalqlar va millatlarning erk va ozodlikka intilishlari kuylana boshlandi. Osiyo va Afrika qit'asidagi mamlakatlarni o'z mustamlakalariga aylantirgan inglizlar, fransuzlar, ispanlar, portugallar zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari avj ola boshladi. Ozodlikni kuylash, milliy uyg'onish va milliy vatanparvarlik g'oyasi adabiyotning kurashchan ruhini oshirdi, badiiy tafakkurning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga ma'naviy ta'sirini kuchaytirdi. Muhammad Iqbol, Nozim Hikmat, Rabindranat Takur she'riyati XX asr badiiy tafakkuriga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning asarlarida kuylangan milliy erk, ozodlik tuyg'ulari badiiy ifodasi dunyo bo'ylab tarqaldi, yangi-yangi ozodlik kuychilarini maydonga keltirdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tahlil etish, mazmunini ochib berishda atoqli adabiyotshunos olimlar I.G'afurov, U.Normatov, I.G'aniyev, M.Qo'chqorovalarning nazariy qarashlari, internet saytlarida mavzuimizga dahldor fikrlarga, muallif asaridan olingan she'riy parchalarga, yozuvchi, nosir, tanqidchi A.Muxtor mulohazalariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi. Dostonlarda keltirilgan she'riy parchalar orqali maqola mazmuni ochib berishga harakat qilindi.

O‘zbek adabiyotida milliy ozodlikni kuylash o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ldi. O‘zbek xalqi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. XX asrning boshlarida jadedlar milliy zulm va istibdodga qarshi bosh ko‘tarib chiqdilar va xalqni milliy uyg‘onishga, o‘z erki va ozodligi uchun kurashga chorladilar. Istibdod iskanjasida bo‘lgan xalqni ozodlik uchun kurashga da‘vat etishda ma‘rifatparvar shoir va yozuvchilarimiz turli vositalar va usullardan foydalandilar. Fitratning “Hind ixtilolchilari”, “Munozara” asarlarida hind xalqining ingliz mustamlakachilari tomonidan jabr-zulm chekayotgani ifodalangan bo‘lsa ham, aslida Turkiston o‘lkasidagi xalqlarning ayanchli ahvoli o‘z aksini topgan edi. Keyin ham yozuvchi va shoirlarimiz erk va ozodlik haqidagi orzu-umidlarini xorijiy mamlakatlarda o‘z millati va xalqi erk-huquqi uchun kurashgan va shu yo‘lda jonlarini fido qilgan qahramonlar obrazlarini yaratish orqali ifodalab keldilar. Ana shunday asarlar sirasiga Erkin Vohidovning 1979 yilda yaratgan “Ruhlar isyoni” dostoni ham kiradi.

“Gapning ochig‘ini aytganda, men Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonini muallif o‘zi o‘qiganda ikki bor eshitdim. Necha-necha marotaba uni qayta-qayta o‘qidim. Har o‘qiganimda o‘zim uchun qandaydir yangilik olaman. Menga u ko‘p jihatlardan bugungi o‘zbek she‘riy tafakkurining-lirik tafakkurining cho‘qqisi bo‘lib ko‘rinadi. Bunda so‘zlar shu qadar g‘uborsiz, tiniq va sof alanga bo‘lib yonadi. So‘zlarning shu musaffo alangalari tafakkur teranliklarini yoritadi. Faqat men aytamanki, bu dostonni shoshmasdan, hech qachon shoshmasdan va hatto hijjalab o‘qish kerak” [3, 203-204] deydi adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov. Bu fikrlarning qanchalik haqiqat ekanligiga imon keltirish uchun dostonni qo‘lga olish va bir qur unga nazar solish darkor.

Asarning bosh qahramoni Nazrul Islom-bengal shoiri. U o‘z she‘rlarida haqiqatni kuylaydi, ona xalqini ozod ko‘rishni istaydi, shuning uchun uning yozganlari isyon ruhi bilan sug‘orilgan. Shoirlikni u shunday tushundi: elning dardi bilan yonmaslik, unga najot berolmaslik, biror mushkuliga yaray olmaslik har qancha zo‘r iste‘dod bo‘lmasin, hech kimga kerak emas. haqsizlikka, erksizlikka hamma ko‘nishi mumkin, ammo shoir

xalqi ko‘nmaydi, uning yuragi isyon o‘ti bilan doim lovillab yonib turadi. Nazrul Islom shunday shoir, u xalqini ozod ko‘rish niyatida o‘zining butun hayotini kurashga bag‘ishladi, shu yo‘lda fido bo‘ldi va milliy qahramonga aylandi. Dostonni tahlil etar ekan, munaqqid Umarali Normatov uni falsafiy doston deydi va “...muallif Nazrul Islom jasorati, fidoyiligi, fojeiy qismati bahonasida shoirning, umuman ijodkorning hayotdagi o‘rni, fuqarolik burchi, qolaversa, insoniylik, fidoyilik, erk tashnaligi, ijtimoiy va ma’naviy hayotning boshqa xilma-xil muammolari ustida o‘y-mushohadalarga toladi” [1, 27] deb ta’kidlaydi.

“Isyon qo‘shig‘i” bobida Nazrul Islom tilidan erk va ozodlikning qadr-qimati ulug‘lanadi, shoir xalqining ozodligi uchun o‘zini fido qiladi, xalqni shunga da’vat etadi:

Qo‘zg‘al,  
Ulug‘ bobolarning  
Pok ruhi uchun.  
Erk bongin ur,  
Sen intiqom - Tablin baland chal.  
Tug‘ilgansan ozod,  
mudom  
Ozod bo‘lib qol [2, 381].

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Dostonning ilk misralarini o‘qigandanoq kishi uning sehriga, qudratiga asir bo‘ladi, maftun bo‘ladi, so‘zlar tashiyotgan fikrning salmog‘i, zalvori, ta’sirchanligiga lol qoladi. Muqaddimadayoq shoirning bosh estetik maqsadi ayon bo‘ladi. Bu ozodlikning qadr-qimmatini ulug‘lash, istibdodning odamzod boshiga solgan g‘amu kulfatlarini qoralash, ozodlik yo‘lida fido bo‘lganlarni sharaflashdir. Shodlik va quvonchdan ko‘ra g‘ami ko‘p bu dunyoda yana bir dard borki, bu dard shoir qalbini qiynaydi, undan aslo qutulib ketolmaydi, hatto bu dunyoni tark etib ketganida ham ruhi bilan birga yashaydi:

Bu- shoirning dilin ezgan  
Istibdodning dardidir.  
Yurakdan qon bo‘lib sizgan  
Iste‘dodning dardidir.  
To‘lg‘og‘ida bu alamning  
Tanho ingroq- xonish bor.  
Abadiyat Jahannamning  
Otashida yonish bor [2, 368].

Doston kompozitsiyasi muqaddima va to‘rt fasldan tashkil topgan. Shuningdek, “Abadiyat haqida rivoyat”, “Fidoyilik to‘g‘risida rivoyat”, “Jaholat to‘g‘risida rivoyat”, “Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”, “Shoirlar va payg‘ambarlar haqida rivoyat” berilgan bo‘lib, ular asar syujetiga singdirib yuborilgan va kompozitsion tugallikni ta‘minlagan.

“Abadiyat haqida rivoyat”da inson umri qisqa va abadiy emasligi, ammo ana shu qisqa umrni u mazmunli, ma‘noli o‘tkazishi shart. Inson o‘zining ezgu ishlari bilan abadiy qoladi, biroq bu dunyodagi umri o‘tkinchi, uning uchun dunyo-foniy. Poyonsiz sahroda sehrlil chashmaga duch kelgan insonga g‘oyibdan sado keladi: chashmaning suvini ichgan hayotda abadiy yashab qoladi. Odam o‘ylaydi: nima qilsa ekan, abadiy yashashni tanlasinmi yoki foniy umrni? Yo‘lda ketar ekan, u qumga ko‘milgan boshni ko‘radi. U o‘sha chashmaning suvidan ichgan edim, endi bu dunyodan qutila olmayapman, meni o‘ldir, deya iltijo qiladi. Shunda odam chashmaning suvini ichmasdan sabr-toqat qilganiga shukrona aytadi va qo‘lidagi ko‘za to‘la suvni yerga ag‘daradi.

Shaxs erki dostonida yetakchi motiv sanaladi. “Fidoyilik haqida rivoyat”da bu g‘oyat ta‘sirchan va badiiy yuksak darajada o‘z ifodasini topgan. Qadim Hindistonda eri o‘lsa, xotinini tiriklay birga qo‘shib ko‘mishgan. Rivoyatda bir yigit jangga ketar chog‘i shohga murojaat qilib, “agar jangda o‘lsam, mening yonimga xotinimni emas, balki jang qurolimni ko‘minglar, xotinim yashasin, chunki u naslimning davomi, kelajakni yaratuvchidir”, deydi. Uning vasiyati bajariladi, jangda halok bo‘lgach, uning



yoniga qilichini ko‘madilar va ota-bobolarning ming yillik odatiga qarshi bosh ko‘targan kimsa qoralanadi. Ammo shoir ana shu tahqirlangan qabrga yukinishga da’vat etadi, uning jasoratini olqishlaydi:

Bu dunyoda nohaqlikka  
Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.  
Zo‘rlik ko‘rsang,  
Qilma toqat, Har boshda bir o‘lim bor.  
Fidoyilar umri faqat  
Bu dunyoda poydor! [2, 387]

1926 yilda Kalkutta shahrida g‘alayon bo‘ladi. Bunda hindular bilan musulmonlar bir-biriga dushmanlik qilib, bir-birini o‘ldirishadi. Bu xunrezlikning sababchilari Yevropadan kelgan oq tanli bosqinchilar edi. G‘alayon qilayotgan xalq bir-birini mahv etayotganini kuzatib turgan bosqinchilar bundan huzur qilishadi, g‘alayonga chek qo‘yishni emas, balki uning yana uzoq davom etishini istashadi. Shunday paytda Nazrul Islom maydonga chiqadi. U o‘zining o‘tli she‘rlari bilan hindu musulmonga haqiqiy dushmani kim ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, ularni bir-biri bilan do‘st bo‘lishga chorlaydi, hamjihat bo‘lib, ular orasiga nifoq solgan bosqinchini Hind ummoniga uloqtirishga da’vat etadi. Ammo aql ko‘zi ko‘r bo‘lgan olomon uni anglamaydi. Bosqinchilar esa bundan foydalanib, Nazrul Islomni hibsga olishadi, uni g‘alayonning tashkilotchisi, xalqni yo‘ldan ozdiruvchi deb ayblashadi. Uni zindon qilishadi. Uni qo‘riqlab borayotgan soqchilarning biri hindu, biri musulmon. Chunki bosqinchilar nihoyatda ustomon, ular ikki xalqni bir-biriga qayrab, sababchisini ham o‘zlaridan ekanligiga ishontirishadi. Shoirning dardlariga hech narsa davo bo‘lolmaydi, chunki bu elni mudom jaholat chulg‘ab olgan. “Jaholat haqida rivoyat”da uning qanchalik ayanchli va dahshatli oqibatlar borligi ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, “Shoirlar va payg‘ambarlar haqida rivoyat” “Zamin sayyorasi” to‘plamiga kiritilgan dostonning muqobilida “Zohidlar va oriflar haqida hikoyat” sarlavhasi ostida berilgan. Har ikkalasining matni bir-biridan butunlayfarq qiladi. Hikoyatda zohidlar va oriflar o‘rtasidagi ixtilof va oriflarning hayotsevarligi, ozodlikka

tashnaligi ulug‘lanadi. Hikoyatning tahrir etilgan muqobilida fikrlar yanada tiniqlashgan, mazmun salmoqdorligi ortgan.

### **XULOSA**

Erkin Vohidov ijodi mavzu, g‘oya tomonidan ham, uslub, janrlar xilma-xilligi jihatidan ham nihoyatda tahlil talab. Shoir ijodining g‘oya va mazmuni nihoyatda boy. Muallif ijod namunasida ko‘plab dolzarb adabiy va abadiy muammolar bayonini anglashimiz mumkin. Shulardan biri milliy ozodlik masalasi hisoblanadi. Shoirning “Ruhlar isyoni” dostoni bu mavzuni yorqin bo‘yoqlarda ifodalagan asardir. Ushbu doston erk va ozodlikka qo‘yilgan badiiy haykal, ona tilimizning qudrati, jozibadorligi va nafisligini ko‘z-ko‘z etuvchi asardir. Yana ham diqqat bilan tahlil etilsa, halollik, ishonch, vatanga sadoqat, yolg‘onchilikdan chekinish, pok e‘tiqot, umrni xayrli ishlarga baxshida etish masalalari ham dostonda o‘z badiiy ifodasini topgan. Maqolada esa ulardan biri – ozodlik motivi haqida fikrlar va mulohazalar bayon etildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Normatov Umarali, Ko‘ngillarga ko‘chgan she‘riyat (Erkin Vohidov ijodiy yo‘liga bir nazar), Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent, 2006 y. B.27.*
2. *Vohidov Erkin, Sadoqatnoma, Caylanma, II jildlik, ikkinchi jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986 y. B.381.*
3. *G‘afurov Ibrohim, Sharq Prometeyi, E.Vohidov, Zamin sayyorasi, so‘ngso‘z, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 20014 y. B.203-204.*

## БАСТАУЫШ СЫНЫПТАРДА ҰЛТТЫҚ-ӘДЕП ҒҰРЫПТЫ, САЛТ-ДӘСТУРДІ ҮЙРЕТУ

Умирзакова Нұршат Есенғали қызы

Әжінияз атындағы Нөкіс мемлекеттік педагогика институтының Бастауыш тәлім факультетінің 1-Z топар студенті

### *АННОТАТСИЯ*

*Бұл шығармада ертеден келе жатқан әдеп-ғұрыпты, салт-дәстүрді үйрету туралы мәлімет келтірілген. Бастауыш сыныптарда ұлттық-әдеп ғұрыпты салт-дәстүрді балалардың бойына сіндіріп бару. Оларға атадан мирас болып қалған байлықты үйрету болып табылады,*

***Тірек сөздер:** ұлттық-әдеп ғұрып, салт-дәстүр, атадан мирас болып қалан байлық*

Халқымыз ежелден-ақ салт-дәстүрге бай. Қазақтың өмірімен біте қайнасып кеткен рухани және мәдени азықтардың, яки, дәстүрлердің барлығы дерлік бүгінгі күнге дейін сақталды деп айта алмаймыз. Ұмытылып кеткен, не халық жадында жүрсе де орындалмайтын дәстүрлер баршылық. Әрине, ғасырлар бойы бодандық тәртіптің қырсығынан дәстүрлердің ережесі де бұзылған болар. Десек те, дәстүрді өмір сүрумен тең құқылы дәрежеде алып жүруіміз қажеттілік секілді. Ежелгі дәстүрлердің ішінде, азын-аулағына тоқталып өтейік:

Ерте кездерде халқымыз әр түрлі айтулы тойларға ерекше мән беріп, алдын ала жан-жақты дайындық жасаған. Келін түсіріп, ұл балаларды үйлендіру тойының жөн-жоралғысына, сән-салтанатына жасалатын түрлі ұлттық кәделерге ерекше көңіл бөлген. Осындай қуанышты тойлардың бірі – келін түсіру тойы деп есептеп, соған орай "той малы" деген дәстүр қалыптасқан. Бұл дәстүрге әрбір құда жағы өз дәулеті мен шамасына қарай жылқы немесе қой және т.б мал

әкелуге ұмтылған. "Той малы" дәстүрі екі жақтағы татулығы мен ынтымақтылығы дәнекер болатын ерекше дәстүр деп есептеледі.

Тағы бір дәстүріміздің бірі – қымызмұрындық. Ол – халқымыздың ежелден жылқыға байланысты қалыптасқан шаруашылық дәстүрінің ең айтулысы. Қымызмұрындық – қазақ халқының Ұлыстың ұлы күні – Наурыздан кейінгі үлкен мерекесі болып саналады. Бұл мереке – Сарыарқа алқабында "биемұрындық", Батыс Қазақстанда – "қымызмұрындық", Шыңжанда – "биебау", ал Монғолияда – "биебайлар" деп аталады. Қыстан қысылып шыққан ел көктем туысымен жаны жадырап кең жайлауға қоныс аударып, төрт түлігін төлдетіп қуанышқа бөленеді. Қымызмұрындық дәстүрі кезінде желі басына жұрт жиналып, бие желініне, сауырына, құлынның кекіліне, қазық басына, желіге май жағылып, "құтты бол, сүтті бол, өсімтал бол" деген тілек айтылып бата жасалады. Қымызмұрындық салтанаты тарқамай жатып-ақ биенің алғашқы сауымы басталады. Бұл дәстүр кейде "Қазық майлау" деп те аталады.

Ең қызықтысы әлемде 15 түрлі әдеп-ғұрып өте сирек кездеседі

- 1- Құмырсқаға қолғап киіңіз
- 2- Сонгкран фестивалінде су лақтыру
- 3- Өлгендердің күлін жегізу
- 4- Жүкті әйелді жанып жатқан көмірге апару
- 5- Канамара Мацуридегі алып пенистің мүсіндерін серуендеу
- 6- Махаббат белгісі ретінде қызды ұрлап алыңыз
- 7- Өлгендермен билеу
- 8- Сүт тістерін төбесінен лақтыру
- 9- Балаңызды картон қорапта ұйықтатыңыз
- 10- Ауру белгісі ретінде саусақтарыңызды кесіңіз
- 11- Лои Кратхонгтың өзгермелі фонарларына тамсаныңыз
- 12- туыстардың денесін лашындарға ұсыну
- 13- Адамзатқа бата беру үшін аю қанын ішіңіз
- 14- Күнәлар кешірілуі үшін қанжармен кесіңіз
- 15- Қарттарды айсбергке тастаңыз

Осылар әлемде өте сирек кездесетін екен. Бұлардың біріне тоқталып өтсек.

Сүт тістердің төбесіне лақтыру. Батыс елдерінің көпшілігінде балалардағы сүт

тістерінің жоғалуына байланысты қандай да бір дәстүр бар. Олардың барлығы дерлік тісті жастықтың астына қалдырумен байланысты, өйткені оны тіс ертегісі немесе тіс перісі алып кетуі керек. Алайда, Грецияда әдет мүлдем басқаша. Батыс әлемінде болып жатқан оқиғалардан айырмашылығы, грек баласы тісінен айырылған кезде, ата-анасы оны үйінің төбесіне шығып, сол жерден көшеге лақтыруға шақырады.

Дәстүрде мұны жасау арқылы соңғы тістің сау және дұрыс мөлшерде өсетіндігі айтылады. Жанама әсері, егер сіз Греция көшелерімен өтіп бара жатсаңыз, аспанға қарап, тіс қателікпен басыңызға тиіп кетпес үшін қажет.

Сыңсу . «Халқымызда тұрмыс салт жырларының ең көп тарағандарының бірі сыңсу». Ұзатылған қыз өз босағасынан аттанр алдында ағайын туғандарын аралайды. Былайша айтқанда қоштасады (Бірақ бұл дәстүрлі қоштасу емес). Жеңгесін ертіп ағайындарын аралап жүрген қыз жәй жүрмейді. Ол өзінің балалық дәуренінің, оң жақта бұлғақтап өскен бақытты күндерінің өткендігін, аяулы ата анасының, туысқандарының өзін мәпелеп өсірудегі еңбегін өлеңмен айта жүріп өксиді. Ондай өлең жырды сыңсу дейді.ажет.

Қыз ұзату» (салт, той). «Ұлын ұяға, қызын қияға қондыру» ата ананың тілегі әрі парызы. Соның ішінде қыз ұзату үлкен той, думан әрі қызық. Бұл күні ата ана қуанады, әрі жылайды. Қуанатыны қыз өсірді және оны құтты жеріне қондыруы, жылайтыны әрине қимастық көңілі.

Қызды алуға құда (тақ санмен) бес не жеті кейде одан да көп адам келеді. Мұның ішінде бас құда, құдалар және күйеу жолдас болады. Солтүстік және Орталық Қазақстанда тек ер адамдар барады. Құдалар әдетте кешкілік баруы керек. Мұнда ойын сауық, құдалық рәсімдер мен кәде жоралар жасалады. Жақын адамдар құданы үйіне шақырады.

Ұзатылатын қызды дәстүр бойынша таң ата, күн шыға жөнелтеді. Оның алдында қыз «Қоштасу жырын», жастар «Жар жар», «Ау жар», «Аушадияр» айтылады.

Халқымызда ұмтылып бара жатқан дәстүрлерде бар, Салт-дәстүр әр ұлттың, халықтың діні мен сеніміне, тұрмыс-тіршілігіне байланысты болып табылады. Салт-дәстүр ұлт үшін өмір сүреді, қоғам үшін заң болып табылады, адамдарға рухани байлық болып есептеледі. Салт-дәстүрлеріміздің кейбірі халық арасында кеңінен пайдаланылып жүрген болса (айдар тағу, қонақ кәде, бастаңғы және т.б.), кейбірі ұмыт қалып барады. Әсіресе жастарымыз біле бермейтін салт-дәстүрлеріміз жетерлік. Ата-бабаларымыздан мұра боп қалған салт-дәстүрлер әрдайым игі мақсаттар үшін қолданыста болған. Сол себепті оларды біле жүру, кей-кейде өмірде іске асыру да артық етпес.

Ақсарбас атау. Қауіп-қатерге ұшырағанында «А, Құдайым оңдасын! Мені осы қиындықтан құтқара гөр! Ақсарбас!» деп құдайы атайтын болған. Мұндай жағдайда «Ақсарбас!» деп үш рет айқайлаған. Сосын қауіп-қатерден аман қалғанында әлгі адам ауыл аймағын шақырып құдайы берген. Ақсарбасқа шалынатын малдар: бозқасқа (қой), көкқасқа (жылқы), қызыл-қасқа (сиыр). Адам ақсарбас атағанда қай малын айтса, соны құдайыға союға тиіс.

Қазақтың ұлттық ойындары бес түрге бөлінеді. Олар: аңға байланысты, малға байланысты, түрлі заттармен ойналатын, зеректікті, ептілікті және икемділікті қажет ететін, соңғы кезде қалыптасқан ойындар. Олардың негізгілерінің өзі жүзден астам.

Ат сайысы. Спорттық ойын. Оның түрлері: ат омырауластыру, аударыспақ, жорға жарыс, көкпар тарту, теңге алу, қыз қуу, қыз жарыс, сайысу т.б. Олар үлкен тойларда ұйымдастырылады. Сайысқа түсетін аттар алдын-ала жаратылады. Ат сайысындағы кейбір ұлттық ойындар Олимпиада ойындарының жоспарына енгізіп ойнатады.

Солай етіп халқымызда әр түрлі салт-дәстүр бар, әр халық өз халқына байланысты салт-дәстүрді қолданылады.

Тұсаукесер – сәби қаз тұрғаннан кейін тез жүріп кетсін деген ырымен жасалады. Ол үшін ала жіп дайындалады. Бұл ала жіп аттамасын деген ұғымнан шыққан. Тұсауды әр адам өзіне жаққан адамға кестіреді, яғни сол адамға ұқсасын.

деген ырымен ,Тұсауы кесілген баланы қолынан ұстап жүгіртеді,шашу шашылады.Баланың ата-анасы тұсау кескен адамға қадесін береді.Тұсаукесерге ауылдын қыз-келіншектері, үлкен жасты әжелерді шақырады

### ***ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР***

- 1) *Қазақстан :Ұлттық энциклопедиясы 7 том*
- 2) *Кенжеахметов С, Қазақтың салт-дәстүрлері мен әдеп-ғұрыптары, Алматы 1994*



**TIBBIYOTDA DOLZARB MUAMMOLARDAN BIRI – ALLERGIYA.  
UNING KELIB CHIQISHI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA  
PROFILAKTIKASI  
ONA SUTINING ALLERGIK KASALLIKLARNI KAMAYTIRUVCHI  
OMILI**

**Avezova Gulshod Sattarovna**

O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport Universiteti Anatomiya kafedrası  
assistenti.

**Mamasoliyeva Shahnoza Farhod qizi**

O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport Universiteti Tibbiyot fakulteti  
Davolash ishi yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Turli xil allergenlarning organizmga kirishi natijasida allergik kasalliklar kelib chiqib, hozirda allergenlarga ega mahsulotlar ko‘paymoqda. Organizm immun sistemasi orqali ularga qarshi kurashadi. Turli allergik sinamalar yordamida insonda mavjud allergiyalar o‘rganilib, yetarlicha profilaktika choralarini ko‘rish lozim. Aks holda oddiy allergen ham og‘ir asoratlargacha olib boradi. Davolash tadbirlarida xalq tabobati, farmatsevtika vositalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari ona suti ham o‘ziga xos profilaktik va davolovchi ta’sirga ega.*

***Kalit so‘zlar:** Allergenlar, allergik reaksiyalar, ona suti, allergik sinamalar, dieta, allergiyaga qarshi o‘simliklar va dorilar.*

**Asosiy qism.** Organizmga tushadigan antigenga nisbatan rivojlanadigan sensibilizatsiya va ikkilamchi immun javob – immunitetning muhim mexanizmidir.

Organizmga qayta allergen kiritilganda yuzaga keladigan patologik reaksiya allergiya deyiladi. Bu termini tibbiyotga K.Pirke kiritgan. Yer sharining 25-30% aholisi allergik kasalliklar bilan kasallanadi. D.Ado va A.Polker allergenlarni kelib chiqishiga ko'ra infeksiyon va noinfeksiyon guruhlarga ajratadi. Infeksiyon guruhga barcha mikroorganizmlar kiradi. Noinfeksiyon allergenlar : o'simliklar gulining changi, oziq – ovqat, maishiy, epiallergen, dori, sanoat allergenlari.

O'simliklar gulining 35 mkm dan kichik chang zarralaridan mavsumiy allergiya kelib chiqadi. Bunday o'simliklarga akatsiya, qayin, qayrag'och, eman, findik, terak, olxa, chinor kabilar kiradi. Epidermal allergenlar – yovvoyi va uy hayvonlari yungi va qazg'og'ida uchraydi. Oziq – ovqat allergenlari har xil mahsulotlar, masalan, baliq, asal, yong'oq, sut, tuxum, mosh, no'xat, shokolad, sitrus mevalar va h.k larda uchraydi. Kimyoviy allergenlarga kukunlar, pastalar, ursol (soch bo'yog'I tarkibidagi modda ), benzin, benzol kabilar ega. Dori vositalariga nisbatan allergiyalar 0,9%li fiziologik eritma va glukoadan boshqa deyarli hamma dorilar tufayli kelib chiqishi mumkin. O'tgan asrning 40-yillariga qadar dori allergenlari 0,5 – 1,5 %, bugungi kunda 15 - 30% bemorlarda uchraydi. Bu allergenlar reytingi bo'yicha antibiotiklar yetakchilik qiladi. 2-o'rinda steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilarni keltirish mumkin. Qolaversa, mahalliy anestetiklar, tarkibida yod moddasi mavjud dorilar ham keng tarqalgan allergenlardir. Bulardan tashqari sigir sutining allergen tarkibini alohida ta'kidlash lozim. Unda allergiyaga sabab bo'luvchi f2, Bos d4, Bos d5, Bos d6, Bos d8, Bos d9, Bos d10, Bos d11, Bos d12 allergenlari mavjud. Ular ko'proq 2 – 3% emizikli bolalarda uchraydi, 5 yoshda 80 % ida bu holat yo'qoladi, 6 yoshda 100 ta boladan 1 nafarida allergiya kuzatilishi mumkin.

Allergenlar tufayli allergik reaksiyalar kelib chiqadi. Ularni P.Jell va R.Kumbs lar tasniflashgan. Unga ko'ra anafilaktik, sitotoksik, immun birikmalar reaksiyasi va hujayraviy reaksiyalar farq qilinadi. Bularning barchasi organizmning o'ziga xos immun javoblari natijasida kelib chiqadi. Sustkor giperta'sirchanlik reaksiyalariga: eruvchan oqsillarga nisbatan, tuberkulin yoki infeksiyaga qarshi, teri allergiyasi, autoallergik va to'qima, a'zolari ko'chirib o'tkazishda rivojlanadigan allergik

reaksiyalar kiradi. Allergik reaksiyalar oqibatiga ko'ra, yengil yoki o'rtacha va og'ir allergik reaksiyalarga bo'linadi. Hayot uchun eng xavfli anafilaktik reaksiya bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam talab qiladi. Hasharotlar chaqishidan ham kuchli allergik reaksiyalar kelib chiqadi.

Allergik reaksiyalarning laboratoriya diagnostikasi ularning mexanizmidan kelib chiqib olib boriladi. I tur reaksiyalarda IgE lar, II tur reaksiyalarda qon zardobida eritrotsit, leykotsit, trombositlarga qarshi antitelolar, III tur reaksiyalarda qonda aylanib yuruvchi immun birikmalar, IV turda esa teri-allergik sinamalar qo'yiladi.

Allergik kasalliklarni davolashda dieta, dorivor o'simliklar, farmatsevtik dorilar qo'llaniladi. Dorilar bilan davolashda: gistaminga qarshi dorilar (dimedrol, suprastin, diazolin, tavegil), yallig'lanishga qarshi dorilar (ibuprofen, butadion), immunomodulyatorlar, bazofillarni barqaror qiluvchi dorilar (izoprenalin, geparin, salitsilat, kortikosteroidlar) qo'llaniladi. Oziq-ovqat allergiyalarida dieta qilish muhim ahamiyatga ega. Iloji boricha allergenli oziq-ovqatlardan saqlanish lozim. Allergiyaga qarshi o'simliklar ro'yxatiga moychechak, milfoil, yalpiz, qichitqi o't, piongul, selderey kabilar kiradi. Ulardan damlamalar va sharbatlar tayyorlanib foydalaniladi.

Ona suti chaqaloqlar uchun allergiya xavfini kamaytiruvchi ham profilaktik, ham davolovchi ta'sirga ega. Ona suti bilan boqilmagan bolalarning 25%ida allergik kasalliklar uchraydi. Bu esa ular organizmida immunitetning pasayishi, infeksiyalarga tez-tez chalinishga olib keladi. JSST ma'lumoti bo'yicha, ko'krak suti bilan ko'krak yoshidagi bolalarni ovqatlantirilganda dunyo 1mlndan ortiq bolalar o'limidan holi bo'lar edi.

Allergiya tug'ma bo'lmaydi, allergiyaga moyillik tug'ma bo'ladi va genlar orqali nasldan naslga o'tadi. Bola tug'ilganidan keyin allergiyaga sharoit va muhit bo'lsa u o'zini namoyon qiladi. Aks holda namoyon bo'lmasligi mumkin.

**Xulosa.** Butun dunyoda oxirgi 10 yil ichida allergik kasalliklar keng tarqalib bormoqda. Bunga yetarlicha sabablar topiladi, masalan, ekologiyaning buzilishi, ovqatlanish tartibi o'zgarganligi, ko'p miqdorda dorilar iste'mol qilish. Toshkent shahri va viloyatlardagi allergenlarning farqi mavjud. Toshkentda kiparez va alternative

allergiya ko‘p uchrasa, vodiylar viloyatlarida uy changlariga allergiya ko‘proq. Bu hududlar iqlimi, turmush tarzi va muhiti kabi xususiyatlariga bog‘liq. Allergik kasalliklar bilan kurashish tibbiyotning dolzarb muammolariga aylanib ulgurdi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *I. Muhamedov., mikrobiologiya immunologiya virusologiya. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2006*

2. *O.T. Alyaviya., fiziologiya. Toshkent, 2019*

3. *<https://sof.uz> tibbiyot*

4. *<https://zamin.uz> salomatlik*

## ZULFIYAKHANIM'S WAY OF LIFE AND CREATIVITY

**Qarshiyeva Shohista Musurmon qizi**

1st year Master of Obstetrics and Gynecology of the Tashkent Medical Academy

### ANNOTATION

*Life, who has not traveled these roads, but each person has his own life path, his own direction of life and dream of a goal. Some people leave a deep mark on our hearts, and one of those people who left a mark on our hearts is the poetess Zulfiyakhanim. As I describe Zulfiya Khanim's life path, it can be seen that her life was not smooth and that she faced many difficulties in her life.*

*This article describes the life path of the poetess Zulfiya, some important aspects of her work, various definitions given to her by poets and writers. The scope of themes and the world of images of poetess Zulfia's poems are analyzed. Also, the poetess Zulfia's ability to create a poetic image and poems will be highlighted through analysis. The analysis of Zulfiya's poems shows that the spirit and tone, content and direction, goals, ideas and ideals of his poems are determined by universal thoughts and feelings.*

**Key words:** *poetess, poetry, artistic nature, creativity, literature, unfading memories.*

Zulfia, who was born in the Okhchi neighborhood of Tashkent in a craftsman's family, learned from her father how to relate to work, and from her mother, who loved nature, flowers, and poetry, she heard the poems of Navoi, Bedil, and Fuzuli.

Having discovered the ability to write poetry, Zulfia was afraid that someone would find out about this hobby and laugh at her. In her memoirs, Zulfiya recalls that she wrote poetry as follows: "... I began to think in verses, not in simple phrases as usual... I remembered where I read the lines that sounded inside me and I was able to

remember. At first, I didn't believe that I wrote a poem myself. It was amazing, even a little scary..."

One day, when Zulfiya was still studying at the pedagogical college, a creative meeting with poets and writers of Uzbekistan took place in the assembly hall. Among them were Gafur Ghulam, Mirtemir, Uygun, Izzat Sultan, Hamid Olimjon. One of them was assigned by fate as her husband, adviser, companion, friend. Later, he met others several times in his life and creative path. Zulfia sang about her nation and its centuries-old traditions in her artistic works. In his work, the mother - the keeper of the family hearth - is glorified. A talented poet and writer, a connoisseur of human spiritual impulses, he wrote works of various genres: poems, ballads, elegies, lyric poems, novellas, essays, journalistic articles and newspaper correspondence. Many of his poems are devoted to the struggle for peace and friendship between nations. During the war, he wrote poems in the spirit of patriotism. Together with her husband, Hamid Olimjon, chairman of the Writers' Union, she participates in organizing the lives of writers evacuated from Uzbekistan.

As a public figure, Zulfiya participated in meetings with working people in the regions. In particular, she actively and regularly participated in meetings and conversations with young people in higher educational institutions and schools, in the women's educational institution of pedagogy led by her friend, admirer of the poet's talent, Mehri Sharipovna Sharipova.

Nikolay Tikhonov says about Zulfia: "Her poetry is full of love for life, spirit of freedom, a high sense of the world, the best human feelings. Zulfiya was able to say the dearest word from the bottom of her heart. She shone with a unique light, life was reflected in her incorruptibility of feelings, strict truth, charming lyrics and songs. His words echoed across the cities and fields, he went beyond the borders of his motherland. In Eastern countries - India, Egypt, Vietnam - everywhere they listened to the heart that gave birth to the flame of his poems. She herself is an Eastern woman who illuminates the path of her friends like a new dawn..."

People's poet of Bashkortostan, Mustai Karim, expressed Zulfiya's work very figuratively: "I think about his work. Zulfiya, I think about the earth, about the first soil where these creations found life. Turning to the indelible pages of Alisher Navoi and Zahiriddin Babur, who brought the past and the present together for me, I spent hours thinking and experiencing moments of insight. I deeply study the teachings of Abdulla Qadiri and Oibek, I read the lines of Gafur Ghulam and Hamid Olimjon. There I involuntarily obeyed the call of the trumpet, I was led by the friendly sounds of the trumpet, I was fascinated by the song of either joy or lamentation, I admired the towers piercing the sky. Colors of the earth and sky, ancient wisdom and sounds of the past, eternal labor and sweat flowing through the ditches - all this is Uzbekistan. That's why I asked: "Zulfiya, where did you come to the magical world of poetry?" I won't ask."

Rasul Ghamzatov remembered the name of Zulfiya forever: "...I heard this name for the first time - Zulfiya," the poet remembers when he was studying at the Institute of Literature. "It's like a song, the very name of spring excited me, I had never heard such a name before. I immediately wanted to include this name in some of my poems... Then Zulfiya was mentioned as a poetess and a person. After all, there are beautiful names, but the person himself does not match his name. So, when I learned about Zulfiya, when I met her personally at the writer's convention in Moscow, when I read her poems, I realized that she is a wonderful poetess and a wonderful person, a wonderful woman of the East. Uzbekistan is adequately protected. I will not hide that sometimes we treat women poets with a discount. But Zulfiya turned out to be a poetess whose fate is closely connected with the fate of her people... .. Not only her poems, but also her attitude to her poems examine the poet. I was in his homeland, I traveled with him around Uzbekistan. And I saw how they knew how they loved him. The younger ones called sister Zulfiya, the peers called her sister Zulfiya, and the older ones called her daughter Zulfiya. If you are recognized and honored in your own country, and then your fame spreads throughout the country - this is the happy fate of a poet! His song is loved. They are not only there, in the cotton fields and vineyards, not only under the acacias and maples of Tashkent. His song transcends the language barriers



of soul to soul and finds satisfaction in Poetry. His poetry is light. It teaches love and devotion. He teaches life and word responsibility. It teaches courage to love life, believe in hope for the future."

According to the memoirs of her daughter Alimjonova Zukhar Hamidovna, Zulfiya was very modest. When Anna Akhmatova lived in Tashkent during the evacuation years, Hamid Olimjon brought her food and cakes when she was sick. He thanked and greeted Zulfiya and asked to go to the guest. Zulfiya did not dare to go to Anna Andreevna. But he translated the poems of the Russian poetess, very close to him and understandable, with such creative enthusiasm and inspiration. Zulfia unjustifiably placed Akhmatova and Tsvetaeva above her in terms of poetic talent. Zulfia's poems were translated into Russian by many great Russian poets. Among them are Semyon Lipkin, Svetlana Somova, Zoya Tumanova, Yulia Neuman. The daughter of an ordinary degree saw national fame and recognition, but she always remained an amazingly humble, endlessly hardworking person. His restless heart did not rest for a moment, he was always on the road, in pursuit of news. We hope that Zulfiya's poetic observations and visions will be overshadowed by several generations and her work will serve as an example and inspiration for poets for many years to come.

### REFERENCES

1. Sizdikbayev N.A. *Imagery and lyrics by Zulfii. History of Uzbek literature. Tashkent, 2006.*
2. Zulfia — *Stikhotvorenia, headteacher Lipkina S.I. [Electronic resource]. The regime is accessible: <http://www.zulfiya.edunet.uz/rtilida.html/> (data obrashcheniya: 01.12.2019).*
3. Mukhamedjanova Vera — *SerdtsE vseгда v puti. [Electronic resource]. Mode dostupa: <https://yandex.ru/search/?text=Mukhamedjanova%20Vera%20%20SERDTsE%20VSEGDA%20V%20PUTI&lr=5/> (data obrashcheniya: 01.12.2019).*
4. Marat Safarov. *K century Uzbek poetess Zulfii. Tashkent, 2012.*

## SHIFOKOR VA BEMOR UCHUN GIGYENANING AHAMIYATI VA BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

**Erdanayev Ro‘ziboy Xolmuhamadovich**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya va jamoat salomatligi  
va menejment kafedrası assistenti: [ruziboy.erdanaev@mail.ru](mailto:ruziboy.erdanaev@mail.ru)

**Aminova Mohinur Normurod qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2-bosqich  
talabasi: [aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

**Mardonqulova Gulnora Karim qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi:  
[gulnoramardonaqulova068@gmail.com](mailto:gulnoramardonaqulova068@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunda dolzarb muommolarga aylanib borayotgan jarayonlardan biri shifokor va bemorni sanitar gigiyenik qoidalarga amal qilmasligi. Ushbu maqolada sanitar gigiyenik qoidalar va ularga to‘g‘ri amal qilish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Gigiyena, shifokor gigiyenasi, bemor gigiyenasi, shaxsiy gigiyena,*

**Asosiy qism:** Gigiyena — tibbiyotning bir sohasi; kishilar sog‘lig‘iga turmush va mehnat sharoitlari ta‘sirini o‘rganadi hamda kasalliklarning oldini olish, yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog‘liqni saqlash va umrni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Gigiyenaning bir necha sohalari bor. Aviatsion gigiyena, harbiy gigiyena, mehnat gigiyenasi, bolalar va o‘smirlar gigiyenasi (maktab gigiyenasi), shaxsiy gigiyena, ijtimoiy gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, radiatsion gigiyena va h.k. Gigiyena fiziologiya, patofiziologiya, epidemiologiya, toksikologiya, fizika, kimyo,

shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bogʻlangan, chun-ki tabiiy omillar bilan birga jamiyatning iqtisodiy ahvoli ham kishi sogʻligʻiga taʼsir etadi. Ehtiyot va kundalik sanitariya nazorati asoslarini ilmiy asosda ishlab chiqish, kishilarning yashash va ishlash sharoiti hamda dam olishini sogʻlomlashtirish boʻyicha sanitariya tadbirlarini asoslab berish, bolalar va oʻsmirlar sogʻligʻini saqdash, sanitariya qonun-qoidalarini ishlab chiqish, oziq-ovqat mahsulotlari va uy-roʻzgʻor buyumlari sifatini sanitariya ekspertizasidan oʻtkazishda qatnashish gigiyenaning vazifasidir. Sogʻliqni saqlash va kasalliklarning oldini olish, unumli ish qobiliyatini taʼminlash va umrni uzaytirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida turar joylar va i. ch. korxonalarini havosi, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va poyabzallarning gigiyenik normativlarini ishlab chiqish zamonaviy gigiyenaning eng muhim vazifalaridan biridir. Gigiyenaning amaliy tomonini maxsus boʻlim — sanitariya tashkil etadi. Gigiyenik tadqiqotlarda tashqi muhit (havo, suv, tuproq), oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, kiyim-kechak va poyabzallarni fizik-kimyoviy jihatdan oʻrganish usullari, sanitariya statistikasidan foydalangan holda bakteriologik, biokimyoviy, klinik va demografik tekshirish usullari qoʻllaniladi.

**Shaxsiy gigiyena** - gigiyenaning bir boʻlimi; shaxsiy hayot va mehnat faoliyatida amal qilinishi zarur boʻlgan gigiyenik rejim yoʻli bilan odam sogʻligʻini saqlash va mustahkamlash masalalarini ishlab chiqadi. Shaxsiy gigiyena har bir kishining oʻziga va yoshiga bogʻliq boʻlib, aqliy va jismoniy mehnatni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, jismoniy tarbiya bilan shugʻullanish vaqtida ovqatlanish, miriqib uxlash, mehnat va dam olishni toʻgʻri uyushtirishdan iborat. Tor maʼnoda badan (teri, soch, tirnoq, tishlar), kiyim-kechak, poyabzal, koʻrpa-toʻshak, turar joy, ovqat tayyorlash gigiyenasi va hokazo ham Shaxsiy gigiyenaga kiradi. Birinchi navbatda, badanni ozoda saqlashga eʼtibor berish zarur. Ayniqsa, badanning ochiq joylari, shuningdek, tirnoq osti tez kirilanadi, shuning uchun qoʻlni bot-bot sovunlab yuvib turish, tirnoqlarni toʻgʻri parvarish qilishga odatlanish kerak. Uyda ovqat tayyorlaganda ham qoʻlning tozaligiga eʼtibor berish lozim. Shaxsiy gigiyena qoidalariga bolalar juda yoshligidanoq odatlanishi zarur.

Kuniga dush qabul qilish yaxshi odat. Uyda dush bo‘lmasa, badanning ochiq, ayniqsa, ko‘p terlaydigan joylarini, qo‘ltiq va ko‘krak ostini issiq suv bilan sovunlab yuvish lozim. O‘ringa yotishdan oldin oyoqni yuvish, agar barmoq burmalarida chaqalangan, bichilgan joylar bo‘lsa davolatish kerak.

Og‘iz bo‘shlig‘ini toza tutish faqat tishlarning sog‘lom bo‘lishini ta‘minlabgina qolmay, balki ichki a‘zolaridagi kasalliklarning oldini olishda ham muhim. Tishni har kuni ertalab yuvishga, shuningdek, ovqatlangandan keyin og‘izni chayishga odatlanish kerak; agar og‘iz hidlansa, darhol vrachga ko‘rinish zarur.

SH.g. ga umumiy gigiyena tadbirlaridan tashqari, jinsiy a‘zolar parvarishi ham kiradi; buni bola balog‘atga yetganida emas, aksincha, bola tug‘ilganidanoq muntazam amalga oshirish kerak.

Ichki kiyim toza bo‘lishi, har kuni yoki kunora paypoqni almashtirib turish Sh.g. da juda muhim; badan, kiyimkechak, turar joy, oshxona, ish joyi va boshqalarning toza bo‘lishiga e‘tibor berish kerak (qarang Gigiyena).

Har bir oila a‘zosining sochig‘i, ko‘rpato‘shagi alohida bo‘lishi, ko‘rpayostiq jildi, choyshabni haftada bir almashtirib turish zarur. Uyquga yotishdan oldin ichki kiyimni almashtirish lozim. Sh.g. ga oid tadbirlarni, ayniqsa, oila a‘zolaridan biror kishi og‘riganda qat‘iy amalga oshirish talab etiladi, aks holda kasallik atrofdagilarga, xususan bolalarga tez yuqishi mumkin (qarang Bemorni parvarish qilish). Qiz va o‘g‘il bolalar parvarishining o‘ziga xos tomonlari bor (qarang Go‘dak, Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi). Sh.g. qonunqoidalari barchaga tegishli bo‘lishi bilan birga, uni kishining yoshiga, erkak va ayolning anatomikfiziologik xususiyatlariga bog‘liq tomonlari ham bor. Jinsiy a‘zolar va jinsiy hayot gigiyenasi (qarang Jinsiy gigiyena) masalalari bilan seksologiya shug‘ullanadi. Mehnat jarayonida Sh.g. ni to‘g‘ri tashkil etish ishini mehnat gigiyenasi o‘rganadi.

Bemorlarga asosiy gigiyena bilan yordam berish nafaqat tibbiy yordam ko‘rsatuvchi va bemor o‘rtasida shaxsiy aloqani o‘rnatadi, balki bemorning sog‘lig‘ini saqlash uchun ham juda muhimdir. To‘g‘ri parvarish miqdorini muvozanatlash sog‘liqni saqlash sohasidagi mutaxassisning mas‘uliyatidir. Juda ko‘p parvarish qilish

ham, juda kam parvarish qilish ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli xil sog'liqni saqlash muassasalari va turli xil bemorlar mavjud; Shunday qilib, har bir bemorga har bir holat bo'yicha qancha yordam kerakligini aniqlash kerak. Bemorlarga o'z gigienasi bilan imkon qadar yordam berishga ruxsat berilishi kerak. Sochni yo'q qilish, tarash, tarash va soch turmagi, og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish va cho'milish kabi vazifalar uchun yordam kerak bo'lishi mumkin.

Kontaminatsiyaning shifokor tomonidan bemorga va aksincha tarqalishining oldini olish juda muhimdir. Bemorga birinchi marta murojaat qilganda, shifokor bemorning shaxsini tekshirishi va uning jadvalini ko'rib chiqishi kerak. Ushbu jarayon provayderga to'g'ri davolanishni buyurishga va shaxsning ehtiyojlariga qarab o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Tozalikni saqlash uchun shifokorlar bemorga tegmasdan oldin har doim qo'llarini dezinfeksiya qilishlari kerak. Agar kerak bo'lsa, provayder turli xil protseduralar uchun qo'lqop kiyishi mumkin.

Tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayder va bemor o'rtasida aniq va kuchli aloqa liniyasi kerak. Bemorlar o'zlarining gigiena ehtiyojlarini muhokama qilishdan xijolat bo'lishlari mumkin, ayniqsa bartaraf etish haqida gaplashganda. Bemorlar bilan ushbu mavzularni ochiq muhokama qilish ularga o'zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi va tibbiy yordam ko'rsatuvchi provayderga ularning ehtiyojlari haqida batafsil ma'lumot beradi.

**Xulosa:** Bemorlar to'g'ri gigiena uchun doimiy monitoring olib borishlari kerak. Bemorlarga yordam berish chastotasi bemorning tibbiy holatiga va bemorning madaniy va shaxsiy e'tiqodlariga bog'liq bo'ladi. Ba'zi bemorlar muayyan gigiena vazifalarini qachon bajarishni afzal ko'rishlari mumkin. Misol uchun, islom diniga ergashgan bemorlar namoz o'qishdan oldin tanalarini yuvishni afzal ko'rishlari mumkin va qo'llarini yuvishda qo'lni tozalash vositasidan ko'ra suvdan foydalanishni afzal ko'rishlari juda ham yaxshi Islom dini nafaqat poklikka sog'lom turmush tarziga ham yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Pellatt GC. *Clinical skills: bowel elimination and management of complications.* 2007 Mar 22-Apr 11 *Br J Nurs.* 16(6):351-5. [[PubMed](#)]
2. Patel A, Parikh P, Dunn AN, Otter JA, Thota P, Fraser TG, Donskey CJ, Deshpande A. *Effectiveness of daily chlorhexidine bathing for reducing gram-negative infections: A meta-analysis.* *Infect Control Hosp Epidemiol.* 2019 Apr;40(4):392-399. [[PubMed](#)]
3. Petrozzi JW. *Comb and brush acne.* *Cutis.* 1980 Dec;26(6):568-71. [[PubMed](#)]
4. Tanaka K, Takeda K, Suyama K, Kooka A, Nakamura S. [*Factors related to the urination methods of elderly people with incontinence who require at-home nursing care*]. *Nihon Ronen Igakkai Zasshi.* 2016;53(2):133-42. [[PubMed](#)]
5. Ab Malik N, Mohamad Yatim S, Hussein N, Mohamad H, McGrath C. *Oral hygiene practices and knowledge among stroke-care nurses: A multicentre cross-sectional study.* *J Clin Nurs.* 2018 May;27(9-10):1913-1919. [[PubMed](#)]
6. Groven FM, Zwakhalen SM, Odekerken-Schröder G, Joosten EJ, Hamers JP. *How does washing without water perform compared to the traditional bed bath: a systematic review.* *BMC Geriatr.* 2017 Jan 25;17(1):31. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)]

## ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ БЛАГОРОДНЫХ МЕТАЛЛОВ МЕТОДОМ ПЛАВКИ ЗОЛОТОСОДЕРЖАЩИХ РУД

**Алимова Рано Тухтабаевна**

Магистрант(ка) группы 2М-21 Мет

Алмалыкский филиал ТГТУ им И.Каримова

**Суннатов Жахонгир Бахтиярович**

Старший преподаватель кафедры Metallургии

Алмалыкский филиал ТГТУ им И.Каримова

### ***АННОТАЦИЯ***

*На основании критического анализа существующих технологий производства золота в работе испытана возможность эффективного использования высокотемпературного процесса сократительной пирометаллургической селекции (СПС-процесса) особо упорных видов золотосодержащего сырья, минуя процессы их обогащения. СПС-процесс исследован и испытан в лабораторном, опытно-заводском и промышленном масштабах применительно к различным по составу упорным коренным рудам и концентратам золота. При этом экспериментально показана возможность высоких извлечений золота из упорных коренных руд (96-99 %) и концентратов золота различных месторождений (95- 98 %) в золотосодержащие штейны, выход которых составит от 5 до 10 % от веса перерабатываемого сырья.*

**Ключевые слова:** *арсенопирит, переработка, техногенные месторождения, минеральный состав, фазовый состав, СПС-процесс, малоотходная технология.*



Среди наиболее актуальных проблем развития цветной металлургии Узбекистана особое значение имеет производство золота. Вместе с тем, всесторонний анализ пройденного этапа развития страны, изменяющаяся конъюнктура мировой экономики в условиях глобализации и усиливающаяся конкуренция требуют выработки и реализации кардинально новых идей и принципов дальнейшего устойчивого и опережающего развития страны. [1]

Одно из главных мест в упорном золотосодержащем сырье занимают сульфидные руды, в том числе золотопиритные, золотомышьяковые (доля этих руд составляет 30 % мировых запасов золота в недрах, включая Узбекистан – Мурунтау, Кокпатас, Даугызтау). Кроме того, вызывают наибольший интерес минерально-сырьевые объекты золоторудных месторождений, в которых органическая составляющая представлена углеродистым веществом, включая руды сульфидный (в основном пирит – арсенопирит) состав руд с ультрадисперсным золотом в сульфидах; наличие низкотемпературной мышьяковой минерализации. [2]

Использование на основных золотоизвлекательных предприятиях устаревших, малопроизводительных, многооперационных и экологически опасных технологий добычи, обогащения и металлургической переработки золотосодержащих руд сегодня являются основными сдерживающими факторами роста и интенсификации производства золота. В результате этого допускаются большие потери золота, особенно на стадиях обогащения «упорных» и «особо упорных» руд с хвостами, в которых остаётся до 1,5- 2,5 г/т золота. По этой причине общее его сквозное извлечение в товарную продукцию из подобного сырья не превышает 60-70 % и руды данного типа относятся к категории труднообогатимых. [3]

Вопросы разработки новых технологий переработки освоения золотосодержащего сырья являются одной из наиболее актуальных проблем цветной металлургии мира. При этом, одной из нерешенных и коренных задач золотодобывающей промышленности является организация

высокоэффективной переработки сложных по составу упорных коренных руд золота.[4]

Исходя из такого состояния золотодобывающей подотрасли в республике, предусмотрена разработка целого ряда принципиально новых процессов переработки коренных руд золота, обеспечивающих существенное сокращение потерь металла и необходимую интенсификацию металлургического передела.[5]

В течение последних двух-трех десятилетий неуклонно уменьшается доля золота, извлекаемого из простых в технологическом отношении золотых руд.

Одной из главных проблем при переработке упорных золотосодержащих руд является извлечение ультрадисперсного золота, которое за капсулировано в сульфидных минералах и плохо извлекается традиционными методами. До 35 % потерь ценных компонентов в процессах первичной переработки связано с тонкими частицами (менее 10 мкм).

В практике Узбекистана золотодобычи нет примеров вскрытия упорных углисто-мышьяковистых коренных руд золота методами их прямой плавки с целью их сократительной пирометаллургической селекции (СПС-процесс). При этом характерное СПС-процессу высокое извлечение золота из упорные коренных руд в коллекторные продукты основаны на новых физико-химических подходах, когда в условиях высоких температур и жидкофазных взаимодействий расплаве имеет место практически полное вскрытие упорного золотосодержащего сырья. Это происходит за счет концентрации так называемого «невидимого золота» в виде твёрдых растворов, коллоидного состояния и супертонких наночастиц, ассоциированных с сульфидными минералами и рудными углеродсодержащими веществами (РУВ) в коллекторных материалах.[6]

В этих же условиях исключается вредное влияние РУВ па вскрытие золота, когда весь углерод РУВ (рудное сорбционно-активное углеродистое вещество) сгорает с переходом в газовую фазу и все золото в расплаве концентрируется в

специально полученных сульфидных или металлических расплавах за счет его высокого сродства к таким коллекторам. При этом полученные в условиях СПС-процесса такие золотосодержащие сплавы, коллектирующие 95-98% золото и серебро, также являются новыми полупродуктами в металлургии золота. [7]

Таким образом, в случае их реализации в промышленном масштабе будет организована высокоэффективная и бесцианидная технология переработки упорных руд золота.

Основными физико-химическими особенностями процессов, протекающих в условиях СПС-процесса, являются:


- термические превращения сложных золотосодержащих сульфидов (пиритов, арсенопиритов и медьсодержащих сульфидов) и флюсовых материалов;
- процессы шлако- и штейнообразования с формированием оксидных и сульфидных фаз;
- процессы полного перевода в газовую фазу летучих компонентов золотосодержащей шихты (мышьяка, серы, углерода и др.);
- завершающий физико-химический процесс разделения штейно-шлаковых расплавов с выводом штейновых золотосодержащих расплавов.

В настоящей работе были проведены краткий анализ существующих и разрабатываемых способов пирометаллургического вскрытия упорного сырья золота, а также физико-химическое и технологическое обоснование разрабатываемого процесса сократительной пирометаллургической селекции (СПС-процесс) упорных руд и концентратов золота [8-9].

Как известно, в условиях СПС-процесса пирометаллургической плавки упорного сырья золота извлекающей фазой для благородных и ряда цветных металлов является штейн.[8-9]

На основании приведенного выше комплекса пирометаллургических способов вскрытия упорных коренных руд золота предложена технологическая схема полной пирометаллургии золота.[10]

## Технологическая схема СПС-процесса полной пирометаллургической переработки упорного золотосодержащего сырья



### Выводы

Обзор проведенных исследований свидетельствует об отсутствии высокоэффективных технологий и аппаратуры для переработки больших объемов особо упорных руд золота. По этой причине доля производства золота из таких руд составляет лишь 8-10 %, тогда как запасы золота в упорных рудах

мира в общем балансе составляет 40-50 %. Это положение особо характерно для Узбекистана, где богатейшие золотом месторождения Навоийского и Алмалыкского региона, в частности углисто-мышьяковистые руды золота Даугызтауского-Кокпатаского-Калмакырского месторождения сегодня в полном объеме не перерабатываются.

Основным выводом что большинство технологических процессов, эксплуатируемых даже на передовых предприятиях производства золота не решают полностью коренные проблемы эффективной переработки упорных коренных руд золота. Даже современные технологии допускают большие потери золота, начиная от обогащения руд и до цианирования продуктов с хвостами этих переделов.

### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА**

1. Sunnatov, J. B., & Qarshiyev, X. K. (2021). *QORA METALLURGIYADA HOSIL BO'LGAN CHANGLARDAN RANGLI METALLARNI AJRATIB OLIH TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1414-1427.*
2. Sunnatov, J. B., Matkarimov, A. T., Masidikov, E. M., & Khudoykulov, R. B. (2020). *Research of the Possibility of processing ZINC CUKS by Heat and Various Processing. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(5).*
3. Sunnatov, J. B., qizi Axmedova, N. E., & Masidikov, E. M. (2022). *PO 'LAT ISHLAB CHIQRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 213-222.*
4. Yakubov, M. M., Sunnatov, J. B., Qarshiyev, H. K., & Shaymanov, I. I. (2022). *Kobalt saqlagan keklarni qayta ishlashning zamonaviy ahvoli va usullari. Science and Education, 3(5), 474-481.*

5. Sunnatov, J. B., & Eshmuxammedov, S. O. (2021, December). PO‘LAT ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDA HOSIL BO‘LAYOTGAN CHANGLARNI QAYTA ISHLASHNING PIROMETALLURGIK USULI TEXNOLOGIYALARINI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH. In *Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости!* (p. 384).

6. Sunnatov, J. B., Qarshiyev, H. K., Munosibov, S. M., Xaydaraliyev, X. R., & Yakubov, M. M. UDK 669.2 KOBALT-NIKELLI KEKLARNI QAYTA ISHLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI TADQIQ QILISH. *KOMPOZITSION MATERIALLAR*, 96.

7. *Ин. пат. 25568 РК. Способ переработки золотомышьякового сырья/ Кожяхметов С.М., Бектурганов Н.С., Квятковский С.А.; опубл. 15.02.2012., Бюл. N2.-2 с.*

8. Омаров С.И., Кожяхметой СМ., Электролавка ша металлизированный штейн как способ извлечения благородных металлов из упорных золотомышьяковистых концентратов// *Цветные металлы- 2004.-4 С.49-51.*

9. Semenova A.S., Kozhakhmetov S.M., Kvyatkovskiy S.A. *Technological parameters of direct smelting of gold-containing refractory ledge of Bakyrchik deposit // Complex Use of Mineral Resources. – 2016. -№4. – P. 35-38. ISSN 2224-5243.*

10. Есетов У.Е., Ким Л.П., Сейсембаев Р.С., *Отработка технологических параметров сократительной пирометаллургической селекции для руд золота ГРК ТОО «Терискей» // Труды Международных Сампаевских чтений «Научное наследие Ш. Есенова». – Алматы: КазНИТУ им. К.И. Сампаева, 2017. – С. 436-438. ISBN 978-601-323-034-4.*

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MATEMATIK  
TASAVVURLAR ORQALI INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING  
TARIXIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Yusupova Aziza**

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-kurs magistranti

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual salohiyatini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga matematika o'qitishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, bola, intellekt, shakllar, vaqt, o'lchov birliklari

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье говорится о важности развития интеллектуального потенциала детей дошкольного возраста и обучения математике дошкольников.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, ребенок, интеллект, формы, время, единицы измерения

**ABSTRACT**

*This article talks about the importance of developing the intellectual potential of preschool children and teaching mathematics to preschool children.*

**Key words:** preschool education, child, intellect, forms, time, units of measurement



O‘z davrida Abu Nasr Forobiy Yusuf Xos Hojib, Sa‘diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy kabi bir qator allomalarimiz ustozlik, tarbiyachilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, tarbiyachi shaxsi uchun zarur bo‘lgan sifatlar xususida qimmatli ma‘lumotlarni o‘z asarlarida bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, kasbiy malakaga ega bo‘lmagan tarbiyachi ta‘lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta‘minlovchi fikrga ham ega bo‘lmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan tarbiyachi esa bolani tushuna olishi, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholashi, yuzaga kelgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faolligi, jamiyat taraqqiyotidagi ezgu g‘oyalarni hayot bilan bog‘lay olishi bilan ahamiyatlidir. O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olim Abu Nasr Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni o‘rgatuvchi o‘qituvchining har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o‘z asarlarida inson kamolotida irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi. Mudarrislar bolalarga ta‘lim berishdek mas‘uliyatli burchni bajarar ekan, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi. Ularning faoliyatida muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida quyidagi tavsiyalarni keltiradi: 1)bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish; 2)berilayotgan bilimning tarbiyalanuvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga e‘tiborni qaratish; 3)ta‘limda turli shakl va metodlardan foydalanish; 4)tarbiyalanuvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish; 5)bolalarni fanga qiziqitira olish; 6)berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish; 7)bilimlarni tarbiyalanuvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish.

Komenskiy birinchi bo‘lib o‘qitish va tarbiya tamoyillarini asoslab berdi, u umuminsoniy tarbiyaning izchil tizimi va sinfni ishlab chiqdi, yaratdi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari hali ham o‘qitishning asoslangan ushbu usulini ishlatib kelinmoqda.

Matematik tasavvurlarni rivojlantirish nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqishda tarixiy shakllanish bosqichlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi bosqich–bolalarning matematik rivojlanish masalalari klassik va xalq pedagogikasida o'z ildizlariga ega. Tarbiyachi bolalarni sanashga o'rgatishda topishmoqlar, maqollar, material bo'lib, sanoq sonlari, geometrik shakllar, miqdor va boshqalar haqida tushunchalar hosil qilishga imkon beradi. Keyinchalik bu bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarni rivojlanishi zarurligi g'oyasi ilgari surildi. Jahon pedagogikasining atoqli mutafakkirlari va taniqli arboblari Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, M.Montessori, F.Frebel kabilar dastlabki matematik tayyorgarliksiz bolalarning maktab o'quv dasturini o'zlashtirishlari qiyin bo'lishini angladilar.

Ikkinchi bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish nazariyasi va metodikasining asosiy faoliyatlaridan hisoblanib, bolalar bilan ishlash mazmuni, metodlari, didaktik materiallar yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borishgan. XX asr boshlaridan boshlab O'zbekistonda matematikani maktabgacha ta'lim oluvchilarga o'rgatishning fanlararo didaktik tizimi yaratildi. Uning dastlabki bosqichi XX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda bir vaqtning o'zida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va oila murojaat qilinib, unda bolalar ota-onalari, bolalarga matematika o'rgatilgan. Masalan, "Maktabgacha ta'limda matematika" o'yinlar, suhbatlar, mashqlar, 1-10 sonlarini o'rganish, ular bilan ishlash amallari, shakllari, miqdorlar, o'lchovlar to'g'risida qo'llanma yaratilgan. O'quv qo'llanma orqali bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida son-sanoq va sanashga o'rgatildi, unda o'sha vaqtdagi bor nazariyaga tayanish tavsiya etilgan. Zamonaviy hayotda matematika o'qitish muammosi tobora kengayib bormoqda. Ijodiy faollik darajasini oshirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish muammolari, elektron kompyuterlarda modellashtirish va yana ko'p hollarda zamonaviy kasb egalari, kadrlarining o'rganilayotgan jarayonlarni aniq va izchil tahlil qilish uchun etarli darajada rivojlangan qobiliyatga ega bo'lishlarini kerak. O'quv tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarbiyalanuvchilarda mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga boshlang'ich

elementar matematika eng ko'p yordam beradi. Tafakkurning matematik metodi qisqalik, tushunarlik, diseksiyalanish, fikrning aniqligi va mantiqiyliigi hamda simvollardan foydalana olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Sezgi bilish jarayonida tasavvur va predmetning obrazlari, ularning munosabatlari, xususiyatlari orqali shakllanadi. Tarbiyalanuvchilarga turli to'plam (predmetlar, o'yinchoqlar, geometrik shakllar, rasmlar) dan foydalanib, ular o'rtasida bog'lanishlar o'rnatiladi va miqdor ma'nosidagi so'zlarni teng, kamroq, ko'proq, deb to'g'ri qo'llashga o'rgatiladi. Qiyoslash orqali bolalarga aniq to'plamlar misolida son tushunchasini o'rganishga tayyorlaydi.

Bunda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotida, balki, maktabning keyingi yillarida ham aylanishiga asos bo'lgan to'plamlar bilan kechadigan jarayonlardir. To'plam tushunchasi bolalarning abstrakt sonni, natural sonlar qatori qonunlarini tushunishlariga asos bo'ladi. Butun, qism, natural son, miqdor tushunchalari abstrakt bo'lsa-da, ular voqelikdagi ob'ektlarning munosabatlarini aks ettiradi. Bolalarni matematik faoliyat turlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq o'rganish jarayonida turli xil ularni bog'lanishlar va munosabatlarni tushunishga yo'naltiradi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot, tahlil qilish va tajriba (A.A.Stolyar, I.N.Nepomnyashchaya A.M.Leushina, M.Jumaevlar, N.N.Djamilova, N.U.Bikbaeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova, A.Abdukodirov, N.X.Begmatova va hokazo.) Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilar uchun matematik ta'limini oqilona tashkil etilishi, ularni umumiy ruhiy rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalarni maqsadga muvofiq etiladigan turli xil matematik faoliyat turlari bilan tanishtirish, ularni bog'lanishlar va munosabatlarni tushunishga yo'naltiradi. Tarbiyalanuvchilarda birlamchi matematik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish shunday amalga oshirilishi kerakki, mashg'ulot nafaqat bevosita amaliy natija (elementar matematik amallarni bajarish, hisoblash malakalari) samarali bo'lishi lozim. Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirishda bilishning dastlabki usuli sifatida o'lchashga o'rgatish muhim rol o'ynaydi. Bu tarbiyalanuvchilar uchun ommaviy, suyuq moddalar va uzunliklarni o'lchashda noan'anaviy, lekin birinchi navbatda an'anaviy choralarni qo'llash

imkonini beradi. Shu bilan birga, bolalar ko‘z chamasini rivojlantiradilar, bu ularning hissiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Matematikani tizimli o‘qitish ta‘sirida bolalar maxsus terminlarni o‘rganadilar: son nomlari, geometrik shakllar (doira, kvadrat, uchburchak, romb va boshqa), shakllar elementlari (yoni, balandligi, asosi) va boshqalar. To‘plam, strukturasi, elementlari kabi.. Odatda, matematika mashg‘ulotlarida ta‘limiy vazifalar tarbiyaviy vazifalar bilan birgalikda hal etiladi. Demak, tarbiyachi bolalarni uyushqoqlikka, mustaqil ishlashga, diqqat bilan tinglashga, ishni samarali va o‘z vaqtida bajarishga o‘rgatadi. Ushbu fan ularni rivojlantirishga yordam beradi, intellektual salohiyatini rivojlantiradi, tarbiyachilarga esa ulkan tashkilotchilikni va mas‘uliyatni yuklaydi va bolalarga yoshligidan matematika fanini o‘rgatish har tomonlama rivojlanishini ta‘minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Леушина А.М. Формирование элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста. М.: - 2006. - 138 с*
2. *Пиаже Ж. Психология интеллекта. — Питер, 2004. — С. 23-24.*
3. *Рабочие программы специалитет/ Раб.прогр. ТМДО (2 покол) 2012.13\Теор и тех мат восп БАК 2012.doc <http://mggu-sh.ru>.*
4. *Тарунтаева Т.В., Березина Р.Л. Формирование у детей старшего дошкольного возраста знаний о способах и мерах измерения протяженностей, массы и объема. М.: Просвещение, 2010. 37-40 с.*
5. *Процесс формирования и управления математическим развитием учащихся. Средства математического развития ребенка: история и современность. Математическое развитие дошкольников в условиях реализации новых государственных образовательных стандартов <http://elibrary.ru>*
6. *Научно-методическая исследовательская деятельность студентов педагогических вузов при изучении естественнонаучных дисциплин. <http://elibrary.ru>*
7. *Зиямухамедов Б., Зиямухамедова С. Новая педагогическая технология. Изд-во медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино – Т.: - 2010.–120с.*

## DEVELOPMENT OF A MULTIMEDIA E-LEARNING RESOURCE FOR LEARNING ENGLISH

**Yaxshiyeva Zebo Rashidovna**

TUIT Karshi branch, PhD

[zebona.sevinch@gmail.com](mailto:zebona.sevinch@gmail.com)

**Shokirov Shoxrux Husen o'g'li**

TUIT Karshi branch, student

[shoxruxshokirov9@gmail.com](mailto:shoxruxshokirov9@gmail.com)

**Xurramov Shohboz Xurram o'g'li**

TUIT Karshi branch, student

[shohboztuit@gmail.com](mailto:shohboztuit@gmail.com)

### ABSTRACT

*In this period of educational technology, the English language is more popular than other world languages. In the twenty first century, teachers are essential to have a digital knowledge skill. They must be able to integrate technology in learning development. However, to obtain this skill is not easy, and may current difficulties, especially for students of English as a second language. Teaching this skill plays then a critical role, and modern techniques and methods are succeeded. The use of technology and multimedia resources come to change traditional methods to take students' attention, increase their motivation in the classroom and to succeed in classroom goals. The e-learning also used Adobe Flash and Adobe Illustrator to make some animated videos. It involved in listening, reading, and grammar which the topic focused on descriptive. The development of e-learning earned to be realized after it was authenticated by the expert, evaluated by the teacher and experienced to the*

students. The explanation of a multimedia resources guide is proposed to support teachers and help students improve their speaking skill.

**Keywords:** *Multimedia, e-learning, Skill, Resource, Development.*

## **INTRODUCTION**

Learning a language is a significant factor of world locations, news, scientific achievements, in short, awareness of new world movements, development of worldview. Today, almost every young person who wants to become an expert in their field is interested in learning a language. As science grows, the tendency of students, researchers and amateurs to follow this progress is also growing. Knowing the key to progress and creation of new discoveries requires learning a language these days. The more correctly the language is mastered, the more productive the result. Consequently, the issue of increasing efficiency in the language is being discussed by language researchers.

The technological revolution has reformed the world and education, and makes easier to teach and learn any foreign language. Traditional classes can be improved with the application of multimedia-based programs that turned a classroom-based session into a face to face online session. It is possible to believe then that the use of multimedia-based programs in traditional ESL and EFL classes is a successful technological average to increase students' motivation to learn.

## **EDUCATIONAL TECHNOLOGY**

Technology is measured a powerful tool that can change teaching and learning. It is a useful tool to strength contacts between teachers and students; it can promote new approaches for collaboration, and give teachers the chance to adopt and adapt learning experiences to satisfy students' needs. According to my explanations in one of the university classes, freedom of communication is the most important tool. This means that when the student communicates without fear of making mistakes in speech, he feels free and develops fluency, continuity and boldness. Able to demonstrate intelligible speech, although not completely correct. The lesson was conducted by an

English teacher of English nationality. The atmosphere created by the teacher in the classroom is friendly and based on independent feedback. There are no rules that students must strictly follow. Deficiencies in their language skills were addressed gently and through appropriate tools and techniques. An opportunity was given to exchange ideas in pairs on each introduced topic. A language atmosphere has been created for them to communicate easily in the language they are learning. What is important is that students establish fluency without any hesitation or anxiety.

### CONCLUSIONS

The use of multimedia resources in English language teaching is an important method in education because of the opportunities to accomplish class objectives. Today, it is common to see that educators take hand of numerous technological devices in the process of language teaching and learning, because such resources make language learning more productive, effective, and communicative. Speech requires precision in some aspects and fluency in others. Neglecting fluency in pursuit of the goal of communicating in the right way in every way will definitely reduce productivity. The main thing is to be able to use each tool in its place.

### REFERENCES

1. Qodirov, F. E., D. A. Akbarova, and S. H. Shokirov. "SOFTWARE FOR WORKING WITH COMPUTER GRAPHICS AND THEIR TASKS. APPLICATION OF DIGITAL IMAGE PROCESSING FIELDS." *Инновации в технологиях и образовании: сб. ст. участников XIV Меж (2021): 57.*
2. Zaripova Z. O., Akbarova D. A., Shokirov S. H. "INNOVATIONS IN ENGLISH TEACHING AT SCHOOL. USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH" *Инновации в технологиях и образовании: сб. ст. участников XIV Меж (2021): 44.*
3. Noni Agustina, and Nugroho Budhisantosa. "Development of e-learning for English class" *SHS Web of Conferences 42, 00077 (2018), GC-TALE 2017.*



**ABERDIN – ANGUS ZOTINI MAHALLIYLASHTIRISH****Elmurotov Sharofiddin Polvonovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**Qo‘chqorov Abdukarim Nuriddinovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**Xoljigitov Asqar Ma‘rifjonovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**To‘raqulova Shaxnoza Sarvar qizi**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**ANNOTATSIYA**

*2021-yil 17-fevraldagi PQ 4995 sonli “2021-2023-yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq xududni bog‘dorchilik va chorvachilik xududiga aylantirish va mavjud resurslardan kelib chiqib go‘shtdor qoramolchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan xududga mos sermahsul go‘shdor keskin kontinental ob-havoga moslasha oladigan zotni mahalliy lashtirish maqsadga muvofiqdir. Dunyoda yaratilgan go‘shtdor zotli qoramollar mintaqaviy bir necha guruhlariga bo‘linadi: Angliya-Shotlandiya, Italiya, Amerika, Afrika, Osiyo zotlari va hokazo. Bu mintaqadagi go‘shtdor zotlar o‘zlarining kelib chiqishi, iqlim sharoitiga*

*moslashishi, mahsuldorlik va biologik xususiyatlari bo'yicha bir-birlaridan keskin farq qiladi. Go'shtdor qoramol zotlari ichida yaratilish davri bo'yicha qadimiy va ko'pchik zotlar uchun naslboshi Angliyaning go'shtdor zotlari hisoblanadi (gereford, shortgorn, aberdin-angus, gallovey, xayland va hokazo).*

*kalit so'zlar: Aberdin-Angus, go'shtdor qoramol, Bobotog', gereford, zot, naslchilik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В соответствии с постановлением от 17 февраля 2021 года № ПП 4995 "о мерах по социально-экономическому развитию территории Боботог Узунского района Сурхандарьинской области на 2021-2023 годы" целесообразно преобразовать территорию в садоводческую и животноводческую территорию и развивать мясное скотоводство на основе имеющихся ресурсов. В этом отношении целесообразно локализовать породу, в которой продуктивное мясо, подходящее для этого района, может адаптироваться к субконтинентальной погоде. Созданные в мире мясные породы крупного рогатого скота делятся на несколько региональных групп: англо-шотландские, итальянские, американские, африканские, азиатские породы и др. Плотоядные породы в этом регионе резко отличаются друг от друга по происхождению, приспособленности к условиям, продуктивности и биологическим характеристикам. Среди мясных пород крупного рогатого скота древними по времени создания и родоначальниками большинства пород считаются мясные породы Англии (gereford, шортгорн, aberdin-angus, Gallovey, Хайленд и др.).*

*ключевые слова: aberdin-angus, мясной скот, Боботог, gereford, порода, разведение.*

### **ABSTRACT**

*In accordance with the decision of February 17 PQ 4995 "On measures for the socio-economic development of Bobotog area of Uzun district of Surkhandarya region in 2021-2023" to transform the area into a horticultural and animal husbandry area*

*and based on available resources it is desirable to develop cattle breeding. In this regard, it is desirable to localize a breed that can adapt to the subcontinental weather, with abundant meat, suitable for the region. Beef cattle created in the world are divided into several regional groups: Anglo-Scottish, Italian, American, African, Asian breeds, etc. Meat breeds in this region differ sharply in terms of their origin, adaptation to conditions, productivity and biological characteristics. Among beef cattle breeds, according to the time of their creation, the most ancient and most common breeds are English beef breeds (Hereford, Shorthorn, Aberdeen-Angus, Galloway, Highland, etc.).*

**keywords:** *Aberdeen-Angus, meat cattle, Bobothog, gereford , breed, breeding.*

**Aberdin-angus zoti.** Bu qoramollar Shotlandiyaning shimoli-sharqiy qismidagi Aberdin va Angus grafligida mahalliy go'shtdor qoramollarni yaxshilash asosida shakllantirilgan hamda shu ikki graflik nomi bilan atalgan. S.Ya.Dudinning ma'lumotlariga ko'ra, aberdin-angus zoti asosan, Aberdin grafligidagi Bachen tumanida urchitilgan va "bachen" nomi bilan yuritilgan to'qol qoramollardan kelib chiqqan. Xuddi shuningdek, Angus grafligidagi qora tusdagi to'qol mollar aberdin-angus mollarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Aberdin-angus zotining asoschilari deb Angus grafligidagi Keylor tumanidan Xaf Uotson, Aberdin grafligidagi Tilifur tumanidagi Villiam Mak-Kombi hamda Ballindalax tumanidagi Jorj Makferson-Grant va boshqalar ko'rsatilgan. Zot bilan bo'lgan naslchilik ishlari XVIII asrning oxirlarida boshlangan. 1879-yili Shotlandiyada bu zotni urchitish jamoasi tashkil qilingan. Birinchi naslchilik kitobi 1862-yilda chop etilib, unda 1183 mol (336 buqa va 847 sigir) ro'yxatga olinadi. Naslchilik kitobining chop etilganligiga 100 yil to'lganidagi 87-sonida 6505 qoramol (3149 buqa va 3356 sigir) ro'yxatdan o'tadi. O'tgan 100 yilda naslchilik kitoblarida 384 mingdan oshiq aberdin-angus mollari ro'yxatga olingan. Shu davrda aberdin-angus mollari takomillashtirilgan, mollarning go'shtdorlik shakli yaxshilangan, mahsuldorlik xususiyatlari bilan e'tibor qozongan va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. AQShga birinchi bor aberdin-angus mollari (to'rt

bosh buqa) 1873-yili fermer Jorj Grant tomonidan Kanzas shtatiga olib borilgan va mahalliy mollar bilan chatishtirishda foydalanilgan. Sof zotli aberdin-angus podalari 1878-yili tashkil etilgan. 1878-1960 yillar davomida AQSh va Kanadaga 8,5 mingdan ortiq aberdin-angus zotli mollar keltirilgan. AQShda hozirgi vaqda bu zotli mollar go'shtdor qoramol zotlari ichida uchinchi o'rinni egallaydi. Aberdin-angus mollari Janubiy Amerika, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarga olib ketilgan. AQShda 1883-yili aberdin-angus zotini urchitish bo'yicha qoramolchilik assotsiatsiyasi tashkil qilingan va 1886-yili zotning birinchi naslchilik kitobi chop etilgan. Mollar tez ko'paytirilgan va 1963-yili 410 mingdan ortiq sof zotli mollar hisobga olingan. 1968-yili naslchilik kitobida ro'yxatga olingan 410962 molning 4652 boshi qizil tusda bo'lgan. Keyingi 30 yil davomida aberdin-angus mollari yanada takomillashib, yirik xildagi guruhlari shakllantirilgan. AQSh seleksiyali aberdin-angus zotining urchitish markazi bo'lib, Ayova shtati hisoblanadi. Shuningdek, ko'p miqdorda Missuri, Illinoys, Minnesota, Indiana, Janubiy Dakota va Kanzas shtatlarida ham urchitilmoqda. Kanadaga aberdin-angus zotli mollar birinchi bor 1876-yili olib borilgan va Ontario viloyatidagi Gvelfe tajriba xo'jaligida joylashtirilgan. 1910-1962-yillar davomida Shotlandiyadan Kanadaga aberdin-angus zotli mollar ko'p bosh sonda keltirilgan va 1906-yili Kanada zavodchilari assotsiatsiyasi tashkil etilgan. 1960-yilga kelib aberdin-angus zotli mollarning soni 196 ming boshga yetkazilgan. Hozirga kelib, ularning soni yanada oshgan va sifati yaxshilangan. Avstraliyaga aberdin-angus mollari 1822-1823-yillari olib borilgan. Lekin bu zot bilan shug'ullanish 1882-yildan so'ng boshlangan. 1919-yili aberdin-angus zotli mollarni urchitish bo'yicha xo'jalik tashkil qilingan va birinchi naslchilik kitobi 1922-yili chop etilgan. 1952-1962-yillar davomida 35 mingdan ortiq aberdin-angus moli ro'yxatga olingan. Hozirgi davrga kelib mollarning soni bir qancha oshgan va mahsuldorlik xususiyatlari yaxshilangan. Argentinada aberdin-angus zotli mollar tez ko'paytirilgan. 1920-yili bu mollardan 1721 boshi hisobga olingan bo'lsa, 1970-yilga kelib 12 milliondan oshib ketgan. Naslchilik kitobi 1901-yili chop etilgan. Go'shtdor qoramollar eng ko'p tarkalgan Buenos-Ayres shtatida 1960-yili 17,5 million mol hisobga olingan bo'lsa, shundan 42,8 foizini

aberdin-angus zotli mollar tashkil qilgan. Yangi Zelandiyaga bu zot birinchi bor 1863-yili Shotlandiyadan olib borilgan. Hozirgi davrga kelib, ularning soni 2 milliondan oshib ketgan. Rossiya Federatsiyasiga aberdin-angus mollari 1932-yili olib kelingan. 1960-1965-yillar davomida keltirilgan 400 bosh mol, asosan, Volgograd viloyati xo‘jaliklariga joylashtirilgan. Hozirga kelib aberdin-angus zotli mollarning mahsuldor podalari turli mintaqalarda tashkil etilgan. Ularning nasldor guruhlarini Volgograd viloyatining “Parij kommunasi” naslchilik zavodida Gmelinskiy, Golubinskiy, Bodyanskiy nomli xo‘jaliklarning naslchilik fermalarida hamda Krasnoyarsk o‘lkasining Labinskiy nomli yilqichilik zavodi va Kabardin-Bolkar Respublikasining Kimchalinskiy nomli xo‘jaligida urchitilmoqda. O‘zbekistonga aberdin-angus zotli buqalar 1955-1957-yillardan boshlab Volgograd viloyatining “Parij kommunasi” xo‘jaligidan olib kelingan. Ular Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumaniga, Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Boysun” davlat xo‘jaligida, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining Usmon Yusupov nomli xo‘jaligida hamda Jizzax viloyati Baxmal tumanining “Baxmal” xo‘jaliklarida mahalliy zebusimon hamda Qoraqalpog‘iston mollari chatishtirishda foydalanilgan. Duragay mollarning (birinchi-uchinchi avlod) mahsuldor podalari yaratilgan. Ular o‘zlarining vazni va go‘shdorlik xususiyatlari bilan mahalliy mollarga nisbatan 1,5-2 baravar ustun keladi. Mollarning nasldor podalari Surxondaryo viloyati Uzun tumani «Bobotog‘» jamoa xo‘jaligiga Usmon Yusupov nomli xo‘jaliklarda shakllantirilgan. Aberdin-angus zoti go‘shdor qoramollar ichida eng tez yetiluvchan va eng yuqori sifatdagi go‘sh beradigan zotlar turkumiga kiradi. Ularning asosiy tusi qora va o‘zlari to‘qol, ya‘ni shoxsiz. Hozirgi vaqtda bu zotning qizil tusli podalari ham yaratilgan. Mollarning tanasi mutanosib rivojlangan, muskullar bilan to‘lishgan, ko‘kragi chuqur (sigirlarda 66-67 sm) va keng (45-46 sm), bo‘yi past (yag‘rin balandligi 118-120 sm), oyoqlari kalta, kallasi kichkina, peshonasi tomon qisqarib borgan, bo‘yni keng va qisqa bo‘lib, yelkasi tomon qo‘shilib ketgan, tanasi to‘rt burchak go‘shdorlik shaklda, tananing orqa qismi va ayniqsa, son qismi yuqori sifatli muskullar bilan to‘lishgan. Sonning orqa tomonidagi muskullari sakrash bug‘inigacha to‘lishib, o‘ta go‘shdorlik

shaklini ko'rsatadi. Aberdin-angus zotli buqachalarning tug'ilgandagi vazni 24-27 kg, 8 oyligida 190-210 kg ga yetadi. Sigirlarning vazni 500-550 kg, ayrimlariniki 650-700 kg gacha yetadi, buqalari vazni 800-950 kg. Jadal boqilgan novvoslar vazni 15-16 oyligida 450-465 kg ga to'g'ri keladi. Bo'rdoqi mollarning so'yim chiqimi 65-70 foiz. AQSh va Kanada seleksiyasiga xos bo'lgan aberdin-angus zotli mollar Angliya seleksiyasiga nisbatan yirik hamda sergo'sht. Sigirlarning sut mahsuldorligi 1000-1500 kg. Rossiya federatsiyasida urchitilayotgan aberdin-angus mollari nisbatan kichik. Sigirlarning vazni 450-500 kg. "Parij kommunasi" naslchilik zavodida mahsuldor buqalarning quyidagi qarindosh guruhlari yaratilgan: «Ammonal 10», «Alga43», «Aviator 41», «Magniy D-30», «Kristal D52» va boshqalar. Seleksiya ishlari mollarning vazni va go'sht mahsuldorlik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan. Xulosa qilib aytish kerakki, bu zot go'shtdor qoramollar ichida o'zining tez yetiluvchanligini, go'shtning sifati, go'sht tolalarining ingichkaligi, mayinligi, mazaligi va to'yimliliigi bilan alohida ajralib turadi. Sof holda urchitilganda dunyoning turli iqtisodiy-tabiiy mintaqalarida yuqori go'sht mahsuloti beradi. Boshqa zotlar bilan chatishtirilganda duragaylarda go'shtining sifati tezda yaxshilanadi.

"Bobotog'" jamoa xo'jaligiga 1972-yilda 8 bosh Aberdin-Angus zotiga mansub yaxshilovchi buqalar olib kelinib xo'jalikdagi mavjud mahaliy qaromollar to'liq ushbu buqalar bilan qochirtirilgan va 3 avlod olgungacha 1984-yillargacha buqachalar to'liq bichilgan aholi xonadonlarda ham ushbu yillarda 6000 bosh poda yaratilgan xo'jalikga tegishli bo'lgan fermalarda ya'ni Tolto'g'ay, Bobotog', Ma'daniy turmush qishloqlaridagi fermalarda bundan tashqari aholi qo'lidagi qaromollar ham tulari 3000 boshdan ko'p yangi Aberdin-Angus zoti bilan chatishtirilgan podalar yaratildi. Ushbu qaromollar o'zining xususiyatlariga ko'ra sof zotli tengqurlaridan yuqoriroq natija ko'rsatgan. Go'shtining sifati va so'yim chiqimi bo'yicha sof zotli Aberdin-Angus qaromollariga yaqin natija bergan.

Ushbu qaromollar Bobotog' tog' tizmasini keskin noqulay sharoitiga moslashib mahalliy aholining yoqimli zotiga aylangan. Keyingi yillarda yer mulk munosabati o'zgarib borgan davrlarda xo'jalikga tegishli bo'lgan yaylov yer maydonlarining



asosiy qismi Bobotog' o'rmon xo'jaligi tasarrufiga o'tib hayvonlarni oзуqlar areali qisqarib hayvonlar bosh soni kamaygan.

Shunga qaramay 2020-yildagi sanoq natijasiga ko'ra Bobotog' xududidagi jami 9 ta chorvachilik fermer xo'jaliklari bo'lib ushbu fermer xo'jaliklariga jami 2546,9 ga shundan: 138 gektar suvli yer maydoni, 16.4 ga lalmi, 2391.8 ga yaylov yer maydonlari ajratilgan. Ushbu fermer xo'jaliklarida 397 bosh qoramol, 4084 bosh qo'y va echkilar va 155 bosh yilqilar mavjud. Hamda aholi xonadonlarida jami 6775 qoramollar bo'lib shundan sigirlar 3400 bosh, qo'y va echkilar 15912 bosh, 456 bosh yilqilar mavjudligi aniqlandi. Shunda 7172 bosh Aberding angus zoti duragaylari borligi aniqlandi. Xududdagi Bobotog' mahallasida mukammal sharoitga ega bo'lgan sun'iy urug'lantirish punkti tashkil etildi xududagi fermer xo'jaliklari va aholidagi sigirlar hisobidan reja asosida zotning sifat ko'rsatkichlarini ko'tarish hamda urchitishni qon qo'yish metodi asosida zot sifatini yaxshilash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda Jizax viloyati Zomin tumanida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda "Jizzax Organik" qo'shma korxonasi tamonidan 10 ming boshdan ko'p sof zotli Abedin-angus zotiga mansub qoramollar urchitilmoqda. Shuni inobatga olib ushbu xo'jalikdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan buqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qon quyish metodi orqali Bobotog' angusi liniyalari yaratilib kelajakda zotning reproduktor xudud sifatida respublikamiz tog'li va cho'l xududlarida rayonlashtirish, aholini sifatli va arzon go'shtga bo'lgan talabini qondirish mumkin bo'lib go'sht mahsulotlari importini kamaytirish va valyutani tejab qolishga ikoniyat yaratadi.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)***

- 1. 2021-yil 17-fevraldagi PQ 4995 sonli qarori*
- 2. Nosirov.U.N. Qoramolchilik. Toshkent-2001.*
- 2. Nosirov.U.N, T.U.Nosirov Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent-2007.*
- 3. Maqsudov.I, Jo'rayev.J.Y, Amirov.Sh.Q, Chorvachilik asoslari Toshkent-2012*
- 4. Agroolam.uz internet sayti.*



**BADIIY ADABIYOTDA MILLIYLIK****Djurayeva Ziyoda Salimovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 47-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada badiiy adabiyotda milliylik mavzusida fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** hikoya, qissa, milliylik, davr, obraz, ocherk, roman, ruhiyat

Badiiy adabiyot inson his-tuyg'ulari, kechinmalari ifodasi o'laroq, davrlar mobaynida o'z kuchi va sehrini yo'qotmay keladi. Har bir yozuvchi va shoir ma'lum kasb vakili bo'lishdan tashqari, ma'lum millat vakili sanaladi. O'sha millat ichida yashaydi, ijod qiladi. Uning xarakteriga ham milliylik singib boradi. Mana shu xususiyatlar ijodkorlarning, yozuvchilarning asarlariga ham ko'chib o'tadi. Badiiy adabiyotda milliylik shu tariqa paydo bo'ladi.

Adabiyotning milliy xususiyati jug'rofiy sharoit, o'sha xalq yashaydigan joyning o'simliklari, xalqning mashg'uloti, turmush tarzi, urf-odatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Bizda qizlarning yuzi oyga, kokillari majnuntolga, bo'y-basti sarv daraxtiga yoki kiyikka o'xshatiladi. Bu narsa xalq og'zaki ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Silkinib turgan kiyikdek

Bo'ylaringdan aylanay.

Yangi chiqqan maysadek

Kipriklaringdan aylanay.

Bunday motiv, badiiy tasvir va tashbehlar har bir millatning milliyligidan kelib chiqib asarlarda o'z aksini topadi. Yevropa adabiyotida ham ularning o'ziga xos turmush tarzi, bayramlari, an'analari badiiy asarlarini o'qish orqali tasavvurimizda

paydo bo‘ladi. “Asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa, shunchalar milliydir. Milliylik shoirmi ulug‘ qilmaydi, balki buyuk talent shoirmi milliy qiladi. Agarda asar badiiy bo‘lsa, u o‘z –o‘zidan milliy bo‘ladi”,–deydi V.G.Belinskiy.

Milliylik asarda faqatgina qahramonni milliy libosda tasvirlash orqali emas, balki uning ruhiyati, axloqi va madaniyatini ochib berishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek Hoji og‘li Otabekka: “O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq”–deganda Otabek Yusufbek Hojiga: “Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari, albatta, noma’qul bo‘lmas”,–deydi. Shu holatda Otabek Yusufbek Hoji va onasi O‘zbekoyimning “qilib qo‘ygan va qilmoqchi bo‘lgan ishlarini” bilib turgan bo‘lsa ham, o‘zini bilmaganga solib odob yuzasidan otasiga javob qaytaradi. Uning shu javobida o‘zbek xalqiga xos milliy jihatlar, ya’ni ota-onani hurmat qilish, farzandlik burchini bajarish, kamtarinlik kabi umuminsoniy fazilatlar ko‘zga tashlanadi. Chunki azaldan o‘zbeklar farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib keladi.

Ana shunday o‘rinlarda qahramon xarakterini ochib berish vositasida xalq, millat ruhiyati, uning milliyliги ochib beriladi. Bu kabi ifodalarni adabiyotimizdagi deyarli barcha she’riy va nasriy asarlarda uchratamiz.

Rayhon hidlarini yo‘llarimga sep.

Kut meni har oqshom ko‘kka oy chiqqan.

Faqat yig‘lamagin aybim nima deb,

Aybing-onang seni chiroyli tuqqan.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub ushbu she’rda ham o‘zbek milliy o‘simligi bo‘lmish rayhon tilga olinadi. Bu ijodkor she’rlarida biz juda ko‘plab milliylik hissi ufurib turgan badiiy tasvirlar, chiroyli o‘xshatishlarni uchratamiz. O‘zbek millatiga xos tantilik, samimiylik, bag‘rikenglik, insoniylik va Vatanga sadoqat tuyg‘ulari shoirning qon-qoniga singib ketgani uning sof xalqona she’rlarida to‘la namoyon bo‘ladi deyish mumkin.

Demak, har bir millat o‘zligini, milliyligini va ma’naviyatini adabiyoti orqali dunyoga tanitadi. Biz buning isbotini davrlar mobaynida ko‘rib kelyapmiz. O‘zbek adabiyotida ham milliylik libosi bilan yo‘g‘rilgan badiiy asarlar juda ko‘p yozilgan va yozilmoqda.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)***

- 1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1978, 1979-yillar.*
- 2. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. T. 1980-yil.*
- 3. M. Yusuf “Saylanma”. T. 2012-yil.*

УДК 656.1

## ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ АВТОБУСНОГО ТРАНСПОРТА В МЕСТО ПАЛОМНИЧЕСТВА

**Адилов Окбута Каримович**

ДЖизПИ, Узбекистан кафедры “ТВМ”.к.т.н. проф.

**Шакиров Азад**

ДЖизПИ, Узбекистан кафедры “ТВМ”. Ассистент.

### ***АННОТАЦИЯ***

*В этой статье приведена разработка методических рекомендаций и применения их результатов в производство в целях усовершенствования во время при эксплуатации и обеспечение безопасности дорожного движения автомобильного транспорта*

**ключевые слова:** автомобиль, технических обслуживания, качество, гарантия, показатели, количество.

Нет такого города, который на сегодняшний день мог бы нормально функционировать без использования пассажирского автомобильного транспорта, обеспечивающего мобильность для населения и паломники (далее населения) место паломничества. Поэтому мобильность является одним из основных критериев эффективности и качества современного общества, особенно для населения место паломничества. С учетом реальной цены мобильности для населения место паломничества (автобусный, такси и транспорт, обеспечивающий гибкие транспортные услуги), несомненно, является наиболее эффективным, рентабельным, комфортным средством

передвижения, доступным для всех слоёв населения, в т.ч. людей с ограниченными физическими возможностями. [1]

Эффективность процессов (транспортных систем) транспортного обслуживания населения место паломничества, осуществляемых различными видами транспорта, рассматривается в настоящей диссертации, как степень достижения их целевых показателей по уникальности и качеству предоставляемых транспортных услуг с максимизацией экономического эффекта от взаимодействия (интеграции, консолидации) технологий, ресурсных потенциалов и коммерческих интересов различных субъектов перевозочной деятельности. [2]

Достижение таких целевых показателей связано с техническим усовершенствованием подвижного состава (по экологическим, конструктивным, интеллектуальным и др. показателям), внедрением прогрессивных перевозочных технологий, совершенствованием организации и управления процессами ТОН в место паломничества не в ущерб экологической составляющей и др. [3]

Проблемы автобусного транспорта в место паломничества обусловлены комплексом общесистемных противоречий характерных для городского пассажирского транспорта общего пользования Республике Узбекистан в целом. При существующем понимании высокой общественной значимости автобусного транспорта, обеспечивающего обслуживание как местного населения место паломничества, так и прибывающих на курорт и санаторное лечение, на всех уровнях управления городским транспортом отсутствует доктрина повышения качества транспортного обслуживания населения. В место паломничества, особенно Самаркандский область, автобусный транспорт является наиболее привлекательным для большинства не только местных жителей, но и прибывших на курорт и лечение, а во многих случаях и единственным видом перевозок. [5]

Используемые финансовые и другие экономические модели, учитывающие дотационный характер, не в полной мере определяют полноценные конкретные отношения между администрациями муниципальных образований место паломничества как заказчика перевозок и субъектами перевозочной деятельности, так как отсутствует между ними эффективная договорная (контрактная) система.

Дотации на текущие нужды и оплата льготных категорий не покрывают все потребности развития транспортной системы место паломничества. Также в недостаточной степени используется муниципальный лизинг и долевое участие в финансировании проектов по повышению по видам автобусного сообщения, легковых автомобилей-такси и гибких транспортных услуг.

Движение автобусов в городах место паломничества осуществляется по улично-дорожной сети без предоставления приоритетных преимуществ (без выделения обособленных маршрутных полос и с обустройством «карманов» на остановочных пунктах), что особенно важно при организации его эффективной и качественной работы, особенно в пиковые периоды место паломничества. [5]

В недостаточной степени используются новые технологии при организации и осуществлении перевозочных процессов различными видами транспорта, реализуемые с помощью передовых достижений научно-технического прогресса, учитывающего высокий уровень квалификации и мотивации сотрудников предприятий и др.

Это связано, прежде всего, с высокой трудностью доступа на рынок перевозочного бизнеса новых перевозчиков. Недостаточно обоснованное количество работающих автобусов малой и особо малой вместимости, занятого обслуживанием курортных объектов и регулярных автобусных маршрутов, повышает экологический вред окружающей среде, что требует разработки специальных программ экологического нормирования и мониторинга.

До сих пор не внедряются оценочные критерии качества транспортного обслуживания населения, как по отдельным курортным маршрутам, так и в место паломничества в целом. Существующее централизованное финансирование не в полной мере покрывают фактические убытки транспорта, идет инвестирование в форме бюджетных ассигнований, практически не привлекаются средства частных инвесторов, что требует разработки конкретных комплексных целевых программ по каждому место паломничества. Практически отсутствуют специализированные автобусы, обеспечивающих перевозку людей с ограниченными физическими возможностями. В недостаточной степени внедряются информационные технологии при обслуживании пассажиров на автовокзалах и автостанциях, в пути следования, а также передовые навигационные технологии типа за контролем движения подвижного состава на маршрутах и обезличиванием пассажиров. С недостаточной частотой или эпизодически и не комплексно проводятся обследования пассажиропотоков, что говорит об отсутствии достоверных данных при оперативном управлении процессами перевозки пассажиров. Существующие единые тарифы, установленные централизованно муниципальными органами место паломничества, должны сочетаться с гибкими тарифами, что привлечет дополнительный контингент пассажиров и повысит качество и надежность их обслуживания.

Безопасность дорожного движения, особенно автобусов особо малой и малой вместимости, работающих на регулярных маршрутах (маршрутные такси) должна соответствовать требованиям законодательства и подвергаться непрерывному мониторингу, требуется также упорядочения используемая нормативно-правовая база в условиях антитеррористической безопасности.

Многообразие отношений в области использования транспорта в место паломничества.



Ниже рассматривается транспортный комплекс Краснодарского края, который приобретает решающее значение не только для внутренней, но и внешнеэкономической деятельности России как единственная транспортная артерия на юге страны, обеспечивающая массовые перевозки пассажиров в место паломничества, как местных жителей, так и приезжих на санаторно-курортное обслуживание и туристским целям. [5]

Функционирование и развитие видов пассажирского транспорта, в том числе автобусного, в большой степени зависит как от общего экономического состояния государства, так и от экономического положения региона. Услуги на перевозки пассажиров транспорта место паломничества и уровень их потребления в крае в хозяйственном комплексе отражает фактическое положение дел в промышленности, стройиндустрии, агропромышленном комплексе и других хозяйствующих структурах, определяющих объемы производства и реализации, платежеспособность и транспортную подвижность населения. В подтверждение этого, на предприятиях пассажирского транспорта общего пользования, выполняющих городские перевозки, которые являются одной из наиболее социально значимых сфер хозяйственной деятельности края, сложилось критическое положение. Основными причинами этого явилось прекращение выделения централизованных средств из федерального бюджета на приобретение нового подвижного состава и компенсацию на проезд пассажиров-льготников федерального значения, отсутствие достаточных средств, в краевом бюджете на дотирование убыточных маршрутов, беспереывный и значительный рост цен на подвижной состав, запасные части и другие расходные материалы.

Отсутствие материальных ресурсов не позволяет автотранспортным предприятиям (предпринимателям) своевременно проводить необходимые работы по техническому обслуживанию и ремонту автобусов, что приводит к снижению их выпуска на маршрутную сеть и, вследствие этого, к снижению объема пассажирских перевозок, их безопасности и увеличению себестоимости предоставляемых услуг.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Устав автомобильного транспорта и городского наземного электрического транспорта»

2. Кравченко А.Е., Кравченко Е.А, Фрисс Ю.В. Дорожные условия и качество транспортного обслуживания населения. Повышение надежности и долговечности автомобильных дорог и транспортных сооружений: материалы Всероссийской научной конференции. - Краснодар: Изд. КубГТУ, 2000. - 4 с.

3. Шабанов А.В. Методологические основы и модели формирования и управления региональных логистических систем общественного транспорта: Автореф. дис... д-ра экон. наук.-М., 2000.

4. Шаров М.И. Совершенствование метода оценки транспортного спроса на перевозки городским пассажирским транспортом: Автореф. дис... канд. техн. наук. - Иркутск: ИГТУ, 2008.

5. О.К Адилов, АУ Уролбоев ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТ ПО ТЕХНИЧЕСКОМУ ОБСЛУЖИВАНИЮ АВТОТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ Вестник науки, 2021

## QURILISH SANOATIDA KERAMZIT MATERIALLARINI XUSUSIYATLARI

**Askarova M., Mamajonova N**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

elektron pochta: [asqar.xasanboy7413@gmail.com](mailto:asqar.xasanboy7413@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada keramzit materiallarning issiqlik almashinuvi, binolarning energiya tejankorlik issiqlik almashinuvini yaxshilashga qaratilgan yechim va tahlillar natijasida intensivlashtirish usullari keltirilgan.*

*kalit soʻzlar: Issiqlik, kimyo, material, suv, par, qurilish, issiqlik almashinuvi, Reynolds Re son.*

#### **Kirish.**

Phytoadditives are also used in the production of flour confectionery products. Studies on the use of phyto-powder from dry extracts of sage, motherwort, lemon balm, hawthorn and valerian in the recipe of a biscuit semi-finished product showed that due to the enrichment of the latter with antioxidants, the semi-finished product acquires special functional properties, while improving the structural-mechanical and organoleptic quality indicators of the resulting products, increasing their life storage, the degree of digestion of proteins increases and the amount of aromatic substances in the product increases [11, p.63-64].

As a result of an analytical review of data from profiling literature sources, it was found that it is recommended to use herbal supplements from medicinal plants to prevent microbial contamination of bread.

## **2. The purpose of the study.**

The aim of the work was to study the antagonistic properties of phytoadditives against the main pathogens of bread diseases.

Objects of study: extract and powder from *Alhagi pseudalhagi*.

## **3. Methods and materials.**

The above-ground part of *Al. pseudalhagi* were collected during the flowering period. To obtain the extract, the method of maceration (infusion) was used at a ratio of crushed raw materials and water in wt. shares 1:20; duration of extraction on a water bath with frequent stirring 30 min. The infusion was carried out with a tightly closed infunder. After the specified time of extraction, the infunder was removed from the water bath and infused (cooled) at room temperature for 5 min, then the mass was squeezed and filtered without waiting for complete cooling in accordance with the requirements of the State Pharmacopoeia (SP). The mass fraction of solids in the extract varied within  $7.0 \pm 0.6\%$ .



The powder was obtained from the aerial part (grass), which was washed, then dried and ground using a Retsch GM200 knife mill (Germany) to a particle size of not more than 5.0 mm (sieve No. 50) in accordance with the requirements of the Global Fund. It should be noted that the process of extracting biologically active substances is the faster, the more thoroughly the drug is crushed. However, significant grinding of the raw material can slow down the diffusion process. The mass fraction of solids in the extract varied within  $90.4 \pm 0.52$ .

The sensitivity of test cultures to the action of plant extracts was determined by diffusion into agar using wells in agar medium. Dense agar nutrient media were used as nutrient media: MPA (for spore-forming bacteria), wort agar (for fungi and yeast). The diameter of the zone of inhibition (absence) of microorganism growth was measured using a ruler with an accuracy of  $\pm 1$  mm. Growth retardation zone up to 14 mm - low sensitivity, from 15 to 25 mm - sufficient sensitivity, over 25 mm - high sensitivity to the antibiotic. Test organisms were 18...20 hour cultures of microorganisms grown on slanted MPA. Suspensions of microbes were added at the rate of  $10^6$  microbial bodies per 1 cm<sup>3</sup> of nutrient medium [12].

A series of trial baking was carried out according to the generally accepted method according to GOST 27669-88 "Baking wheat flour. Method of trial laboratory baking of bread" and SanPiN No. 0257-08 "Hygienic requirements for the production of bread, bakery and confectionery products and their transportation" using laboratory equipment from Wiesheu GmbH (Germany).

The susceptibility of bread to potato disease and molding was judged by its signs, which manifest themselves after a certain time when keeping the samples in a thermostat at a temperature of a steam-air medium of 37 ... 40°C and its relative humidity of 80.0 ... 85.0% [13, p.150-151].

#### **4. Results and discussion.**

Particular attention was paid to medicinal plants of the region. It is the proximity of raw materials to the consumer that contributes to the rational use of the raw materials of the regions themselves, increasing the economic efficiency of production, including

food production, reducing costs and enriching food products with essential nutrients of non-alimentary origin. It has been established that in Central Asia, including Uzbekistan, *Alhagi pseudalhagi* (M.Bieb.) Desv.ex Shap grows massively. - false yantak (false camel thorn).

It has been established that this herb contains a rich complex of biologically active nutrients, including organic acids, essential oils, rubber, alkaloids, vitamins (C, K, B groups, carotene), tannins, catechins, flavonoids (rutin), leucoanthocyanidins, coumarins, sterols (cholestenol). The roots contain alkaloids (0.2%), vitamin C, coumarins (0.2%), tannins (3.9%). Saponins, steroids, organic acids, traces of alkaloids, phytoncides were found in the grass. Preparations from *Al.pseudalhagi* have wound healing, hemostatic, astringent, choleric and antimicrobial effects [14; 15, pp. 307-308].

However, the biotechnological potential of this unique medicinal plant as a food raw material for the production of bread and bakery products has not been practically studied. Especially promising is its use as an antibiotic additive to prevent microbial infection of bread products.

It has been established that preparations based on camel thorn exhibit a pronounced bactericidal and antimicrobial effect on staphylococci, streptococci, dysentery bacillus and other pathogenic microorganisms. According to the results of screening studies, the camel thorn extract was classified as a non-toxic drug of the IVth class of toxicity, that is, to substances that are not life-threatening [16].

The fungistatic properties of phytoadditives on test cultures of *Bacillus subtilis* VKM-B-501, *Escherichia coli* IEM-1, *Staphylococcus aureus* BMS-1, *Aspergillus niger* P-3, *Penicillium crustosum* VKM-F-4080, *Mucor racemosus* VKM-F-541 were studied by the method wells in the thickness of a dense agar nutrient medium with the measurement of zones of growth inhibition of these test cultures.

The results of the study of the antimicrobial activity of the aqueous extract and powder from *Al.pseudalhagi* in experiments with "pure" cultures of microorganisms are presented in Table 1.

**Table 1. Antimicrobial activity of herbal supplements from *Al.pseudalhagi***

Strain microorganism	Diameter of growth retardation zones of test-cultures of microorganisms under the influence of phytoadditives, mm			
	extract	powder, in %		
		1,0	3,0	5,0
Bacillus subtilis BKM-B-501	11,2±0,5	18,0±0,6	21,4±0,4	24,7±0,5
Escherichia coli IEM-1	7,4±0,6	16,5±0,5	18,4±0,6	23,0±0,5
Staphylococcus aureus BMC-1	9,0±0,3	17,4±0,6	21,2±0,4	24,0±0,5
Aspergillus niger P-3	9,2±0,6	18,1±0,5	21,4±0,6	28,2±0,5
Penicillium crustosum BKM-F-4080	8,0±0,5	16,4±0,4	19,8±0,5	25,2±0,3
Mucor racemosus BKM-F-541	8,2±0,4	18,4±0,6	21,3±0,4	25,2±0,4

It has been established that the aqueous extract of camel's thorn has an unstable effect of inhibiting the growth of the above-mentioned strains of microorganisms. Thus, disks with water extract of *Al.pseudalhagi* were characterized by a narrow inhibition zone of 7.4...11.2 mm, and the powder in these dosages has a microbostatic effect on putrefactive microorganisms. With an increase in the dosage of the powder, its antimicrobial effect increased, especially in relation to mold fungi *As. niger*, *P. crustosum*, and *M. racemosus*. This is probably due to the fact that the composition of herbal supplements includes components containing biologically active compounds that have an antimicrobial effect on the above microorganisms, in particular, essential oils and tannins.

### REFRENSSES

1. K.S.Rakhmonov. *Influence of leavens of spontaneous fermentation and phytoadditives on the provision of microbiological safety of bread* // T. I. Atamuratova, N. R. Djuraeva, I. B. Isabaev, L. N. Haydar-Zade // *Journal of Critical Reviews* //2020, Vol.7, Issue 5, pp. 850-860.
2. S.K. Jabborova. *Application of products of processing mulberries and roots of sugar beet in the production of cupcakes* // I.B.Isabaev., N.R. Djuraeva., M.T. Kurbanov., I.N. Khaydar-Zade., K.S. Rakhmonov // *Journal of Critical Reviews* //2020, Vol.5, Issue 5, pp. 277-286.

3. K.S.Rakhmonov. *Application of phito supplements from medicinal vegetable raw materials in the production of drugs // T. I. Atamuratova., M.E. Mukhamedova., N.K.Madjidova., I.Sh. Sadikov //Journal of Critical Reviews //2020, Vol.7, Issue 12, pp. 934-941.*

4. Djurayeva N, *Mixtures of Vegetable Fat as a Potential Raw Material for Bakery// Barakayev N, Rakhmonov K,Atamuratova T, Mukhamedova M, Muzaffarova Kh. // International Journal of Current Research and Review// october 2020, Vol.12, Issue 19, pp. 140-148. DOI: <http://dx.doi.org/10.31782/IJCRR.2020.12192>*

5. Djurayeva N, *Plant-fat mixtures as a potential raw material for bakery production// Rakhmonov K, Barakayev N, Atamuratova T, Mukhamedova M, Muzaffarova Kh. // Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology 2020 21(45-46), pp. 29-42*

6. Ravshanov S.S, *The impact of ultrasonic activated water on hydrothermal processing of wheat grains grown in dry climate conditions // Rakhmonov K.S., Amanov B.N. // Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology 2020 21(45-46), pp. 29-42*

7. Kuliev N.SH, *Udk 664.8 baking properties and quality expertise wheat flour// Rakhmonov K.S. // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 2, Pages 6333-6340*

8. Ravshanov S.S, *The Effect Of Drinking And Activated Water On Field Scales Of Wheat Grains Grown In Arid Climatic Conditions// Rakhmonov K.S. Ergasheva H.B., Yuldasheva Sh. J.// European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 3, Pages 3065-3070.*

9. Rakhmonov K.S., *Confectionery Products for Therapeutic and Preventive Purpose with Medicinal Herbs Uzbekistan// L.N. Khaydar-Zade., N.SH. Kuliev, G.H.Sulaymonova // Annals of the Romanian Society for Cell Biology, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 4126 – 4140.*

10. Ravshanov S.S., *Influence of the Use of Activated Water during Hydrothermal Treatment on the Quality of Bread// Rakhmonov K.S., Radjabova V.E., Pardayev Z.T. // Annals of the Romanian Society for Cell Biology, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 4091 – 4102*

11. Azim Oltiev., *The role of catalysts in fat transesterification technology// Matluba Kamalova., Kakhramon Rakhmonov., Orifjon Mamatqulov// IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 848(2021) 012220*

12. Rakhmonov KS, *Spontaneous fermentation starter cultures - an effective means of preventing the potato disease of bread // Isabaev IB. // Journal "Storage and processing of agricultural raw materials" .- M., 2011.- No. 12.- P.23-25.*

13. Rakhmonov KS, *Influence of the substrate of the nutrient medium on the composition of the populations of microorganisms in the starter cultures of spontaneous fermentation* // Isabaev IB, Akhmedova ZR // *Journal "Storage and processing of agricultural raw materials". M, 2012 ..- No. 9.- P.40-43*

14. Rakhmonov KS, *Analysis of typical sources of microbial contamination of bread* // *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. // 2014.- No. 3.- P.37-43.*

15. Rakhmonov K.S. *Potato Bread Disease and a Method for Its Prevention* // T.I. Atamuratova // *Russian Bakery Magazine. M, 2014.- No. 5.- P.37-38.*

16. Rakhmonov KS, *Biotechnological aspects of ensuring the microbiological purity of bread* // E. Muratov, T.I. Atamuratova // *Kimyo va kimyo texnologiyasi. 2015.- No. 2.- P.64-68.*

17. Rakhmonov K.S. *Wheaten ferments spontaneous fermentation in biorechnological methods*// Isabayev I.B. // *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 2016. - № 7-8. - P. 9-12.*

18. Rakhmonov KS, *Methods for improving the composition of the nutrient medium of sourdough cultures for bakery products from wheat flour* // T.I. Atamuratova. Isabaev I.B. // *Bakery of Russia. 2016. –№2. - P.22-24.*

19. Rakhmonov KS, *Optimization of the recipe composition of wheat breads using spontaneous fermentation starter cultures* // Isabaev IB, U.M. Ibragimov, Molchanova E.N. // *Bakery of Russia. 2018. –№3. - S. 33-37.*

20. I.B. Isabaev, *The use of feed flour as a substrate for the nutrient medium of wheat starter cultures in the production of bread* // T. I. Atamuratova., Rakhmonov K.S. // *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti.- 2018. No. 2.- P.24-30.*

21. Ravshanov S.S, Radjabova V.E, Rakhmonov K.S, Pardayev Z.T. *Influence of the Use of Activated Water during Hydrothermal Treatment on the Quality of Bread* // *Journal Annals of the Romanian Society for Cell Biology - Romania, 2021. Vol. 25, №2 ISSN: 1583-6258, pp. 4091-4102.*

22. Ravshanov S.S, Rakhmonov K.S, Ergasheva H.B, Yuldasheva Sh.J. *The Effect Of Drinking And Activated Water On Field Scales Of Wheat Grains Grown In Arid Climatic Conditions* // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07. Issue 03. 2020. -pp 3065-3070.*

## ДАРБАНД ДАРАСИНИ ГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ ВА ГИДРОГЕОЛОГИЯСИ

Панжиев Хикмат Аҳадиллаевич

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

E-mail: [hikmat.panjiyev02@mail.ru](mailto:hikmat.panjiyev02@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Мақолада дарбанд дарасини геологик тузилиши ва гидрогеологияси таърифланган. Майдонда юра, бўр ва тўртламчи давр ётқизиқлари ўрганилган.

**Калим сўзлар:** Палеозой, мезазой ва кайнозой, карбонат формацияси, туз ангидрит формацияси, неоком

### ABSTRACT

The article describes the geological structure and hydrogeology of Darband Gorge. Jurassic, Cretaceous and Quaternary deposits have been studied in the area.

**Key words:** Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic, carbonate formation, salt anhydrite formation, neocom.

Дарбанд майдони жануби-ғарбий Хисор тоғ тизма тармоғи чегарасида Сурхондарё вилоятининг Бойсун тумани худудида жойлашган бўлиб, жануби-ғарбдан шимоли-шарқ тамон Сайроб қишлоғидан Сисанча қишлоғигача чузилган.

Дарбанд-иккита сўз бирикмасидан иборат. “Дар” –дарвоза, дара; “банд”-мустаҳкам, ёпиқ, шунингдек дара орқали ўтган йўл демакдир.

Дарбанд майдони геофизик изланишлар маълумотларига кўра юқори ва ўрта юранинг қатлами ўтказувчанлиги сувга тўйинган сифатида тавсифланади.

### Ўрта ва юқори юра (J<sub>2+3</sub>)

Бат яруси юқори подъярус ва келловей, қуйи подъярус J<sub>2</sub> bt<sub>3</sub>+J<sub>2</sub>cl.

Байсун свитаси. Бу свитанинг ётқизиқлари Тангидувал ётқизиқларига мувофиқ ётади. Бу свита литологик хусусияти бўйича қуйи ва юқори қисмларга бўлинади.



Қуйи қисми кул ранг, сарғиш-кул ранг аргиллитлар, мергеллар ва оҳактошларнинг алмашилиши билан тавсифланади.

Байсун свитанинг юқори қисми кўкимтир-кулранг мергеллардан иборат бўлиб, у гилли-оолитли оҳактошлар ва алевролитлар билан қаватланади.

Свитанинг қалинлиги 274 м дан 753 м гача.

### **Юқори юра (J<sub>3</sub>)**

Келловий яруси, ўтра ва юқори подъяруслар ва оксфорд яруси J<sub>3</sub>cl<sub>2+3</sub>+ох

Ўрганилган майдонда келловий-оксфорд ярусларини денгиз карбонатли ётқизиқлари ривожланган.

Жинсларни литологик хусусияти бўйича икки қисмга бўлиш мумкин. Қуйи қисми биохимик ҳосил бўлган кулранг (то қорамтир-кул ранг) оҳактошларидан тузилган. Юқори қисми эса қорамтир-кул ранг брекчия шаклидаги юпқа қатли оҳактошлари билан кулранг хемотроп оолитли оҳактошларидан иборат.

Келловий-оксфорднинг қалинлиги 483-521 метр.

### **Кимериж-титон (J<sub>3</sub>)**

Кимериж-титон ётқизиқлари қалин қатламли тузлар, гипслар ва ангидритлардан ташкил топган ва келловий-оксфорд жинсларига мувофиқ ётади.

Гипслар ва ангидридлар оқ, кул ранг, кристаллик, майда ва йирик-донодор, айрим ҳолларда терриген материалларнинг аралашмаси учрайди. Оҳактошлар кул ранг, қаттиқ кучли ғижимланган, ангидрид кристалларнинг аралашмаси бор.

Кесимнинг ўрта қисми гипслар ва ангидритлар юпқа қатли гиллардан ташкил топган. Гиллар (0,1-0,3м) қўнғир-жигар ранг, кул ранг кучли гипслашган, аста-секин гипсга ўтади.

### **Бўр (K) Қуйи бўр ётқизиқлари (K)**

Валанжин (K<sub>1v</sub>) ўз ичига икки: қорабил ва альмурад свитасини иборат. Қорабил свитаси қизил рангли гил, ёғли, алевритли, қўнғир-жигар ранг кам ҳолларда кўкиш-кул ранг тусли юпқа қатли гипс билан бошланади. Унинг қалинлиги 100 м атрофида.



Кесим бўйича юқорида 0,5-3,0 м юпқа қатли алевролитларга эга бўлган жигар ранг-қунғир кумтошлар пачкаси ётади, қалинлиги 90 м.

#### **Готерив (К<sub>1</sub>) Қизилтош свитаси**

Готерив ётқизиқлари континентал ҳосилаларидан таркиб топган ва валанжиннинг саёз кўл ётқизиқларига мувофиқ ётади. У икки аъзоли тузилишга эга: қуйи пачкаси гил ва алевролитлардан, юқориси эса-кумтошлар ва алевролитлардан иборат.

#### **Баррем (К<sub>1b</sub>) Окудбулоқ свитаси**

Кесим қизил, қизғиш-жигар ранг гипслашган гил, кўкиш-кулранг гил, кумтошлар ва гипслар билан мувофиқ ётувчи пачка билан бошланади.

Гиллар, алевритли, оҳакли, слюдали, кумтош кул ранг-қунғир, гилли-алевритлардан ташкил топган.

#### **Тўртламчи давр ётқизиқлари – Q**

Улар орасида ушбу майдонда ривожланган юқори тўртламчи давр ҳосилалари ажратилади.

Улар, асосан, конгломератлар ва кумтошлар билан ифодаланган бўлиб, жигар ранг-кулранг кумоқ билан қопланган.

Тўртламчи давр ҳосилаларининг умумий қалинлиги 15-30 м.

#### **Гидрогеологияси**

Районнинг гидрогеологик шароити иқлими, тектоник тузилиши, жинсларнинг литологик хоссалари, рельефнинг ўзига хослиги билан белгиланади.

Ер ости сувларини вужудга келишида районнинг геоморфологик хусусиятилари муҳим омиллар ҳисобланади.

Дарбанд майдонида доирасида кўп сонли бўлоқлар мавжуд. Бўлоқларда сув турли даражада минераллашган.

Майдонда неоген, палеоген, юқори ва қуйи бўр ётқизиқларида босимсиз сувлар учрайди.

Мезазой ётқизиқларида ажратилган қатламли сувлар, кимёвий таркиби бўйича 4 та комплексга бўлинган.

Гидрогеолигик комплекс юра даврига мансуб. Сувнинг минералогик таркиб бўйича (49.4 г/м), хлор кальцийли типга мансуб.

Валанжин, готерив ва баррем қатлам сувларини минераллашуви 50,4 г/м. Бу сувлар хлор кальцийли типга тегишли.

III-чи комплексга апт ва альб ўтказувчан горизонт сувлари киради.

IV-комплекс ўз ичига юқори бўр ўтказувчан горизонт қатламли сувларни олади.

Сенон-палеоцен қатламли сувларида CO<sub>2</sub> ва H<sub>2</sub> компонентларининг миқдори кескин ортиб боради. Минералланиши 130 г/л га етади. Сувлар сульфатли-натрийли типга таалуқли. Эоцен сувлари (олой қатлари) минералланиши 12-14 г/л, хлор-кальцийли ва хлор-магнийли сув типига мансуб.

Гаджак структурасида 1017-10043 метр оралиғидаги сувлар сенамон-альб ётқизикларига тўғри келади. Сувларнинг зичлиги 1,10-1,13 г/см<sup>3</sup>. Гаджак кудуғининг 2533-2514 м карабил свитаси оралиғида, синаб кўрилган сувлар дебети суткасига 0,1 м<sup>3</sup> қатлам суви аниқланган.

Дарбанд майдонида геофизик ишлар натижасида юқори ва ўрта юра қатлами сувга тўйинган сифатида тавсифланган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)**

1. Акрамходжаев А.М. и др. Литология, стратиграфия, нефтегазоносность Южного и Западного Узбекистана, Ташкент. ФАН. 1971. С. 200.

2. Арифджанов М.Х. Рифовые комплексы карбонатов келловей оксфорда Узбекистана. Ташкент. ФАН. 1975. С. 162.

3. Бабаев А.Г. Карбонатная формация юрского возраста платформенной области Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. ФАН. 1983. С. 1-160.

4. Бабаев А.Г., Симоненко А.Н. и др. Формация юрских палеоседиментационных бассейнов Узбекистана и ее нефтегазоносность. Ташкент. 1990. С. 1-292.

## ODDIY SACHRATQI (*CICHORIUM INTYBUS L*) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATISH VA ULARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH

**Shodiyeva Dildora G‘iyosovna**

SamDTU mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya kafedrası assistenti

[dildoraannayeva786@gmail.com](mailto:dildoraannayeva786@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Cichorium intybus* o‘simligining vegetativ organlari sirtidan ajratib olingan bakteriya izolyatlari. Tadqiqot predmeti - *Cichorium intybus* o‘simligidan endofit mikroorganizmlar ajratib olish jarayoni. Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad *Cichorium intybus* o‘simligidan endofit mikroorganizmlar ajratib olish va ularning biotexnologik potensialini tahlil qilish va o‘rganish. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib bir qancha vazifalar belgilab olinadi. Oddiy sachratqidan endofit mikroorganizmlar ajratib olish va morfologik xususiyatlari o‘rganish. Ajratib olingan faol endofitlarning dorivor o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish. *Cichorium intybus* o‘simligining endofit mikroorganizmlar jamoasini o‘rganish va ularning turlar tarkibini idintifikatsiya qilish asosida, aniqlangan shtamlarning biotexnologik potensialini baholash.

**Kalit so‘zlar:** *Cichorium intybus*, MALDI TOF (MALDI TOF) mass-spektrometriya, *Phaseolus vulgaris*, *Bacillus thuringiensis*, *Bacillus cereus*, *Bacillus pumilus*,  $\beta$ -indolil-3-sirka kislota.

### ABSTRACT

*Bacterial isolates isolated from the surface of vegetative organs of Cichorium intybus. The subject of research is the process of extracting endophytic microorganisms from Cichorium intybus plant. The main goal of the research is to*

*isolate endophytic microorganisms from the Cichorium intybus plant and to analyze and study their biotechnological potential. Based on the purpose of the research, several tasks are defined. Isolation of endophytic microorganisms from common mushrooms and study of their morphological characteristics. Studying the effect of isolated active endophytes on the growth and development of medicinal plants. Evaluation of the biotechnological potential of the identified strains based on the study of the community of endophytic microorganisms of the Cichorium intybus plant and the identification of their species composition.*

**Keywords:** *Cichorium intybus, MALDI TOF (MALDI TOF) mass spectrometry, Phaseolus vulgaris, Bacillus thuringiensis, Bacillus cereus, Bacillus pumilus,  $\beta$ -indolyl-3-acetic acid.*

**Kirish** Dunyoda farmatsevtika sanoatining rivojlanishi natijasida dorivor o‘simliklarga talab ortib bormoqda. Mahalliy floraga mansub 4,5 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. Dunyo miqyosida o‘simlik va mikroorganizmlarning simbiotik, antoganistik munosabatlari jahon miqyosida olimlar tomonidan o‘rganilib, o‘simlik va mikroorganizm o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish, ularning turli xil dorivorlik xususiyatlari haqida aytib o‘tilgan. Bunda endofit mikroorganizmlar hayotining ma’lum siklini o‘simlik to‘qimalarida o‘tkazib, o‘simlik immunitet tizimini yaxshilash, ularning turli patogen mikroorganizmlar va zararkunanda hasharotlarga qarshi keng spektrli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bugungi kungacha dorivor o‘simliklarning kimyoviy va mikrobiologik tarkibini o‘rganish va ularning biotexnologik potensialini baholash, ular asosida biopreparatlar olish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. O‘simliklar ularda yashaydigan, ammo har qanday faoliyat turiga ega bo‘lmagan va aniq simptomlarni keltirib chiqarmaydigan mikroorganizmlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu mikroorganizmlar ma’lum endofitlar. Bu o‘simliklarni joylashtiradigan parazitlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar katta ahamiyatga ega. Ikkala organizm

o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlarda biz potentsial toksik bo'lgan ikkinchi darajali metabolitlar ishlab chiqarilishini ko'rishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, ba'zi endofitik zamburug'lar viruslanish omillarini keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan, o'simlik mexanik va biokimyoviy himoya vositalarini ishlab chiqarishni ko'paytiradi. Mikroorganizm qo'zg'atuvchisi virusliligi va o'simlik tomonidan himoya kuchayishi o'rtasidagi bog'liqlik ikkalasi ham muvozanatli antagonistik munosabatlarga ega ekanligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, ikkalasi ham o'zaro manfaatli munosabatlarni ishlab chiqaradi. Bu muvozanat qo'ziqorinning virusliligi intensivligiga, o'simlikning himoya darajasiga bog'liq. Bu sohada O'zMU biol. va kimyo fakulteti (B. O. Toshmuhamedov, O. K. Toshmuhamedova, A. I. Gagelgans, M. M. Rahimov va boshqalar)ning hissasi katta. Hujayra Biotexnologiyasi o'simlik, hayvon va odam xujayralarining sun'iy sharoitda o'sishi hamda ko'payishi mikroorganizmlarnikiga o'xshashligiga asoslangan.

### **Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili**

Endofit mikroorganizmlarni o'rganish va ularni ajratish olish yuzasidan ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan Z. Abbas, S. Saggi, M. Sakeran, N. Zidan, H. Rehman, S. Arora, P. Patel, M. Vanza, T. Cook, K. Brown, J. Boyle, G. Strobel, D. Tusch, A. Lajoix, E. Hosity, J. Azay-Milhau, K. Ferrare, D. Jahannault, H. Yu, L. Zhang, L. Li, C. Zheng, L. Guo, kabi olimlar o'z ilmiy ishalrida turli dorivor, qishloq xo'jaligi uchun ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklarning endofitlar tarkibini, ularning antimikrob, antifungal va antogonistik xususiyatlarini, ikkilamchi metabolitlar, biologik aktiv moddalar ajratishi, o'simlik bilan o'zaro munosabatlari va uning biotexnologiyadagi istiqbolli jihatlarini o'rganishgan. Jumladan, Cichorium intybusning endofitlar tahlili, fitokimyosi bo'yicha bo'yicha Janubiy Afrikadagi Johannesburg universitetining doktori D.T. Ndinteh, V. B. Mavumengwana va ularning shogirdlari katta muvaffaqiyatli ilmiy ishlar olib borishgan. Bundan tashqari, A.Amirita, P. Swetha, N.S. Vasanthi, K.P. Kannan kabi olimlar endofitlar haqida ko'plab ilmiy izlanishlar ma'lum. Ushbu izlanishlar sanoat miqyosida endofitlar biotexnologiyasi sohasida katta yutuqlarga erishishi, istiqbolli loyihalarga ega bo'lishi

va yer yuzidagi ekologik, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda kuzatiladigan muommalarga samarali yechim topishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

### Metodologiya

Tadqiqotda mikrobiologiyada umum qabul qilingan usullar va biotexnologik, mikrobiologik, statistik usullardan foydalanilgan.

### Natija muhokama

Tadqiqotlar o'simlik namunalari yig'ishdan boshlandi. Bunda *Cichorium intybus* o'simligi Samarqand hududidan ajratib olindi. Samarqandning uchta tumani Pastdarg'om tumani, Nurobod tumanidan *Cichorium intybusning* namunalari yig'ib olindi. Ushbu tumanlarning maydoni, turlar xilma-xilligi katta bo'lganligi sababli bu hududlarning maydonidan *Cichorium intybuslar* olindi. *Cichorium inrybusning* endofit mikroorganizmlarini o'rganish maqsadida, ular o'sha kuniyoq O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi mikrobiologiya institutiga olib kelindi. Olib kelingach ular sterill sharoitida tozalandi. Bunda srtrillash uchun turli usullardan foydalanildi. Bunda 70 % li etanol spirtida 15 daqiqa ushlab turiladi. so'ng distillangan suvda 3 marta yuviladi. Vodorod peroksidning 6 % li eritmasida 3 minut ushlab turiladi. so'ng distillangan suvda 3 marta yuviladi.

### 1-jadval

№	Chapek ozuq muhiti tarkibi	Miqdori	PDA	Miqdori
1	MgSO <sub>4</sub> 7H <sub>2</sub> O	0,5 gr	Kartoshka solodi	200,00 gr
2	KCL	0,5 gr	Glyukoza	20,00 gr
3	NANO <sub>3</sub>	0,2 gr	Agar	15,00 gr
4	K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub>	1,0 gr		
5	FeSO <sub>4</sub>	0,01 gr		
6	Saxaroza	30,0 gr		
7	Agar	15,0 gr		
8	Distillangan suv	1 litr		

**Tayyor bo'lgan PDA ozuqa muhiti. o'simlikning 17 ta izolyatlari olindi.**

**Izolyatlarning dastlabki morfologik belgilari**

**2-jadval.**

№	Izolyatlar	Qirralari	Shakli	O'lchami
1	1A	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
2	1B	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
3	2A	Tekis	Noto'g'ri	Kichik
4	2B	Tekis	Noto'g'ri	O'rtacha
5	3A	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
6	3B	Tekis	Noto'g'ri	Kichik
7	4A	Notekis	To'g'ri	Kichik
8	4B	Notekis	Noto'g'ri	O'rtacha
9	5A	Tekis	To'g'ri	Kichik
10	5B	Notekis	Noto'g'ri	O'rtacha
11	6A	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
12	6B	Tekis	To'g'ri	O'rtacha
13	7A	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
14	7B	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
15	8A	Tekis	To'g'ri	O'rtacha
16	8B	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
17	9A	Notekis	Noto'g'ri	Kichik
18	9B	Notekis	Noto'g'ri	Kichik

Izolyatlar qayta ekish orqali sof kulturalarga aylantirildi.

Olingan sof kulturalar namunalari:



## Ajrati b olingan izolyatlarning MALDI-TOF MS usulida identifikatsiyalash

## 3-jadval

№	Ajrati b olingan bakteriya izolyatlari	MALDI-TOF MS usulida identifikatsiyalangan shtammlar
1	1A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
2	1B	<i>Bacillus cereus</i>
3	2A	<i>Bacillus cereus</i>
4	2B	<i>Bacillus pumilus</i>
5	3A	<i>Bacillus cereus</i>
6	3B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
7	4A	<i>Bacillus cereus</i>
8	4B	<i>Bacillus pumilus</i>
9	5A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
10	5B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
11	6A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
12	6B	<i>Bacillus cereus</i>
13	7A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
14	7B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
15	8A	<i>Bacillus cereus</i>
16	8B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
17	7A	<i>Bacillus pumilus</i>
18	7B	<i>Bacillus thuringiensis</i>

Olingan izolyatlarni MALDI TOF mass-spektrometriya usulida identifikatsiya qilish natijasida, *Bacillus thuringiensis*, *Bacillus cereus*, *Bacillus pumiluslar* borligi aniqlandi. Mikrobiologiyada umumiy qabul qilingan klassik usullar yordamida identifikatsiya qilindi. Olingan izolyatlar asosida *Bacillus thuringiensis*, *Bacillus cereus*, *Bacillus pumiluslar* borligi aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, 18 ta izolyatdan 9 tasida aniqlanib, *Bacillus thuringiensis* shtammi dominantlik qilganligi sababli, ushbu shtammning fitopatogen mikroorganizmlarga nisbatan antagonistik xususiyatini aniqlash ustida keyingi ishlar davom ettirildi.



**1-rasm. 1A,1B,2A,2B,3A,3B,4A,4B,5A,5B,6A izolyatlaridan olingan sof kulturalar**

**Ajratib olingan izolyatlarning MALDI-TOF MS usulida identifikatsiyalash 4-jadval**

No	Ajratib olingan bakteriya izolyatlari	MALDI-TOF MS usulida identifikatsiyalangan shtammlar
1	1A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
2	1B	<i>Bacillus cereus</i>
3	2A	<i>Bacillus cereus</i>
4	2B	<i>Bacillus pumilus</i>
5	3A	<i>Bacillus cereus</i>
6	3B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
7	4A	<i>Bacillus cereus</i>
8	4B	<i>Bacillus pumilus</i>
9	5A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
10	5B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
11	6A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
12	6B	<i>Bacillus cereus</i>
13	7A	<i>Bacillus thuringiensis</i>
14	7B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
15	8A	<i>Bacillus cereus</i>
16	8B	<i>Bacillus thuringiensis</i>
17	7A	<i>Bacillus pumilus</i>
18	7B	<i>Bacillus thuringiensis</i>

Olingan izolyatlarni MALDI TOF mass-spektrometriya usulida identifikatsiya qilish natijasida, *Bacillus thuringiensis*, *Bacillus cereus*, *Bacillus pumiluslar* borligi aniqlandi. Mikrobiologiyada umumiy qabul qilingan klassik usullar yordamida identifikatsiya qilindi. Olingan izolyatlar asosida *Bacillus thuringiensis*, *Bacillus cereus*, *Bacillus pumiluslar* borligi aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, 18 ta izolyatdan 9 tasida aniqlanib, *Bacillus thuringiensis* shtammi dominantlik qilganligi sababli, ushbu shtammning fitopatogen mikroorganizmlarga nisbatan antagonistik xususiyatini aniqlash ustida keyingi ishlar davom ettirildi. Auksin sifatida ko‘proq  $\beta$ -indolil-3-sirka kislota (IUK) yoki  $\alpha$ -naftilsirka kislota (NUK) ishlatiladi. Auksin manbai sifatida ozuqa muhitiga 2,4-dixlorfenoksi sirka kislota (2,4-D), indolil-3-sirka kislota (IUK), L-naftil sirka kislota (NUK) qo‘shiladi. Yaxshi o‘sovchi kallus olish uchun ko‘proq 2,4-D dan foydalaniladi, chunki IUK, 2,4-D ga nisbatan 30 marotaba kuchsizdir. Tanlab olingan endofit bakteriya shtammlarining loviya unishiga ta’sirini aniq uchun tadqiqotlar olib borildi. Dastlab loviya urug‘lari saralab olindi va 30 daqiqa davomida 3% vodorod peroksidida ( $N_2O_2$ ) qoldirildi, so‘ngra distillangan suvda 10 marta yuvildi. Tajriba variantlarida *Bacillus thuringiensis* kultural suyuqligi bakterial suyuqliklari 1/200 nisbatda xlorsiz suvga suyultirildi hamda 4 soat davomida loviyalariga ishlov berildi. Innokulyatsiya qilingan loviya urug‘lari sterillangan Petri likopchasida moslashtirilgan nam kameralarga joylashtirildi va 27 °S haroratli termostatga qo‘yildi. Urug‘larning unib chiqishi 4 kun davomida kuzatib borildi va variantlar bo‘yicha ma’lumotlar har kuni qayd etildi. So‘ng ular Pasterdarg‘om tumani “Po‘lat momo” va “Billura” fermer xo‘jaliklari maydonlariga ekildi. Nazorat va *Bacillus thuringiensis* kultural suyuqligi qo‘shilgan loviya maydonlari alohida o‘rganildi. *Bacillus* turiga mansub bakteriya shtammlaridan biopreparatlar tayyorlashda keng foydalaniladi. Ushbu turga kiruvchi bakteriyalar bir qator ijobiy xususiyatlarga ega. Fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi yuqori antagonistik xususiyatga ega, biologik faol moddalar (vitaminlar, almashinmaydigan aminokislotalar, fitogarmonlar, GK, ISK) sintezlaydi. *Bacillus* turiga mansub bakteriyalardan biopestitsid sifatida 70% preparatlar ishlab chiqilgan (Melo va boshq., 2016; Liu va boshq., 2019). *Bacillus*

*thuringiensis* bakteriya shtammlari asosida yaratilgan biopreparatlar, o'simlik zararkunanda hasharotlariga qarshi eng ko'p ishlatiladigan biologik vosita hisoblanadi. *Bitoksibatsillin*- spora hosil qiluvchi *Bacillus thuringiensis* bakteriyasi asosida yaratilgan. Biopreparat oq -jigarrang kukun shaklida bo'ladi. Bakteriya shtammining sporalari preparatning dastlabki ta'sir qiluvchi moddasi hisoblanadi.

### **Xulosa**

1. Samarqand viloyatining turli hududlaridan (Pastdarg'om, Nurobod tumanlari) olingan *Cichorium intybus* namunalarning mikrobiomi tadqiq qilindi

2. Chicory o'simligidan 1-1A, 2-1B, 3-2A, 4-2B, 5-3A, 6-3B, 7-4A, 8-4B, 9-5A, 10-5B, 11-6A, 12-6B, 13-7A, 14-7B, 15-8A, 16-8B, 17-9A, 18-9B izolyatlar ajratib olindi.

3. Izolyatlar MALDI TOF (MALDI TOF) mass-spektrometriya usuli va mikrobiologiyada umumiy qabul qilingan usullar yordamida identifikatsiyalandi.

4. Dominant shtamm - *Bacillus thuringiensis*da IUK aniqlandi.

5. Tanlangan shtammning kultural suyuqli *Phaseolus vulgaris*ga ta'siri aniqlandi. Ushbu shtammlar dukkakli ekinlarning kasalliklariga qarshi va o'simlik o'sishini yaxshilaydigan entamopatogen preparatlar yaratish uchun qo'llash mumkin deb tafsifiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)**

1. Annayeva, D. (2022). *CICHORIUM INTYBUS* LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. *извлечено* *om* <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

2. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLISH*. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-

972. <https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

3. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>

4. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>

5. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120.

6. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256.

7. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324.

8. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI VA MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 726-732. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/3359/3220>

9. Юсупов, М. И., Шайкулов, Х. Ш., Жамалова, Ф. А., & Очилов, У. У. (2021). Иммуный статус детей с коли инфекцией, вызванной гемолитическими эшерихиями до и послелечения бифидумбактерином и колибактерином. *Биомедицина ва амалиёт. Самарқанд*, 6, 272-27

10. Хужакулов, Д. А., Юсупов, М. И., Шайкулов, Х. Ш., & Болтаев, К. С. (2019). Состояние внешнего дыхания у больных детей со среднетяжелым течением пищевого ботулизма. *Вопросы науки и образования*, (28 (77)), 79-86.



11. Нарзиев, Д., & Шайкулов, Х. (2023). Чувствительность к антибиотикам *salmonella typhimurium*, находящихся в составе биопленок. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 60-64.

12. Annayeva, D. (2022). *CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL*. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

13. Хусанов, Э. У. (2022). Расулова Мухсина Розиковна, Шайкулов Хамза Шодиевич Особенности повреждений подъязычно-гортанного комплекса при тупой механической травме.

14. Шайкулов, Х., Исокулова, М., & Маматова, М. (2023). СТЕПЕНЬ БАКТЕРИОЦИНОГЕННОСТИ АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТНЫХ ШТАММОВ СТАФИЛОКОККОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ В САМАРКАНДЕ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 1), 199-202.

15. Одилова, Г. М., Рустамова, Ш. А., Мамарасулова, Н. И., & Болтаев, К. С. (2019). Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях. *Вопросы науки и образования*, (28 (77)), 70-78.

16. Odilova, G. (2023). *BOLALARDA DIAREYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI ICHAK TAYOQCHASINING XUSUSIYATLARI*. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 147-151.

17. Boltaev K.S., Mamedov A.N. Comparative study of ecological groups of hippohae rhamnoides Phytonematoids growing in the zarafshan oasis // *Galaxy international interdisciplinary research journal*. – 2021. - № 9(9). P. 101-104.

18. Vakhidova A. M., Khudoyarova G. N., Khudzhanova M. A., Mamedov A. *Immunorehabilitation of Patients with Echinococcosis, Complicated by the Satellites of Echinococcal Cysts-Bacteria// International Journal of Virology and Molecular Biologi*. – 2022. - № 11(1). P. 3-8.

19. Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). *REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE*. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 50-55.

20. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zarafshan forest biotopes. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(5), 1-5.

## SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA O'RGANILAYOTGAN BA'ZI O'SIMLIKLARNING BIOLOGIYASI

**Fayzullayeva D.B**

Termiz davlat universiteti, biologiya fakulteti

**Mirzayeva X.Y**

Termiz davlat universiteti, biologiya fakulteti

**Egamberdiyeva SH. S**

Termiz davlat universiteti, biologiya fakulteti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida iqlimlashtirilayotgan dorivor o'simliklar va ularning shifobaxsh xususiyatlari, bioekologik xususiyatlari hamda ular ustida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari olingan natijalar asosida yoritilgan. Olingan natijalar asosida xulosalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Lycium barbarum L, Rubia tinctorum L, sutkalik gullash, Robinia pseudoacacia L, polisaxaridlar, aminokislotalar, flavanoidlar.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье на основе полученных результатов освещены лекарственные растения, акклиматизированные в условиях Сурхандарьинской области, их лечебные свойства, биоэкологические свойства и проведенные научные исследования, на основании которых представлены выводы.*

**Ключевые слова:** *Lycium barbarum L, Rubia tinctorum L, дневное цветение, Robinia pseudoacacia L, полисахариды, аминокислоты, флавоноиды.*

### ABSTRACT

*In this article, medicinal plants that are acclimatized in the conditions of Surkhondarya region and their medicinal properties, bioecological properties, and*



*scientific research conducted on them are covered based on the results obtained. Conclusions are presented based on the obtained results.*

**Key words:** *Lycium barbarum L, Rubia tinctorum L, daily flowering, Robinia pseudoacacia L, polysaccharides, amino acids, flavonoids.*

O‘zbekiston florasi o‘zining o‘simliklar bioxilma-xilligi va shifobaxsh o‘simliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Insoniyat hayoti o‘simliklar dunyosi bilan uzviy bog‘langan. Chunki, ular inson faoliyatida turli xil vazifalarni (oziq-ovqat, dorivor, qurilish va b.q.) bajargan va texnik xom ashyo manbai bo‘lib xizmat qilgan. Dorivor o‘simliklar insoniyat ta‘rixida o‘tmishdan ma‘lum bo‘lgan. O‘simliklardan nafaqat oziq-ovqat, balki, biologik faol moddalar manbai sifatida keng foydalanganlar. Dorivor o‘simliklardan shumer sivilizatsiyasida 5000 yil avval davolash maqsadlarida qo‘llanganligi haqidagi ma‘lumotlar mavjud. Dorivor o‘simliklar uzoq tarixiy davrlar mobaynida dori vositalarining yagona manbai bo‘lib hisoblangan.

V. Dushenkov, I. Raskin ma‘lumotlariga qaraganda 20000 ta atrofida turli oddiy molekulyar moddalar faqat o‘simliklardan ajratib olingandir. Shuning uchun ham keyingi o‘n yilliklarda shifobaxsh o‘simliklarga qiziqish yana ortmoqda, chunki ular xomashyosi asosida tayyorlangan dorivor vositalar-vitaminlar, biologik faol birikmalar va mineral moddalar inson organizmiga juda samarali ta‘sir etadi.

Ma‘lumki, dunyo miqyosida farmasevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% i dorivor o‘simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda. Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklarining davolashda va profilaktikasi uchun foydalaniladigan dorivor preparatlarning 77%, jigar va oshqozon-ichak kasalliklarini profilaktikasi va davolashda foydalaniladigan dorivor preparatlarning 74%, balg‘am ko‘chiruvchi dorilarning 73%, qon to‘xtatuvchi dorilarning 60% dorivor o‘simliklar xom-ashyosi asosida ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi paytda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tashkilotning (FAO) ma‘lumotlariga qaraganda butun dunyoda 50000 dan oshiq dorivor o‘simliklar tibbiyotda davolash maqsadlarida foydalaniladi. Davolash maqsadlarida mahalliy flora

vakillaridan foydalanish janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuqori, Hindistonda bu ko'rsatkich 20% ni, Xitoyda 19% ni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlari farmakopeyalarida dorivor o'simliklar xomashyosi asosida ishlab chiqarilgan preparatlar keng o'rinni egallaydilar.

O'zbekiston xududida tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o'simliklar tarqalgan, ularning 1200 ga yaqin turlari dorivorlik xususiyatlariga ega. Hozirgi paytda Respublikamizda 112 turdagi dorivor o'simliklar rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ularning 80%ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining tabiiy florasini o'rganish, dorivor o'simliklarini zahirasini aniqlash, o'stirish, introduksiya qilish, xomashyosini tayyorlash, biokimyoviy tarkibini o'rganishda Q.Z. Zokirov, X.A. Abduazimov, P.X. Yo'ldoshev, N.K. Abubakirov, A.Y. Butkov, I.K. Komilov, K.X. Xojimatov, I.I. Malsev, I.I. Granitov, A.G. Kurmukov, I.V. Belolipov, R.L. Xazanovich, M.B. Sultonov, F.S. Sadridinov, P.K. Zokirov, S.S. Sahobiddinov, X.X. Xolmatovlar, iqlimlashtirish va madaniylashtirish sohasida esa Q.Xodjayev, Y.M. Murdaxayev, B.YO. To'xtayev, T. Safarov va boshqalarning xizmatlari salmoqlidir. Respublikamizning florasidagi shifobaxsh o'simliklarni ilmiy o'rganishda mashhur akademik A.P. Orexov va uning shogirdlari akademiklar O.S. Sodiqov hamda S.Y. Yunusovlar katta muvaffaqiyatlarga erishdilar [1].

Jahonda dorivor o'simlik turlarini topish, ularni turli iqlim sharoitlarida bioekologik xususiyatlarini o'rganish va fitokimyoviy taxlil qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, tibbiyot, atir-upachilik va oziq-ovqat sanoati uchun iqtisodiy jihatdan ahamiyatli hisoblangan efir moyli o'simlik turlarini turli iqlim sharoitlariga introduksiya qilish, yangi sharoitga moslashish xususiyatlarini va tarkibidagi efir moyining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholiga sifatli dori-darmon vositalari yetkazib berish uchun xizmat qiladigan farmatsevtika korxonalarini ko'paytirish va ularni dorivor o'simliklar xom ashyolari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...o'rmon fondi yerlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalari maydonlarini 4984 gektarga yetkazish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda jumladan, respublikamizning arid hududlarida dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, introduksiya sharoitida ularni o'sishi va rivojlanishini, tarkibini o'rganish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 oktabrdagi PF-5863-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022 yil 20 maydagi PF-139-son "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ko'rilayotgan chora tadbirlar doirasida Surxondaryo viloyati hududida iqlimlashtirilayotgan dorivor o'simliklar va ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning natijalari haqida ushbu maqolada ma'lumotlar keltirilgan [3].

Bunday dorivor introdusentlar qatoriga kiruvchi jing'ilning (*Lycium barbarum* L.) kelgusida mamlakatimiz xalq xo'jaligida, jumladan, aholi sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi aniq. O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitida jing'ilni o'stirish imkoniyati - muammoning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu o'simlikning ahamiyatli jihati shundaki, uning o'sishi va rivojlanishi sharoitga talabchan emas. O'zbekiston sharoitida iqlimi o'ta quruq va tuprog'i sho'r bo'lgan viloyatlarda ham ushbu o'simlik iqlimlashtirilgan va o'stirish borasida tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari ushbu o'simlik tuproq erroziyasini oldini olish va cho'llanish muommosiga qarshi kurashish maqsadida ekiladi. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning

2019-yil 22-fevraldagi 4204-sonli qarorida ta'kidlanishicha, cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash bo'yicha ishlarni olib borish samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishni ta'minlash maqsadida: respublikada cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihota o'rmonlarini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi aytib o'tilgan.

Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash borasida ishlar ko'lamiga biz olib borayotgan tadqiqot ishlarimiz ham mos keladi.

Jing'il (Godji) (*Lycium barbarum* L.) - (*Solanaceae*) balandligi 1-2,5 m bo'lgan ko'p yillik bargli shoxli buta. Uning uzunligi 6-15 mm. uzunlikdagi ingichka, odatda yaproqsiz aksillar tizmalari bilan uzun, ingichka, osilgan, och sariq kurtaklar bor .

Barglari faqat o'sish kurtaklarida, yakka, qolganlari to'plamlarda, qisqartirilgan, o'simtalar ko'rinishida. Yuqoridagi, barglari yashil, quyida bir oz etdor, ingichka tor lansetsimon, elliptik-nayzasimon yoki tor elliptik, o'tkir, o'tkir yoki uchli cho'qqisi va tor xanjar shaklidagi poydevor bilan qoplanadi. Uzunligi 2-3 sm va kengligi 2,5-8 mm, ma'daniy o'simliklarda uning uzunligi 6 sm va kengligi 3 sm ga yetadi va odatda lansetsimon shaklga ega. Qisqartirilgan kurtaklardagi gullar 2-6 dona, barglar qo'ltig'idan 1-2 sm cho'zilgan. Gultojining uzunligi 4-5 mm, qo'ng'iroq shaklida, odatda o'rtasiga va chuqurroq qismiga teng bo'lmagan 2-3 dona bo'laklarga bo'linadi, kam hollarda 4-5 tishli, tishlarning qirralari odatda silliq, faqat uchi 11-15 mm uzunlikda. Gultoji besh qismli, och pushti yoki binafsha pushti rangda, quyuqroq tomirlar va loblarning asoslari mavjud. Gultoj paylari tuxumsimon, pastki qismida tez poydevorga torayib, ko'pincha naychanning o'rtasiga va poydevordan yoki 1-1,25 mm gacha biroz balandroq tutashgan, aylana shaklida uzun tuklar bilan o'ralgan .

Mevasi qizil, cho'zinchoq-oval yoki keng umurtqali, cho'zinchoq yoki o'tkir, uzunligi 8-18 mm, kengligi 5-10 mm. Iyun oyidan sentyabr oyigacha gullaydi. Mevalari iyul-oktyabr oylarida pishadi. Jing'ilning tabiiy yashash muhiti Markaziy Xitoy hududlari bilan cheklangan. Markaziy Rossiyada u asosan qora tuproq zonasida yovvoyi o'sadi. Butalar boshqa hududlarda ham uchraydi .

Jing‘il kimyoviy tarkibi boshqa o‘simliklardan tubdan farq qiladi. Uning mevasi tarkibida 18 xil aminokislota mavjud bo‘lib ularning 8 tasi almashinib bo‘lmaydigan aminokislotalar hisoblanadi. C vitamini jing‘il mevasida apelsindagiga qaraganda 500 marta ko‘proq uchraydi. Mevasi tarkibida 20 xil mineral (kalsiy, magniy, rux, natriy, temir, mis, germaniy, selen va boshqalar) mavjud. Polisaxaridlar, yog‘ kislotalar (omega 3,6), karotinoidlar, flavonoidlar va boshqa biologik faol moddalar saqlaydi.

Patologik jarayonlar va fiziologik anormalliklari bo‘lgan bemorlarga godji rezavorlaridan foydalanish tavsiya etiladi, chunki “mo‘jizaviy berry”da mavjud bo‘lgan ozuqaviy moddalar juda yuqori. Tabiiy dorixonadan olinadigan dorining asosiy shifobaxsh ta’siri tarkibida aminokislotalarning butun spektri mavjud bo‘lib, ularning aksariyati inson tanasining zaxiralari va shuningdek, yigirmadan ortiq minerallar yordamida to‘ldirilmaydi va faqat godji mevalarida bo‘lgan mikroelementlar va polisaxaridlar guruhi.

**Tajriba natijasi.** Hozirgi paytda jing‘il O‘zbekistonning turli muhit sharoitlarida dorivor o‘simlik sifatida o‘stirilmog‘da. Jumladan, Termiz shahri sharoitida ham yaxshi o‘shish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, chiroyli gul hosil qiladi. Dorivorlik xususiyatidan tashqari, tuproq erroziyasini oldini olish maqsadida ham ekib o‘stiriladi. U nihoyatda shifobaxsh va manzarali bo‘lganligi uchun qishloq xo‘jaligida keng o‘stiriladi.

Termiz shahri sharoitida jing‘ilni ilmiy-amaliy jihatdan urug‘larining unishi, nihollarining o‘shishi va rivojlanishi yetarlicha o‘rganilmagan. Kuzatish tadqiqotlari Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti tajriba maydonida olib borildi. Mart oyida ekilgan 6 tup 2-3 yoshli o‘simliklarning novdasi o‘shish ko‘rsatkichlari kuzatildi. Termiz sharoitida jing‘ilning vegetatsiyasi aprel oyining birinchi o‘n kunligida boshlandi. Poyaning jadal o‘shishi aprel oyining ikkinchi o‘n kunligidan (20.04.2022) boshlanib, iyun oyining boshida esa (06.06.2022) 90, 72, 107 va 76 sm ga yetganligi kuzatildi. Bundan tashqari laboratoriya sharoitida jing‘il mevasi tarkibidagi urug‘lar soni aniqlandi.

Urug‘larning unib chiqish energiyasi 70 ekanligi tajribalarda aniqlandi.

**Sutkalik gullash dinamikasi.** Introdusentlarning yangi sharoitda gullashi va urug' hosil qilishi adaptatsiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. O'simliklarning ekologik omillarga bo'lgan talabi yangi sharoitga mos tushgandagina bu o'simlik gullaydi, urug' hosil qiladi va pirovardida avlod qoldiradi. Bu esa juda ko'plab o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Iqlimlashtirilgan o'simliklarning gullash biologiyasi ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Solanaceae oilasi vakillarida gullar ochilishi ketma-ketligining umumiy tartibi markazdan qochuvchi bo'ladi. Tadqiqotlarda gul kurtaklar may oyining uchinchi o'n kunligidada bo'rta boshladi va iyun oyining boshida ochilishi kuzatildi. Gul ochilgandan keyin urug'chi tumshuqchasi changlanishga 6-7 soatdan keyin tayyor bo'ladi va 1-2 kun davomida o'z hayotchanligini saqlab turadi. O'simliklarning gullash davri uning kelib chiqishiga, biologik xususiyatiga, bahor mavsumining erta yoki kech kelishiga bog'liq bo'lib, gullash davomiyligi o'simlik o'sayotgan hududning ob-havo sharoitiga va agrotexnik tadbirlarga bog'liq.

Surxondaryo sharoitida 2022-yil iyun oyida gulining ochilish vaqtini aniqlash maqsadida o'rama bargi tashqi qobig'ining yorila boshlaganidan va to'pgul ichida ochilmagan gulning uchki qismi ko'rinib turganidan belgilab olindi.

Tadqiqotlar *Lycium barbarum*ning bitta guli 2-3 kun, generativ novda va o'simlikda 50-55 kun davomida gullab turishini ko'rsatdi. Sutkalik gullash dinamikasi o'rganish uchun har bir tupdagi ochilgan gullar soni hisoblandi. *Lycium barbarum* gullari faqat kunduzi ochildi. Kunduzi havo haroratining ko'tarilishi va havo nisbiy namligining pasayishi bilan ochilayotgan gullar soni ko'payib bordi. Gullarning ochilishi soat 9:00 dan 18:00 gacha davom etishi qayd etildi. *Lycium barbarum* tupida yalpi gullash davrida savatda o'rtacha 16 dona gullar ochildi. Barcha kuzatishlarimizda soat 10:00 dan 14:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida ko'p miqdorda gullarning ochilishi, gullash cho'qqisi esa soat 12:00 lar atrofida bo'lishi aniqlandi. Bu vaqtda havo harorati 26-27 C° havo nisbiy namligi 10-14% ni tashkil etdi. Ayni shu paytda asalari, yovvoyi arilar va har xil turdagi kapalaklarning o'simlikning gullariga qo'nishi, kelib ketishi faol bo'ldi. Havo haroratining pasayishi va havo nisbiy namligining ko'tarilishi bilan



ochilayotgan gullarning soni kamayib bordi. Bu jarayon sutkaning soat 7:00 dan 9:00 gacha va 17:00 dan 18:00 gacha bo'lgan vaqt oraliqlarida kuzatildi. Quyosh botishi bilan gullar ochilishi ham to'xtadi. Surxondaryo viloyati sharoitida, kun uzunligining qisqa bo'lish vaqtida, ya'ni bahor va kuz faslida sutkalik havo haroratining ko'tarilishi (19-22 C°), havo nisbiy namligining kamayishi (60-65%) gullar ochilishining ko'payishiga ta'sir etdi. *Lycium barbarum* L. uchun kunduzi gullash tipi xarakterli (soat 7:00 dan 18:00 gacha), soat 12:00 dan 14:00 gacha bo'lgan vaqt davomida HH +26-+27C° va HNN 10-14% da maksimum bo'ladi. Soat 18:00 lar atrofida HH +21-+25 C° va HNN 20-22% da gullash yakunlandi. Surxondaryo viloyati sharoitida o'simlikning asosiy gullari iyun oyida ochiladi. O'simlik uchun anemoxoriya tipi xususiyat hisoblanadi. *Lycium barbarum* L.ning introduksiyasining muvaffaqiyatini tahlil qilish va baholash uchun B.To'xtayev tomonidan taklif etilgan sho'rlangan tuproqlarda o'simliklarni introduksion baholashning shkalasi bo'yicha ko'rsatmani hisobga olgan holda Surxondaryo viloyati sharoitiga xos bo'lgan introduksion baholash ishlab chiqildi hamda ushbu shkala bo'yicha ushbu tur yuqori haroratga munosabatiga ko'ra, o'rtacha chidamli, sug'orishga bo'lgan talabi - o'rtacha, past haroratga munosabati - chidamli, vegetativ ko'payishi - kuchsiz, tabiiy ekilishi - o'rtacha, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi - kuchsiz zararlanadi. Shunday qilib, *Lycium barbarum* L. o'simligi introduksion sharoitda 70 ball to'pladi va istiqbolli tur deb hisoblandi [4].

Mahalliy va dunyo bozorida raqobatbardosh dori preparatlarini hamda tabiiy bo'yoqlarni o'simlik xom-ashyolari asosida ishlab chiqishni tashkillashtirish borasida bir qator muhim amaliy natijalarga erishilmoqda. Bo'yoqdor ro'yan (*Rubia tinctorum* L.) o'simligi turlarining biologiyasini o'rganish va mahalliy xom ashyolardan tabiiy bo'yoq va dori preparatlarini ajratib import o'rnini bosuvchi arzon va sifatli maxsulot tayyorlash, dastlabki hom ashyo bazalarini yaratish ishlari muhim ahamiyatga ega. Bunday mahsulotlarni *Rubia tinctorum* L. dorivor o'simligidan ajratib, tibbiy amaliyotda va xalq xo'jaligida foydalanish mumkin. Bo'yoqdor ro'yan (*Rubia tinctorum* L.) o'simligi ro'yandoshlar- Rubiaceae oilasiga kiradi. Ro'yan o'simligi



O'rta yer dengizi mamlakatlari Ukraina, Moldova, Rossiyaning Evropa qismining janubiy-sharqida, Kavkazda, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Dog'istonda va O'rta Osiyoda uchraydi. O'zbekistonda Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida asosan ariq yoqalarida, butalar orasida, kanallar bo'yida, dalalarda va bog'larda begona o't sifatida o'sadi [1-4]. Bo'yoqdor ro'yanning Orta Osiyoda 6 turi uchraydi. *Rubia tinctorum* L. o'simligi ko'p yillik o't o'simlik bo'lib bo'yi 30-150, ba'zan 200 sm gacha bo'ladi. Ildizpoyasi uzun, sudralib o'suvchi, shoxlangan, silindrsimon, yo'g'on, bo'g'inli, ko'p boshli. Poyasi bir nechta, to'rt qirrali, bo'g'inli, sershox va ilmoqli dag'al tuklar bilan qoplangan. Bargi lentasimon tuxumsimon, uchlari o'tkirlashgan yaltiroq, pastki tomonidagi yug'on tomirlari ilmoqli dag'al tuklar bilan qoplangan, juda ham qisqa bandi bilan poyada 4-6 tadan to'p-to'p bo'lib joylashgan. Gullari mayda, yashil-sariq rangli, barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan yarim soyabonga to'planib, tuvaksimon gulto'plamini tashkil etadi. Gulkosachasi aniq bilinmaydi, tojbarglari 5 ta, birlashgan, voronkasimon-g'ildiraksimon, otaligi 5 ta, onalik tuguni 2 xonali, pastga joylashgan. Mevasi 1-2 urug'li, sharsimon, oldin qizil, keyinchalik qora rangga aylanuvchi sershira rezavor meva. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi. *Rubia tinctorum* o'simligini ildizi kimyoviy tarkibida uglevodlar, fenolkarbon kislotalar va ularning hosilalari kumarin, antraxinon, triterpenoidlar, flavonoidlar (kversiten, kempferol, apigenin) ham uchraydi. *Rubia tinctorum* o'simligi tibbiyotda spazmalitik va siydik haydash hamda buyrak toshlarini (fosfatlarni) yumshatish ta'siriga ega. Shuning uchun dorivor preparatlari siydik yo'llari toshi, buyrak toshi hamda o't pufagi toshi va podagra kasalliklarida qo'llaniladi. *Rubia tinctorum* L. o'simligi Surxondaryo viloyatining Termiz tumani, Sherobod, Boysun tumalarida o'rganildi va tog', tog'oli hududlaridagi o'simliklarda ildizi, poyasi, barglari o'zlashtirilgan tuproqli bog'lar, dalalar, ariq bo'ylaridagi o'simliklarga nisbatan yaxshi rivojlanganligi, gullashi va mevasining pishib etilishi havo harorati past bo'lganligi sababli havo harorati yuqori hududdagi o'simliklarda 14-20 kunga kechikishi aniqlandi. *Rubia tinctorum* L. o'simligi tajriba maydonlarida ekilganda moslashish xususiyati yuqoriligi, tabiiy o'sib turgan

o'simliklardan gullash va meva hosil qilish jarayoni 3-4 haftaga kechikishi aniqlandi [2].

Yana bir ahamiyatga molik o'simliklardan hisoblangan soxta akatsiya ham introduksiya qilinayotgan o'simliklar qatorida bor va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oq akatsiya (*Robinia pseudoacacia* L) 30 m balandlikdagi bargli daraxt, diametri 30-40 sm, shoxlanishi shaffof, yoyilgan, ochilgan toj bilan, alohida qatlamlardan iborat. Po'stlog'i quyuc kurlang, uzun bo'ylama yoriqlari, yoshligida kulrang-jigarrang. Yalang'och, yashil-kulrang yoki qizil-jigarrang rangli tikanli. Barglari navbatma-navbat, 7-19 barglari elliptik shaklga ega. Bahorda ular yashil, ipak-tukli, yozda ular quyuc yashil, ba'zan sarg'ish, pastki qismi yaltiroq, tekis. Gullar oq yoki ozgina pushti, xushbo'y, 20 sm gacha cho'zilgan. Meva 5-12 sm uzunlikdagi jigarrang, tekis, chiziqsimon cho'zinchoq po'stloqli. Oq akatsiya yosh nihollari past haroratga sezgir. Yoshi katta bo'lishi bilan ularning sovuqqa chidamliligi oshadi, lekin ba'zida past haroratlarda o'simliklar zararlanishi mumkin. Ildiz va ildiz bo'yni saqlanib qolganda, regeneratsiya yuqori bo'lganligi sababli o'simliklar tezda tiklanadi. U tez o'sadi, ayniqsa birinchi o'n yillikda. U tuproq unumdorligi va namligiga unchalik talabchan emas, lekin nam va og'ir tuproqlarda u ko'pincha sovuqdan zararlanadi. Tuproqqa talabchan emas, qurg'oqchilikka chidamli. Oq akatsiya keng va uzoq tarvaqaylab ketgan ildiz tizimiga ega, shamolga, gaz va tutunga chidamli turlardan biridir. Ushbu oilaning boshqa vakillari singari, ildiz tugunlari atmosferadagi azotni o'zlashtiradi va shu bilan tuproqni boyitadigan bakteriyalar, akatsiyalarning ildizlarida rivojlanadi. 300 yilgacha yashaydi. Oq akatsiya - Shimoliy Amerikadan tarqalgan, mo'tadil iqlimi bo'lgan sayyoramizning ko'plab mintaqalarida iqlimlashtirilgan. U juda tez o'sadi, ayniqsa 10 yoshgacha. Robiniyalarning barcha turlari manzarali daraxtlar sifatida yetishtiriladi va faqat oq akatsiya o'rmon va meliorativ maqsadlarda ishlatiladi. Odatda ular qaynoq suvda urug'larni ivitib keyin ularni to'liq shishguncha 12 soat davomida suvda qoldiriladi va bahorda ekish orqali ko'paytiriladi. Oq akatsiya uchun deyarli har qanday yer mos keladi, kuchli sug'orish kerak emas. Ular tayyorlangan joylarga 2 sm chuqurlikda, odatda qatorlarda sepiladi - urug'lar orasidagi

masofa 1-2 sm, qator oralig'i 20 sm gacha. Ko'chatlar odatda maksimal bir oy ichida unib chiqadi va mavsum oxiriga kelib ko'chatlar 10-30 sm balandlikka yetadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra ,o'simlik ko'chatlari mavsum oxiriga kelib,10-15sm o'sganligi kuzatildi. Kelgusi yil bahorda yoki kech kuzda doimiy joyga ekish kerak, agar haddan tashqari yaqin ekilsa, ildizlar bir-biriga bog'lanib, o'simlikni ko'chirib o'tkazish qiyin bo'ladi. Tadqiqotlarimizda ko'chatni doimiy joyga o'tkazish amalga oshirilmadi, chunki hali ko'chatlar juda nozik va joyi o'zgartirilsa nobud bo'lish ehtimoli kata. Oq akatsiya may oyining oxirlarida - iyun oyining boshlarida juda chiroyli bo'lib gullaydi. Meva fasol, cho'zilgan, uzunligi 6 sm gacha, tekis, to'q jigarrang rangga ega. Ularning har birida oltidan sakkiztagacha urug'lar bo'ladi. Sentabr oyining oxiriga kelib pishadi. Akatsiya daraxti qimmatlidir, yoqilg'i sifatida, kema qurilishida, eshiklar, parket ishlab chiqarishda ishlatiladi. Daraxt har qanday tuproqda, hatto unumdorligi past bo'lgan tuproqda ham yaxshi o'sadi. U shamol va qurg'oqchilikka chidamli. Ammo yer osti sizot suvlari yaqin joylarni xushlamaydi. Shu xususiyatlarni hisobga olib, Termiz shahar sharoiti introduksiya uchun mos kelishi aniqlandi.

Soxta akatsiya tez o'sadigan daraxtlarga tegishli bo'lib, agar to'g'ri ekish va to'g'ri parvarish qilish amalga oshirilgan bo'lsa, unda qulay o'sish sharoitida u yillik o'sishni 60-80 sm (dastlabki yillarda 1,2 m gacha) balandlikda va kengligi 20-30 sm. Gullashi uch, to'rt yoshdan boshlanadi. Termiz shahar sharoitida ushbu o'simlik aprel oyi oxirida gullashi kuzatiladi, yillik o'sishi esa 45-50 smni tashkil etdi.

Robiniya bir qator foydali xususiyatlarga ega. Asosiy afzalliklaridan biri, mazali va qimmatbaho asal uning nektaridan olinadi. Akatsiyaning asal unumdorligi, turli manbalarga ko'ra, gektariga 1000 kg gacha, bu juda yuqori ko'rsatkichlarga teng.

Akatsiya asali qimmatli hisoblanadi, chunki u xushbo'y va parhezboqdir. Uning asali shirin va shaffof rangga ega, uzoq vaqt davomida ta'mi o'zgarmaydi va nordon bo'lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)**

1. Axmedov E.T., Berdiyev E.T. *Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2017. 4-6 b.*
2. Begmatov A.M, Mirzaeva X.Y, *Biology of rubia tinctorum (rubia tinctorum L) distributed in Surkhandarya region and its use in medicine. American Journal of Pedagogical and Educational Research ISSN (E): 2832-9791| Volume 7, | Dec., 2022.108-111 p.*
3. Nasriddinova M.R. *Qarshi vohasida Lamiaceae Lindl. oilasiga mansub dorivor o‘simliklarning introduksiyasi. Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi 2022.4-5b.*
4. Begmatov A.M., Fayzullayeva D.B, *Jing‘il (Lycium barbarum L.) ning o‘shish xususiyatlari. “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Termiz, 2022-yil 11-12 oktabr, 24-27 b.*

## XOTIRA VA UNING XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Teacher: **Akhadova Malohat**

Country: Uzbekistan

Region: Navoi, Uchkuduk school: N18

### ANOTATSIYA

*Ushbu maqolada Inson xotirasi va uning inson hayotidagi asosiy ahamiyati va jamiyatdagi faoliyatida tutgan o'rni haqida asosiy ma'lumotlar berilgan. Xotiraning har xil turlarining asosiy mezonlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Chet tillarni o'rganishda xotiraning o'rni va asosiy xususiyatlari, hamda o'rganuvchilarning til o'rganish bo'yicha 4xil guruhga ajratilganligi tushuntirib berilgan.*

***kalit so'zlar*** : Xotira, individ, psexik aktivlik, operativ xotira, shaxs motivlari.

Yangi bilimlarni egallash va ularni amaliyotda bemalol ishlatish uchun bizda birinchi o'rinda xotira yuqori o'rin egallaydi. Yanada aniqroq aytganda xotira insonning hayot faoliyatida keng miqyosda qo'llaniladi ba u insonning o'tmishda olgan bilimlarini esga solishda yagona ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish kishidan chuqur sabr va yuksak xotirani talab etadi. Bu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligini isbotlash maqsadida sizga avvalambor xotira, uning ishlash jarayoni va uning turlari haqida bir qancha foydali ma'lumotlarni berib o'tamiz.

Individning o'z hayotiy tajribasini esida olib qolishi , esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushurish va unutish. Bu jarayonlar bir-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Ular bir umumiy bir jarayonning tomonlarini tashkil qiladilar. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivijlanishi kishining faoliyati bilan bog'liq. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liq. Ma'lum materialni

esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoki faoliyatdan tushib qolishi uni esdan chqarib qo'yishga olib keladi.

Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohasida qatnashishi tufayli uning nomoyon bo'lish shakllari ham har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bo'linadi.

1. Ko'proq faoliyatda ko'rinadigan puxlik aktivlik xarakteriga ko'ra xotiraning harakat, emotsional (hissiy), obrazli va so'z-mantiqiy turlari farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bo'linadi.

3. Materialning qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ xotira turlariga bo'linadi.

Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham farqlanadi. Bular esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushurish (aktuallashtirish, qayta tiklash) esda saqlash va unitish jarayonlaridir. Esda olib qolish natijasida yangi materialni oldin o'zlashtirilganlari bilan bog'lash orqali mustahkamlanadi. Esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan boyitishning zaruriy shartidir. Esda olib qolish tanlovchanlik xarakteriga ega. Esda olib qolish quyidagilarga bog'liq:

- Inson faoliyatida aktiv qo'llagan, harakat qilgan narsalarni esda saqlaydi.

- Materialni esda saqlash shaxsning motivlari, maqsadlari va faoliyat usullari bilan belgilanadi.

Ixtiyorsiz esda olib qolishda material go'yoki „o'z-o'zidan“ esda saqlanib qoladi. Bu nimaga bog'liq? O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish quyidagi omillarga bog'liq:

- Material faoliyatning asosiy maqsadining mazmuniga kirsa yaxshi esda saqlaydi.

Agar material faoliyatni amalga oshirishning sharoitlariga, usullariga kirsa yaxshi esda saqlab qolinmaydi.

- Faol ravishda yangi materiallar ixtiyorsiz ravishda yaxshi esda qoladi.

Ko'pchilik yoshlar bugungi kunda yangi bilimlari egallash uchun dunyoning turli tillarini o'rganishmoqda. Bu jarayonni hosil qilishda xotira muhim asqotadigan jarayondir. Bu tilni mukammal egallash kishi xotirasiga bog'liq. O'rganuvchining so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa u shuncha til imkoniyatlaridan keng foydalana oladi.

Ta'lim tarbiya jarayonida xorijiy tilni o'rgatish uchun o'qituvchi o'quvchining umumiy va individual xususiyatlariga e'tibor berishi zarur. Asosan o'rganuvchilarning 4 xil guruhi farqlanadi. Ya'ni ko'rib, eshitib, tegib va harakat yoki ijro orqali o'rganuvchilar.

Ko'rib o'rganuvchilar yangi qoida yoki so'zni rasmlar, video materiallari orqali tezroq va samaraliroq o'rgana oladilar. Eshitib o'rganuvchilarda esa radio, audio materiallar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan diktantlar foydalidir. Qolganlari ushlab ko'rganda yoki harakat jarayonida yoki taqlid orqali tezroq o'rganishga moyil bo'ladi. Har bir o'rganuvchida o'ziga xos xotirada saqlash yo'li bor kimdir ko'rib yana kimdir esa eshitib yaxshiroq o'rganadi. Xotirada saqlash esa mana shu jarayonlar har bir o'rganuvchi tomonidan to'g'ri tanlanishi orqali mukammalroq o'rganiladi.

Agarda ko'rib o'rganuvchi faqat harakat yoki eshitish orqali yangi so'z o'rganmoqchi bo'lsa unga bu ta'sir etmasligi mumkin. Misol uchun o'qituvchi yangi *Hayvonlar* degan mavzuda dars o'tmoqchi bo'lsa va yangi hayvon nomlarini o'rgatishni niyat qilgan bo'lsa bir vaqtning o'zida uning surati, uning harakati va iloji bo'lsa hayvonot bog'iga olib borib jonli holatini ko'rsatgani maqul. Chunki har bir bola har xil o'rganish qobiliyatiga ega va tezroq esiga tushadi Ya'ni bola xotirasi so'zlarni uzoq vaqt saqlab qola oladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)***

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. *Professional Development for Uzbekistan English Teachers Training Toolkit Module 1 Toshkent-2009.*



## VAKSINA OLISH TEXNALOGIYASI VA UNING AHAMIYATI

**Shodiyeva Dildora G'iyosovna**

SamDTU mikrobiologiya, immunologiya  
va virusologiya kafedrası assistenti  
[dildoraannayeva786@gmail.com](mailto:dildoraannayeva786@gmail.com)

**Tohirova Jayrona Izzatullayevna**

SamDTU talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada vaksina olish texnologiyasi va ularning inson organizmi hamda tibbiyotdagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Vaksinaning turlari, inson organizmiga ijobiy va salbiy ta'siri haqida muhokama olib boriladi.*

***kalit so'zlar:** Vaksina, genetik muhandislik, tirik vaksina, korpuskulyar vaksina, anotoksin, vaksina immunologiyasi.*

### ABSTRACT

*Yuqumli kasalliklarni davolash va oldini olish maqsadida, o'tgan asrda vaksina, immun zardob, immunoglobulinlar kashf etilgan. Vaksenalarning kashf etilishi bir qancha muhim kasalliklarni deyarli yo'q qilishga olib keldi. Odam va hayvonlarni yuqumli kasalliklarga qarshi immunoprofilaktika va immunoterapiya maqsadida faol immunitet hosil qilish uchun ishlatiladigan moddalar vaksenalar deb ataladi.*

**Kirish:** XX asrning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri bu-o'limga olib keladigan bolalar kasalliklarini oldini olish uchun vaksenalarning kashf etilishidir. 1980-yillar atrofida yer yuzidagi barcha bolalarni emlash orqali chinchechak kasalligi butunlay tugatildi. Biroq hali ham odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) infektseyasi, sil va bezgak kabi kasalliklarni tugatish imkoni bo'lmayapdi. Bugungi kunda qo'llanilayotgan vaksenalarning aksariyatikkita klassikusuldan biri bilan ishlab chiqilgan. 19-asrda Salmon va Smit organizmni faolsizlantirish va immunogen komponentlarni inyektsiya qiliahni kashf etdi. Tirik organizmlarni faolligini susaytirish esa birinchi marta Lui Paster tomonidan amalga oshirildi. Dastlabki yillarda AQSH emlash uchun tavsiya etilgan barcha vaksenalar yuqoridagi usullar yordamida ishlab chiqarilgani ilimiy orqali bizga ma'lum. Biroq *gepatit B, rotavirus, va HPV* ga qarshi vaksenalar bundan mustasno.

**Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili:** Inson organizmining turli xil yuqumli kasalliklardan himoya qilish maqsadida vaksinalarga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Shu bois, vaksina ishlab chiqarish texnologiyasi ham tobora rivojlanmoqda. Bugungi kunda bizga mavjud bo'lgan, tibbiyotda keng qo'llaniladigan vaksina guruhlari quyidagilar:

- *Tirik vaksinalar*- mikroorganizmlarning virulent shtammlaridan tayyorlanadi:

- *Korpuskulyar yoki o'ldirilgan vaksinalar*- mikroblarni fizik-kimyoviy usullar bilan o'ldirib olinadi;

- *Anotoksin-ezotoksinlardan* tayyorlanadi;

- *Kimyoviy va sun'iy vaksinalar*;

- *Gen injeneriyasi usullari bilan tayyorlangan vaksinalar*.

Bu guruhlarning barchasi bir-biridan tarkibi va tayyorlanish texnologiyasi bilan farq qiladi.

1796-yilda ingliz olimi E. Jenner tirik vaksina olish texnologiyasini kashf etdi va undan odamlarni chinchechak qo'zg'atuvchisidan himoya qilish uchun foydalandi. Bundan tashqari *qizamiq, epidemic parotit, shol, kuydirgi, quturish, sil, tulyurameya* kasalliklariga qarshi olingan vaksinalar ham tirik vaksinalarga misol bo'la oladi. Tirik vaksina olish usuli quyidagicha patogen bakteriya va viruslarni noqulay sharoitda o'stirish. Noqulay sharoitlarga tushgan mikroorganizmda spontan mutatsiyalar boshlanadi. Populyatsiya ichidan avirulent turlar ajratib olinib, alohida ko'paytiriladi, lekin shu shtammlarning antigenlik va immunogenlik xossalarini saqlab qolish shart. Tirik vaksinalar organizmda kuchli immunotet hosil qilishda katta yordam beradi. Biroq vaksinani saqlash muddatining qisqaligi va immuntanqislik bor odam organizmida har xil asaroatlar berishi, tirik vaksinaning kamchiligi va mikrobiologiyaning muammolaridan biridir.

*Korpuskulyar vaksinalar* zaiflashgan yoki o'ldirilgan mikroblarni o'z ichiga oladi. Yuqori immunogen, ammo past virulently xususiyatga ega bo'lgan shtammlar tanlab olinib, fiziologik eritmada suspenziya tayyorlanadi va fizik yoki kimyoviy omillar yordamida o'ldirilib, undan vaksina tayyorlanadi.

*Kimyoviy vaksinalar* microbial hujayralardan olingan antigen tarkibiy qismlaridan yaratiladi. Bunda mikroorganizmning immunogen xususiyatlarini aniqlaydigan antigenlar ajratib olinadi. bu usul yordamida qorin tifiga qarshi vakcina ishlab chiqilgan.

*Rekombinant yoki gen injeneriyasi yo'li bilan olinadigan vaksinalar.* Bu yo'nalishda olinadigan vaksinalar 4-avlod bo'lib, oxirgi 10-15 yil ichida rivojlana boshladi, bunda biotexnologiya va mikrobiologiya fani erishgan muvaffaqiyatlarning ahamiyati katta bo'ladi. To'rtinchi avlod vaksinalarini olishda quyidagilarga amal qilinadi: patogen mikroorganizmlarning protektiv xossalariga javob beradigan antigeni aniqlanadi, so'ngra bu antigeni sintez qiluvchi gen ajratib olinib, odam normal mikroflorasi tarkibiga kiradigan bakteriya genomiga biriktiriladi. Mikroorganizm ko'payishi jarayonida, kiritilgan genning biomolekulalari ham sintez qilinadi, so'ng bu omillar alohida ajratib olinib, boshqa oqsillardan tozalanadi va vakcina sifatida ishlatiladi. Bugungi kunda achitqi zamburug'I genomiga kiritib, olingan gepatit B ga qarshi recombinant vakcina dunyoda keng qo'llanilmoqda.

Anatoksinlar R.Garmon taklif qilgan usul bilan tayyorlanmoqda. Bunda kasallik patogenizida ekzotoksinlari asosiy ahamiyatga ega mikroblar ko'paytirilib, ulardan ekzotoksinlar sof holda ajratib olinadi, bu ekzotoksinlarga 0,3-0,4% li formalin qo'shib, 38C termostatda 30 kun saqlanadi. Natijada toksinning zaharlilik xususiyati yo'qoladi, ammo antigenlik va immunogenlik xossalari saqlanib qoladi. Anatoksinlar, oziq muhit tarkibidagi oqsillardan tozalanadi va "depo" hosil qiluvchi moddalarga adsorbsiya qilinadi. Immunoprofilaktikada bo'g'ma, qoqshol, stafilokokk, va vabo anatoksinlari keng qo'llanilmoqda.

**Metodologiya** Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda turli xil yozma va elektron manbalardan keng foydalanildi. Bundan tashqari tadqiqotning amaliy qismida, biotexnologik, mikrobiologik, va statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Va shuni aytishimiz mumkinki, kelajakda vakcina ishlab chiqarilishi genetik muhandislikning qandaydir shakllarini o'z ichiga oladi. Plazmidga asoslangan usullardan foydalanish reassortant vaksinalar (ya'ni bir nechta organizm yoki shtamm

genlarini birlashtirish natijasida yaratilgan viruslardan vaksinalar) ishlab chiqarishni tezlashtirish imkoniyatiga ega.

**Natija muhokama** Vaksinalar uchun yangi texnologiya bilan birgalikda yordamchi moddalar ham kerak. Meniral tuzlarning dastlabki litsenziyalanishidan beri AQSh da yangi yordamchi moddalar tasdiqlanmagan bo'lsa-da, bir nechta birikmalarni tasdiqlanishga yaqin. Biroq, biz aniq vaksinalar uchun immunitetning korrelyatsiyasini yaxshiroq aniqlashimiz kerak. Neytrallash uchun zarur bo'lgan chegara turli organizmlar orasida farq qiladi, ushbu parametrlarni va boshqa tegishli choralarni bilish madsadga muvofiq va ba'zan zarur. Vaksina texnologiyasining yutuqlari vaksina immunologiyasi yutuqlarini talab qiladi.

**Xulosa:** Faqatgina o'limni kamaytirishda bolalik davridagi vaksinalarning foydasi shubhasizdir. Biroq, kasallanish darajasini pasaytirishga yoki saraton kabi kasalliklarning oldini olishga qaratilgan yangi avlod vaksinalari hali hamon tibbiyot va biotexnologiya muammosi bo'lib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)**

1. Annayeva, D. (2022). *CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL*. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. *извлечено от* <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

2. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLIISH*. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-972. <https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

3. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). *XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI*. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>

4. G'iyosovna, S. D. (2023). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF*

*KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>*

5. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120.

6. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256.

7. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324.

8. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI VA MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 726-732. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/3359/3220>

9. Юсупов, М. И., Шайкулов, Х. Ш., Жамалова, Ф. А., & Очилов, У. У. (2021). Иммуный статус детей с коли инфекцией, вызванной гемолитическими эшерихиями до и послелечения бифидумбактерином и колибактерином. *Биомедицина ва амалиёт. Самарқанд*, 6, 272-27

10. Хужакулов, Д. А., Юсупов, М. И., Шайкулов, Х. Ш., & Болтаев, К. С. (2019). Состояние внешнего дыхания у больных детей со среднетяжелым течением пищевого ботулизма. *Вопросы науки и образования*, (28 (77)), 79-86.

11. Нарзиев, Д., & Шайкулов, Х. (2023). Чувствительность к антибиотикам *salmonella typhimurium*, находящихся в составе биопленок. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 60-64.

12. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54-61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

13. Хусанов, Э. У. (2022). Расулова Мухсина Розиковна, Шайкулов Хамза Шодиевич Особенности повреждений подъязычно-гортанного комплекса при тупой механической травме.

## MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

**Arazdurdiyeva Annasoltan Narbayevna**

Student of the Faculty of Foreign Languages of the  
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

### ANNOTATION

*In this article we will briefly focus on the advantages of maximum use of modern technologies during the lesson. Learning a Modern Foreign Language supports an understanding of living in a multi-cultural society, provides an opening to other cultures and fosters curiosity about the wider world. The benefits of using educational technology also include the improvement of learners' mental and physical health. By using these tools, students are able to enhance their learning and their cognitive skills, which in turn helps them improve their academic performance as well as their physical health.*

**Key words.** *Modern technologies, teaching process, learning skills, interactive whiteboards, practice, success, traditional learning*

The last years increasingly raised the issue of using modern technologies in the educational process. It is not only new technical means, but also a new forms and methods of teaching, new approach to learning. The main goal that we set for ourselves, using modern technologies in learning a foreign language it's to show how technology can be effectively used to improve the quality of teaching foreign language students, the formation and development of their communicative culture, learning the practical mastery of a foreign language.

This paper aims to highlight the role of using modern technology in teaching English as a second language. It discusses different approaches and techniques which can assist English language students to improve their learning skills by using technology. The rapidly advancing age of technology has made it possible to overcome many different challenges in our world today. But the benefits and versatility of



technology are not as evident as it is with learning English. This is why more advocates support the integration of technology into education. The positive influence of technology when learning English is valuable and can maximize the overall experience. As technology becomes a major part in today's world, students can have more freedom and support to fully absorb the material. More students are choosing to learn English online because of the increased efficiency with lower costs. Technology and learning English go hand in hand and here are some reasons why more prefer online lessons. The biggest reason for incorporating technology into education is the overall changes in global communication. What was once inaccessible can now be easily reached by way of the internet. Technology opens doors to many more opportunities by linking the world together. The olden days of limited options for education are long gone and all thanks to technological advances. Students will not only have flexibility with online schooling but also have access to more resources.

Virtual Community of Learners; A pivotal aspect of learning English is to how to communicate with others in a social setting. Though it may seem impossible with online learning, the fact is exactly the opposite. Students now have a virtual community of learners to discuss topics with, seek advice, or gain leadership skills by helping others. Interactive whiteboards for instance, are a simple but invaluable way for English learners to access helpful resources or lessons. Instructors may include previous topics that are extremely important to progress to the next level. In addition, interactive whiteboards help a great deal to support an online education and are a perfect example of how to incorporate technology and learning English.

Another benefit of mixing technology and learning English is the possibility of heightening interest. A traditional classroom setting is often not conducive to learning because the rote strategies do not challenge or interest students. But technology has completely changed the game and makes it easier for English learners to focus because the content can be presented in a number of ways. Lessons that include computer-based instruction, visual aids, and technologically advanced materials help students achieve more in less time.



## Conclusion

In conclusion, technology is certainly not beneficial only for education of because just about everything has become more accessible nowadays. But especially for learning English, having technical assistance and more flexibility Is the key to success. Traditional learning in a classroom is extremely limited and can only be ongoing as long as students are present. However, technology and learning English has allowed students to use mobile phones or computers for example, to access require information anytime they need. This not only helps students to absorb the material but also offers valuable practice on the proper ways to use tools of technology. Computers are regarded as an important instructional instrument in language classes in which teachers have convenient access, are sufficiently prepared and have some freedom in the curriculum. Computer technology is regarded by a lot of teachers to be a significant part of providing a high - quality education. Teachers should encourage learners to find appropriate activities through using computer technology in order to be successful in language learning. The use of suitable technological materials can be useful for all types of learners.

## REFERENCES

1. Artykbayeva, E.V. (2014). *Theory and Technology of E-Learning in Secondary School. Synopsis of a Thesis, Almaty.*
2. Bruce, B., & Levin, J. (2001). *Roles for new technologies in language arts: Inquiry, communication, construction, and expression. In J. Jenson, J. Flood, D. Lapp, & J. Squire (Eds.), The handbook for resea*
3. Jonassen, H. *Constructing learning environments on the web: Engaging pupils in meaningful learning.* EdTech 99: Educational Technology Conference and Exhibition 1999: Thinking Schools, Learning Nation.1999.
4. Rodrieguez, R.J. & White, R.N. (2003) *From role play to the real world.* Rowley, MA: Newbury House Publishers, Horner & McGinley, 2000.
5. [www.scholink.org/ojs/index.php/fet](http://www.scholink.org/ojs/index.php/fet)

## TOSH KASALLIKLARINING KIMYOVIY ASOSLARI

**X.Y.Nazarova**

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti  
Tibbiy va Biologik kimyo kafedrası asistenti

**Samiyeva Sarvinoz**

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti  
Davolash ishi yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

### ANOTATSIYA

*Mazkur maqolada Tosh kasalliklari, ularning uchrash joylari, kelib chiqish sabablari, inson organizmiga ta'sir etish sabablari, ularni ko'p uchraydigan turlari, davolash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Buyrak tosh kassaligi, O‘t tosh kasalligi, Urodina, Oksalat, Fosfat, Kaliks Xolisterinli toshlar, Nefroltiaz*

**Kirish:** Inson organizmida toshlar erkin joylashadi. Ushbu toshlar asosida Ca va Na tuzlari yotadi. Toshlar faqatgina Buyrak va o‘t pufagidagina uchragina qolmasdan oshqozon osti bezi, so‘lak bezlarining chiqish yo‘llarida, bodomsimon bezlar, vena tomirlarning ichki qismida, ichaklarda, bronxlarda, tanglay chetlarida ham paydo bo‘lishi mumkin. Toshlarning hosil bo‘lishini inson tanasidagi ishqoriy muhit ta‘sir ko‘rsatadi va jarayonni tezlashtiradi. Buyrak va o‘t yo‘llarida tosh hosil bo‘lishini aniqlash uchun qon hamda peshob analizlarini maxsus laboratoriya tekshiruvlaridan o‘tkazish zarur. Agar qondagi Kalsiy(Ca) miqdori 2.5 mmol/ldan, Peshobda 0.015gr/100mldan, Kaliy(K)ning 0.15gr/100ml dan, Fosfat(PO<sub>4</sub>)ning 0.12gr/moldan oshib ketgani kuzatilsa organizmda tosh hosil bo‘lish jarayoni kechayotganidan darak beradi. Tosh kasalliklari ichida eng ko‘p uchraydigani Buyrak hamda o‘t yo‘llarida

hosil bo'luvchi toshlar hisoblanadi. Har qanday tosh kasalliklari organizmning ortiqcha suvsizlanishi oqibatida kelib chiqadi. Shuningdek ushbu kasalliklarning kelib chiqishida modalar almashinuvi va quruq ob-havo sharoitlari ham sabab boladi.

**Mavzuning dolzarbligi:** Buyrak tosh kasalligi (nefrotiaz)- buyrak va siydik yo'llarida tosh(konkrement) hosil bo'lishi bilan kechadigan kasallik. Katta yoshli insonlarda yani ko'proq erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq uchrashi aniqlangan. Buyrak toshning aynan buyrak jomchasi, kosachalari, siydik yo'lida va qovuqda hosil bo'lishi mumkin. Kasallik avj olishi bilan birgalikda surunkali kechadi. Kasallik sabablariga mineral moddalar almashinuvining buzilishi, vitaminlar yetishmovchiligi, buyrak yallig'lanishlari oqibatida kelib chiqadi. Oqsil qoldiqlarining atrofiga siydikda erimaydigan tuz kristallari yopishishi natijasida mikrolilarni hosil qiladi, ular esa yana yiriklashib toshlarni hosil qiladi. Kattalıkları bir necha mm dan 10 sm gacha bo'lishi mumkin. Kasallik nasliy moyillik natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Asosan oksalat, fosfat, sitrutiv (marjonsimon) toshlar va  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ,  $\text{MgNH}_4\text{PO}_4$ ,  $\text{CaCO}_3$  kabi tuzlar miqdorining oshishi bilan ham bog'liq. Kasallik bilan og'riqan bemorlarda og'riqli siydik ajralishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, siydikning xiralashuvi, siydik bilan qon ketishi(buning sababi toshlar qirradi siydik yo'llarini zararlaganligidan) bo'lishi mumkin. Agar ikkala buyrakda ham tosh bo'lsa oligouriya, gemoturiya, va anuriyaga olib kelishi bilan harakterlanadi. O't toshi kasalligi(Xolelitiaz)-o't qopi va o't yo'llarida hosil bo'ladi. Sabablari qonda xolesterinning miqdorini ko'payishi, moddalar almashinuvining buzilishi, ovqat hazm qilish a'zolari ishining buzilishi, o't chiqaruv yo'llarining rivojlanishidagi buzulishlar, ovqatlanish ratsionining izdan chiqishi va boshqa ko'plab sabablar oqibatida kelib chiqishi mumkin. Asosan bu kasallikda o'ng qovurg'alar aro o'griqlar, og'izning taxirlashishi, najasning rangsizlanishi kabi belgilarni kuzatamiz. Tekshirish uchun qonning biokimyoviy taxlili, xolesistografiya, UTT, MR va KT kabi laboratoriya tekshiruvlaridan o'tish lozim. Toshni maydalash uchun esa ultara tovush va elektomagnet nurlaridan foydalaniladi. Agar vaqtida davolanmasa: Perixolisistit-o't qopi yallig'lanishi, o't qopi yorilishi-peritonit va qorin bo'shlig'i absesiga sabab bo'ladi. Oldini olish uchun to'g'ri

ovqatlanish, oshqazon ichak kasalliklarini o‘z vaqtida davolash ko‘proq suyuqliklar iste‘mol qilish lozim.

**Xulosa:** Ushbu kasallik bo‘yicha quyidagi xulosalarni aytishimiz mumkin:

-Har qanday kasallik ovqatlanish ratsionida yuzaga keladigan o‘zgarish va muammolar oqibatida kelib chiqadi.

-Organizmimizga atrof muhitning va ob-havoning ham o‘z ta‘siri mavjud.

-Biz tosh kasalliklarini oldini olishimiz uchun kamroq tuz va tuzli mahsulotlar iste‘mol qilishimiz va ko‘proq suyuqlik ichishimiz zarur.

-Organizmimizni yaxlit sistema ekanligini unutmasligimiz va sog‘lom turmush tarziga amal qilishimiz zarur.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)***

1. *Tibbiyot ensiklopediyasi*

2. A.Ahmedov. G.Ziyamutddinova “Anatomiya Fiziologiya va Patalogiya” 2019- yil Toshkent

3. ”Buyrakda toshlar(Urolitiaz)- Sabablari,Alomatlari,Tashxislash va Davolash usullari” [HTTPS: /MYMEDIC.UZ/](https://MYMEDIC.UZ/)

4. [WWW.AVITSENN.A.UZ](http://WWW.AVITSENN.A.UZ)

5. Nozima Bobojonova. ”Buyrak tosh kasalligi:sabablari,belgilari va davolash

**BADIIY ASARLARDA KULGI MADANIYATI MASALASI****Xaitov Xamza Axmadovich**

Buxoro davlat Pedagogika institutituti

dotsenti, f.f.f.d(PhD)

**Murodova Go‘zalxon Zayniddin qizi**

Buxoro davlat Pedagogika institute I bosqich talabasi.

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotiga xalq maydon kulgi madaniyatining ta’siri ilmiy- nazariy tahlil qilingan.*

*kalit so‘zlar: Lof, latifa, askiya, estetik ta’sir, ma’naviy ozuqa, maydon tomoshalari, urf-odat, rasm-rusm, dramatik unsurlar, axloqiy fazilatlar, badiiy qimmat va hokazo.*

Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalq va elatlarni yaxlit sistema deb hisoblasak, bu makrosistema tarkibidagi alohida millatlar muayyan belgilari bilan, xususan, tili, adabiyoti, kelib chiqishi, moddiy va ma’naviy madaniyati, maishiy turmush tarzi va psixologiyasi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mana shu o‘ziga xos psixologiya, milliy urf-odatlar kulgi madaniyatining turlicha taraqqiyoti, tarixiy genezisi, tamoyillari va milliy adabiyotga badiiy estetik ta’sirini belgilab beradi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Gap madaniy qadriyatlar, ma’naviy me’ros haqida ketar ekan, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma’naviy merosni o‘rganish va asrab avaylashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarurligi oydinlashadi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotshunoslikda ham ,jumladan, askiya,lof, latifa

janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtai nazardan baholash zarurati yuzaga keladi.

Binobarin, zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari syujetida uchraydigan og'zaki qiziqchilik, masxarabozlik, xalq satirasi va yumori, askiya, lof, latifa kabi kulgiga asoslangan folklor janrlariga xos xususiyatlarning ta'sirini o'rganish tadqiqotning vazifasi hisoblanadi."Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqiyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy jarayonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish" tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Har bir inson ichki olami, tuyg'ular dunyosidagi ma'naviy quvvat orqali so'z qobig'idagi ma'no sarhadini yangilash va kengaytirishga harakat qiladi. Mana shu ma'naviy quvvat badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot musiqa san'atiga xos bo'lgan tovush va ohang imkoniyatlaridan ham, rassomlik san'atida qo'llanadigan rang va tasvir usullaridan ham, ilm-fan sohasidagi kuzatish, tanlash, baho berish, tahlil etish, xulosa chiqarish kabi prinsiplardan ham foydalanishi mumkin. Lekin xalqning yurak ohanglariga benihoya mos bo'lgan folklor adabiyoti ta'sirida yozilgan zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari lutfu nazokat beqiyosdir. Dvlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyatning bolalik qo'shig'idir". Atoqli adib Abdulla Qodiriy nasrda ijtimoiy kulgining turlari haqida gapirar ekan, uning yana bir uslubi- xarakter kulgisi ham mavjudligini ta'kidlagan edi. "Sizni nafratlantirgan masala yoki yaxshi o'z hayotidan, o'z xususiyatidan olib kulgi holiga qo'yishingiz kerak. Ya'ni siz bu kulgilikni yasagan bo'lib ko'ringan bo'lib ko'rinmang, balki o'zi yasalgan bo'lib ko'rinsin. O'z holini o'zi arz qilsin", -deb ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Uning bu so'zlari o'zbek adabiyotida kulgi tiplari, kulgili obrazlar yaratish bilan bog'liq. Chunki hajviyot, mutoyiba, kulgi ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan, undagi illatlar, salbiy voqea yoki faktlarni oddiy qayd etmaydi, balki uning mohiyatini ochib berishi shart. Bu hodisa badiiy adabiyotda hajvni umumlashtirish,

<sup>1</sup> Qodiriy A. "Yozuvchilarimizg'a". Kichik asarlar. Toshkent. G'afur G'ulom. 1969.b-187.

работ (для хранения и передачи размера единицы величины). Запрещается применять образцовое средство измерений в технологических целях на производстве. Это одно из важнейших требований метрологии.

При выборе средств измерений для решения конкретной технологической задачи необходимо обращать внимание не только на метрологические параметры прибора, но и на:

- наличие свидетельства об утверждении типа средства измерений (справки можно получить на сайте ВНИИМС <[www.vniims.ru](http://www.vniims.ru)> в разделе „ГОСРЕЕСТР“);

- наличие знака утверждения типа средства измерений;

- всю сопровождающую нормативную документацию (паспорт, инструкцию пользователя и т.п.), должны быть представлены;

- наличие утвержденной методики поверки;

- наличие действующего свидетельства или знака первичной или периодической поверок. Особое место уделяется требованиям к эталонам единиц величин. Предусматриваются три вида эталонов.

1. *Государственный первичный эталон* предназначен для воспроизведения, хранения и передачи единицы величины с наивысшей точностью, он применяется в качестве исходного эталона.

2. *Государственный эталон* находится в федеральной собственности и служит для передачи размера единицы величины от государственного первичного эталона единицы величины к эталонам, образцовым и рабочим средствам измерений. Государственные эталоны единиц величин образуют эталонную базу.

3. *Эталон* единицы величины предназначен для воспроизведения, хранения и передачи единицы величины. Эталон может применяться также вне области государственного регулирования.

Каждый эталон единицы величины должен быть утвержден, разрабатывается порядок установления обязательных требований к нему и к его

порядку хранения и применения. Каждый эталон должен быть зарегистрирован, после чего ему присваивается персональный номер. Для подтверждения метрологических характеристик эталонов они *сличаются* между собой. *Сличение* эталонов единиц величин — совокупность операций, устанавливающих соотношение между единицами величин, воспроизводимых эталонами одного уровня точности в одинаковых условиях.

Необходимо отметить, что образцовые средства измерений также предназначены для передачи размера единиц величин. Для подтверждения их метрологических характеристик они могут быть просто проверены, могут применяться только эталоны, обладающие свойством *прослеживаемости*.

*Прослеживаемости*: свойство эталона единицы величины или средства измерений, заключающееся в документально подтвержденном установлении их связи с государственным первичным эталоном соответствующей единицы величины посредством сличения эталонов единиц величин, поверки, калибровки средств измерений.

Все измерения, осуществляемые с помощью указанных выше технических устройств, должны выполняться по аттестованным методикам (методам) измерений. Исключение составляют прямые измерения. При всех видах измерений должны применяться только средства измерений утвержденного типа, прошедшие поверку и имеющие действующее свидетельство поверки или знак поверки. Результаты измерений должны быть выражены в единицах величин, допущенных к применению.

Методики (методы) измерений, предназначенные для выполнения прямых измерений, должны быть внесены в эксплуатационную документацию на средства измерений. Подтверждение соответствия методик (методов) измерений обязательным метрологическим требованиям к измерениям осуществляется путем их аттестации. Сведения об аттестованных методиках (методах) измерений передаются в информационный фонд по обеспечению единства измерений. Органы исполнительной власти определяют измерения, относящиеся

к сфере государственного регулирования обеспечения единства измерений, и устанавливаются к ним обязательные метрологические требования, в том числе показатели точности измерений. Желательно, чтобы производилась оценка неопределенности результатов измерений [4,6].

### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

1. ГОСТ Р 8.000-2000. Государственная система обеспечения единства измерений. Основные положения.
2. РМГ 29-99. Государственная система обеспечения единства измерений. Метрология. Основные термины и определения.
3. ГОСТ 8.021-2005. Государственная система обеспечения единства измерений. Государственная поверочная схема для средств измерений массы.
4. РМГ 43-2001. Государственная система обеспечения единства измерений. Применение „Руководства по выражению неопределенности измерений“.
5. Р 50.2.038-2004 2000. Государственная система обеспечения единства измерений. Измерения прямые однократные. Оценивание погрешностей и неопределенности результата измерений.
6. РМГ 91-2009 2000. Государственная система обеспечения единства измерений. Совместное использование понятий „погрешность измерения“ и „неопределенность измерения“.

## HANGOMA SHE'RLARDA KULGINING O'ZIGA XOS IFODASI

**Xaitov Xamza Axmadovich**

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti.

**Ibodullayeva Shaxinabonu Shukrullo qizi**

Buxoro davlat Pedagogika instituti I bosqich talabasi.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida hangoma janrining taraqqiyoti va hangomalarda kulgi masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

*kalit so'zlar: Hangoma, olomon, yig'in, xushchaqchaq suhbat, ko'tarinki ruh, chol, kampir, Oltiariq hangomalari va hokazo.*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi adabiyotshunoslikda ham, jumladan, askiya, lof, latifa janrlarining yozma adabiyotga ta'sirini o'rganish masalasida bosib o'tilgan yo'lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtai nazardan baholash zarurati yuzaga keladi. Zero, "Jahon madaniy merosining, jumladan, o'zbek adabiyotining o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, oliyjanob ideallari bir ekanini"<sup>1</sup>, xalqimizning xoxish-irodasi asosida dunyoga kelgan adabiy asarlarni chuqur mantiqiy mushohada qilish mas'uliyatini yuklaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xalq maydon kulgisi ta'sirini o'rganish yangi tadqiqot hisoblanadi.

"Hangoma" yoki "hangama" so'zlari forschadan olingan bo'lib, olomon, yig'in, gurunglashish, xushchaqchaq suhbat degan ma'nolarni bildirib keladi<sup>2</sup>. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ayrim shoir va yozuvchilarni o'z asarlarini "hangoma" deb

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'li". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 5-jild. H-T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B-504.



ko'rsatgani bot-bot ko'zga tashlanadi. Bunday asarlarda bir necha kishi o'rtasida ro'y bergan xushchaqchaq, ko'tarinki ruhdagi shirin, kulgili suhbat hangoma sifatida qayd qilinadi. Ma'lumki, bir necha kishi o'rtasida yuz bergan xushchaqchaq, o'ziga va boshqalarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan, kulgiga asoslangan suhbat xalq og'zaki ijodida askiya deb yuritiladi. Ammo hangoma faqat shirin, kulgili suhbatni emas, qahramonlar boshidan kechirgan kulgili holatlarni so'zlab berishni ham anglatadi. Ko'pincha tilimizda hangomalar shavqli, zavqli, sodda, samimiy, qiziq, ertaknoma kabi sifatlar bilan ishlatiladi. Insonlarning bir-biri bilan hangomalashishi to'yda, o'yin-kulgili ziyofat davralarda, yo'lda yuz beradi. Masalan, bu o'rinda Abdulla Oripovning xalqona ruhda yaratilgan "Hangoma" she'rini eslash kifoya. Unda ikki keksa kishining qish vaqti, qor bo'ralab yog'ib turgan bir paytda qo'shni ovulga to'yga boraman deb, yo'lda adashib qolishi bilan bog'liq kulgili bir voqea bayon etlgan. "O'zbeklarga xos bo'lgan qadimiy urf-odatga ko'ra, aytilgan joyga albatta boorish lozim"<sup>1</sup> bo'lgani uchun chollar yo'lda hangomalashib, yo'lni yo'qotib qo'yadilar va yana aylanib-aylanib o'z ovullariga kelib qoladilar. Buni bilmagan chollar bir eshikni taqillatadilar. Eshikni ochgan kampirni tanimay, undan bir kecha tunashga joy so'raydilar. Kampir esa ularni qarg'ab, urushib beradi. Negaki, kampir shu chollardan birini xotini ekan. Kampir "Nima balo, yeryutgur, iymoningdan kechdingmi?! Aljiraysan to'yda yo aroq- paroq ichdingmi?",- deb cholini koyiydi. A. Hamdamov yozganidek: "Kampirning bu gaplari asarning birinchi bandida ifodalangan yumoristik pafosning kulminatsion cho'qqisini hamda, yumoristik komfiliktning yechimini ifodalab keladi. Boshqacha aytganda, asardagi yumoristik mazmunning kulminatsiyasi bilan yechimi bir paytga to'g'ri keladi". Mana shu kutilmagan yechim, xuddi latifalardagidek favqulodda kulgini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, kulgi sahnalarida ba'zan ayanchli ahvolga sababchi bo'lganlarni so'kish holati kuzatiladi. Bu so'kinish haqiqatni ochishga qaratilganligi bilan nafratga emas, aksincha, kulgi va zavqqa sabab bo'ladi. Jumladan, Abdulla Oripovning "Hangoma" sida ham chigal sharoitga tushib qolgan chollarning o'z nochor ahvollariga sabab bo'lgan to'y egasini "Qora qishda to'y qilmay

<sup>1</sup> Hamdamov A. "Abdulla Oripovning "Hangoma" sh'rida xalqona ruh". O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 4-son. B-65-67.

battar bo'lgur nokas, gov. Bachchag'arning aslida fe'li sovuq ediyov.”, -deb so'kislari tasodifiy jahl ifodasi emas. Bu so'kinishda chollarning faqat to'y egasidan qahru g'azabi, noroziligi, jahli emas, ko'pni ko'rgan bo'lishlariga qaramay, yo'ldan adashganliklaridan alami, pushaymonligi ham aks etgan.

Hangomalar sodda tilda, xalqona iboralar, qochirimli gaplar, kinoya-kesatiqlar, olqish, qarg'ish va so'kinchlar, xalqona hazillar ishtirokida yaratilgani bilan xalq tilini adabiy tilga yaqinlashtirishga asos bo'ladi. Hangomalarda hayotda kam uchraydigan, kishini hayratga solib, kulgisini qo'zg'atadigan qiziqarli voqealar tasviri keltiriladi. O'tmishdan hozirgacha ruhan yaqin insonlarning u yoq- bu yoqdan, qiziq-qiziq voqealar haqida suhbat qilib, vaqtichog'lik qilish maqsadida hangoma davralari tashkil qilib kelinadi. Bunday yig'in ikki yoki undan ortiq kishilar<sup>4</sup> o'rtasida uyushtirilgan. Hayotda hangomatalab, ya'ni hangomani, hangomalashishni yaxshi ko'radigan kishilar alohida toifani tashkil qiladi.

O'zbek adabiyotida hangomalarning she'riy va nasriy ko'rinishlari uchraydi. Abdulla Oripovning "Hangoma"si uning she'riy ko'rinishi bo'lsa, Anvar Obidjonning "Oltiariq hangomalari"<sup>1</sup> nasrda yaratilgan. Asarda keltirilgan kichik hajimli hikoyalardan biri uning "hangoma" ekaniga ishora qilinib shunday boshlangan: "Bu hangoma qirqinchi yillardan yodgorlik". Ko'rinadiki, hangomalar ko'pincha vaqt, muhit, vaziyat, sharoit tasviri bilan boshlanadi. Bu jihatdan Abdulla Oripov hangomasida dovuldan qolishmaydigan qor bo'ralab yog'ib turgan bir sharoitda qo'shni ovuldan to'yga boorish voqeasi tasvirlangan bo'lsa, Anvar Obidjon keltirgan hangomada o'tgan asrning qirqinchi yillarida Oltiariqda yuz bergan bir voqea xotirasi ifoda etilgan. Unda aytilishicha, zamona zayli bilan molboqar Xo'jamatning ukasi raykomga mas'ul ishga o'tibdiyu, kolxozning o'ta chalasavod( demak, o'ta laganbardor) raisi uni birdan ferma mudirligiga ko'taribdi. Shudgor mavsumida oblijroqo'm vakili kelib, Xo'jamatga odatdagi o'tkinchi po'pisalardan qilib, fermadagi go'nglarni brigadalarga taqsimlab berishni, haydovdan oldin yerga solishlari zarurligini buyuribdi. Nazoratini shaxsan Xo'jamatga topshiribdi. Qaysi brigadir biror

<sup>1</sup> Obidjon A." Oltiariq hangomalari". Hajviya va hangomalar. T. Ma'naviyat.1999.b-192

gramm go‘ngni isrof qilsa, ma‘lumot yuborib turishni tayinlabdi. Mabodo, bunaqa “xalq dushmanlari”ni yashirgudek bo‘lsa, uning o‘zini jazolashini aytib, po‘pisa qilibdi. Shundan so‘ng Xo‘jamatga xudo beribdi. U otda dalama-dala kezib, qaysi brigada o‘ramidagi yo‘l yoki uvatda yarim hovuch go‘ng to‘kilib qolgan bo‘lsa ham, egar qoshidagi xurjunidan osmatarozini olib, misqollab tortib ko‘rarkan hamda xalq dushmani bo‘lgan falonchining brigadasida 1215 gramm, buzg‘unchi zararkunandalar safdoshi pismadonchining brigadasida 153 gramm sara go‘ng shudgordan tashqarida sochilib yotibdi deb akt tuzishga kirishar ekan. Mana shu bois “axmoq axmoqqa amal bersa, el misqollab go‘ng teradi”, degan maqol birgina Oltiariqda ishlatilishi, uni faqat oltiariqlik tushinishi ta‘kidlab o‘tiladi.

Xullas, o‘zbek adabiyotida hangomalar yaratish o‘ziga xos uslub va badiiy shakl tipi sifatida shakllangan. Ularning shakllanishida xalq maydon kulgi san‘atining omil bo‘lgani seziladi. Keyingi yillarda hazilkashlikka yo‘g‘rilgan lutflardan iborat kulgili epizodik hikoyalarni “xanda”, “xandalar”, “kulgili hikoyalar”, “kulki hikoyalar”, ‘mutoyiba’ kabi har xil qator nomlar ostida ham chop etmoqdalar. Aytish kerakki, bunday kulgili hikoya va xandalarning ancha-munchasi bora-bora xalq latifalariga aylanishi hech gap emas. Chunki latifa xalqning shu xildagi zarofatli og‘zaki epizodik hikoyalarni ifodalovchi istilohiy mohiyat kasb etib ulgurgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Mirziyoyev Sh.M.* "Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'I". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.

2. *O'zbek tilining izohli lug'ati. 5jildlik. 5-jild. H-T.* "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B-504.

3. *Hamdamov A.* "Abdulla Oripovning "Hangoma' sh'rida xalqona ruh". \| O'zbek tili va adabiyoti. 2004. 4-son. B-65-67.

4. *Obidjon A.* "Oltiariq hangomalari". Hajviya va hangomalar. T. Ma'naviyat. 1999. b-192

5. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.

6. Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ // *Интернаука*. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

7. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. *Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature* // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.

8. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ // *Journal of Integrated Education and Research*. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.

9. Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ // *Academic research in educational sciences*. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.

10. Akhmadovich H. H. *Khoja nasriddin afandi as people's hero* // *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.

11. Akhmadovich K. K. *Symbolism of Birds in Uzbek Literature* // *International Journal on Integrated Education*. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.

## O‘Z-O‘ZINI ISH BILAN BAND QILISH MAVZUSI ORQALI O‘QUVCHILARNING IQTISODIY BILIMINI OSHIRISH

**Malika Babadjanova**

*Nukus shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirish, kelgusidagi rejalarida o‘zini o‘zi band qilish masalasi bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni shakllantirish haqida so‘z yuritilgan.*

***kalit so‘zlar:*** iqtisod, o‘zini o‘zi band qilish, jismoniy shaxs, rasmiy daromad

Ma‘lumki, 2022-yil 21-dekabr kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma yo‘lladi. U o‘z chiqishida jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘yayotganini, hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berayotganligini ta’kidladilar. Shuningdek, xalq taklif va mulohazalaridan kelib chiqib yillar davomidagi kamchiliklardan xulosa chiqarish va kelgusidagi qilinishi zarur rejalar borasida o‘z fikrlarini bildirdi. Bu bo‘yicha 20 mingga yaqin takliflar muhokama qilinganligi, odamlarimiz ta’lim, sog‘likni saqlash, iqtisodiyot yo‘nalishlardagi aniq-aniiq masalalarni ko‘tarib, ular bo‘yicha tizimli yechimlarni taklif qilganligini aytib o‘tdilar. Mazkur takliflarni davlatimiz rahbari “hozirgi vaqtda odamlarni qiynayotgan va ertangi kunimizga, o‘zgarishimizga, taraqqiyotimizga to‘g‘ri zamin yaratish bo‘yicha takliflar” deb atadi va takliflar nuqtayi nazaridan kelib chiqib yangi 2023-yilga «**Insonga e’tibor va sifatli ta’lim**» deb nom berdi.

Haqiqatan ham ayni damda aholi muammolarini o‘rganish davr talabidir. Bugungi kunda aholini kambag‘allikdan chiqarishda ko‘rilayotgan choralarning ko‘pchiligi muvaqqatligi, jumladan, qishloq xo‘jaligi ishlarining mavsumiyliги muammoni to‘liq

hal etish imkonini bermaydi. Shu bois bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan katta-katta loyihalarga, ko'rilayotgan choratadbirlarga qaramay kambag'allikning birinchi sababi bo'lgan ishsizlikka barham berilmayotir. Shularni hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida qator vazifalarni belgilab berdi. Bu borada yoshlarning ish bilan bandligi, ayniqsa bitiruvchi kasb-hunar maktabi o'quvchilarini o'zini o'zi band qilishga o'rgatish asosiy masala sanaladi. Xo'sh o'zini o'zi band qilgan shaxslar kimlar?- degan savol tug'iladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar-o'z ishini o'zi topib, uni bajarish orqali daromad ko'radigan jismoniy shaxslardir. Repetitorlar, enagalar, santexniklar, elektrchilar, sartaroshlar, kurerlar, avtomobil yuvuvchilari, hunarmandlar, farroshlar, tikuvchilar, dasturchilar va yana ko'plab kasb egalari o'zini o'zi band qiluvchilar bo'lishlari mumkin. Ularning faoliyati "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom" bilan tartibga solinadi. 2021-yil 1-avgust holati bo'yicha 68 turdagi faoliyat bilan o'zini o'zi band qilish mumkin.

O'quvchilarning dars jarayonida mazkur masalada qiziqtiradigan savollari bisyor, albatta. Jumladan, ular qanday shaxslar tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi shart emas deya murojaat qilishadi. **Mehnatga layoqatli yoshdagi har bir jismoniy shaxs**, yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari, o'zini o'zi band qilishi mumkin. O'zini o'zi band qiluvchilar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishlari shart emas. Asosiy ish joyida mehnat shartnomasi bo'yicha ishlab, bir vaqtning o'zida o'zini o'zi band qilish ham mumkin. Asosiysi, asosiy ishdagi faoliyat turi o'zini band qilish uchun ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxatiga kirmagan bo'lishi kerak. Masalan, kun bo'yi mehnat shartnomasi asosida kotibalik bilan shug'ullanish, kechasi o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida matn yozish bo'yicha xizmatlarni (kopirayting) ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarni qiziqtiradigan yana bir narsa bu o'zini o'zi band qilishning qanday foydalari bor? deya ko'proq savol bilan murojaat qilishi, tabiiy. Bunga mazkur jadval asosida tushuncha berib o'tamiz. Buning foydali ekanligiga bir qancha sabablar bor:

<b>O‘zini o‘zi band qilishning qanday foydalari bor?</b>	
<b>1.Uydan ishlashning qonuniy ahamiyati.</b> O‘zini o‘zi band qilganlar soliq tekshiruvlari, jarimalar va noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha ayblovlardan qo‘rqmasliklari mumkin.	<b>2.Tasdiqlangan ish staji va pensiya.</b> O‘zini o‘zi band qilganlarning ish staji ketaveradi, shuning uchun keksalikda kafolatlangan pensiya naqd deb hisoblash mumkin.
<b>3.Rasmiy daromad.</b> Iste‘mol kreditlari, imtiyozli qarz olish, shuningdek, soliq imtiyozlarini qo‘llash mumkin.	<b>4.Minimal soliq.</b> Daromad solig‘i yoki boshqa yig‘imlar yo‘q. Bir yilda BHMning 1 baravari miqdorida ijtimoiy soliq to‘lash kifoya.
<b>5.O‘ziga o‘zi xo‘jayin.</b> O‘zini o‘zi band qiluvchilar uchun mehnat shartnomasi, rahbar va qat‘iy ish jadvali yo‘q. Sevimli ish bilan xohlagan vaqtda shug‘ullanish va bundan qonuniy daromad olish mumkin.	<b>6.Mijozlar bazasini kengaytirish.</b> O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yuridik bankda osongina hisob ochishlari mumkin. Bundan tashqari, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik sheriklar orasida ishonchni uyg‘otadi
<b>7. Minimal hujjatlar.</b> O‘zini o‘zi band qilganlar yakka tartibdagi tadbirkorlar singari buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklarasiyasini topshirishlari shart emas. Daromad va xarajatlarni ixtiyoriy ravishda Soliq ilovasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatib borishlari mumkin.	

Darvoqe, bu mavzu yuzasidan o‘quvchilarning iqtisodiy bilimini yanada oshirish uchun guruhlar bilan ishlash orqali ham ma’lumotlarni to‘liq yetkazishimiz ehtimoli ko‘p. Masalan, “O‘zini o‘zi band qilganlar kimlar bilan va qanday ishlashlari mumkin?” degan savol doirasida rolli o‘yinlar asosida javob topishlari mumkin. Bu bo‘yicha dastlab o‘qituvchi qisqacha nazariy ma’lumot beradi. “O‘zini o‘zi band



qilganlar boshqa jismoniy shaxslarga og‘zaki kelishuv asosida ish yoki xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. Yuridik shaxslar bilan esa ular faqatgina bir martalik ish yoki xizmatni ko‘rsatish uchun yozma shartnoma tuzgan holda ishlashlari mumkin. Bitta katta hajmli ishni bajarish kerak bo‘lsa, uni bir necha qismlarga bo‘lib bajarishga to‘g‘ri keladi. Shartnomaning muayyan tasdiqlangan shakli yo‘q: uni yuristlar bajariladigan ish yoki xizmatning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda tuzadilar. Bunda o‘zini o‘zi band qilganlar barcha ishlarni mustaqil ravishda bajarishlari kerak: yollanma ishchilar mehnatidan foydalanish mumkin emas”. Mazkur nazariy ma’lumot asosida o‘quvchilar guruhlariga yoki rolli o‘yinlar tashkil etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mavzu doirasida o‘quvchilarni qiziqтира olsak, ularning kelajakda o‘zini o‘zi band qilish, ishsizlikning, kambag‘allikning oldini olgan bo‘lamiz. Shu nuqtayi nazardan qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Buning uchun hozirdan ularning avvalombor iqtisodiy bilimlarini oshirib borsak, moddiy muammolarini mustaqil eta olishiga yordam bergan bo‘lamiz.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

- 1. Самадов А.Н., Останақулова Г.Н. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Т.: Молия-иқтисод, 2008*
- 2. Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2005.*
- 3. Қосимова М.С., Ходиев Б.Ю., Самадов А.Н., Мухитдинова У.С. Кичик бизнесни бошқариш. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 2003.*
- 4. Анискин Ю.П. Организация и управление малым бизнесом: Учеб. пособ. – М.: Финансы и статистика, 2008*

## КИМЁ ФАНИНИ ЎРГАНИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

*(“Спиртларнинг умумий хусусиятлари” мавзуси мисолида)*

**Отежанова Гулзабира Курбанбаевна**

*Нукус шаҳар 2-сонли касб-хунар мактаби кимё фани ўқитувчиси*

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада дидактик ўйинлар асосида кимё фанининг мураккаб мавзуларини тез ва осон ўрганиш методикаси борасида сўз юритилади.*

***калит сўзлар:** спирт, этил спирти, бутил спирти, углеводлар, дидактик ўйин*

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “таълим ва фан соҳасида инновацияларни ривожлантириш, хусусан, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда, малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини тизимли амалга ошириш” [1] устувор вазифа сифатида белгиланиб, бу борада кимё ўқитувчилари кимёни ўқитишда ўқувчиларни кимёга боғлиқ касбларга йўналтиришда интегратив ёндашув асосида ўқув жараёнини ташкил этиш технологияси методик таъминоти, фаолиятга оид компетенциялар тизими ва циклик диагностикаси механизмларини такомиллаштириш бугунги кунда муҳим аҳамият касб этади.

Таълим жараёнининг сифати кўп жиҳатдан ўқитиш метод ва технологияларни тўғри танлашга боғлиқ. Ўқув жараёнининг қайси метод технологияларда ташкил этишда эҳтиёткорлик зарур. Биз кўпинча анъанавий ва ноанъанавий усулдаги дарслар борасида кўп бош қотирамиз. Айни дамда фан нуқтаи назаридан келиб чиққан ҳолда эътироф этадиган бўлсак, касб-хунар мактабларида кимё фани бошқа фанларга қараганда анча мураккаб фандир. Шу

боис уни ўқувчилар зерикмасдан, тез ва осон ўрганиб олишлари учун дидактик ўйинлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Кимё асида муҳандислик, соғлиқни сақлаш, астронимия, биология ва геология каби бир қатор билимларни қамраб олган асосий фан ҳисобланади. Касб-хунар мактабларида ҳам кимё фанлари ўқувчиларга дунёни “кимёвий” нуқтаи назардан тушуниш ва муҳим тушунчаларни ўрганишда ёрдам берадиган ноёб имкониятларни тақдим этади. Ўқувчиларни кимё билан боғлиқ касбни мустақил танлашга тайёргарлик жараёнида касбга йўналтиришнинг хилма-хил шаклларида фойдаланилади. Кимё саноати ва қишлоқ хўжалиги объектларига ишлаб чиқариш экскурсияларини ўтказиш; илғор ишчилар, техник ходимлар, муҳандислар чиқишлари билан касб танлашга бағишланган кечалар, конференциялар, баҳслар тайёрлаш ва ўтказиш; кимё тўғараги ишини ташкил этиш; кимёгар олимларнинг илмий фаолиятига бағишланган кимёвий кечалар ва бошқалар [2].

Дидактик ўйинлар-ҳар қандай фанни ўқитишда таълим бериш вазифаларини ҳал этиш мақсадида ўйинли вазият яратган ҳолда билим олиш учун фойдаланиладиган топшириқлардир. Улар ўқувчи ва талабаларнинг мантиқий фикр юритиши ва топқирлигини кучайтиради ҳамда уларнинг фанга ва янгиликларга қизиқишини орттиради. Бундай ўйинларнинг кимё таълимида ҳам яхши самара бериши маълум [3]. Афсуски, аксарият касб-хунар мактабларининг кимё ўқитувчиларида бундай ўйинларнинг сценарийларини тузиш ва улардан амалда фойдаланиш малакаси етишмайди. Шу боисдан тақлиф қилинаётган мазкур дидактик ўйинлар касб-хунар мактабида кимё курсини ўқитишга мўлжалланган бўлиб, уларни қўллашдан асосий мақсад ўқувчиларнинг ўз иқтидори, қизиқиши, билими ва ўзлигини намоён этиш, ижодий ёндашув ва мантиқий фикр юритиш, жамоавий мулоқот қилиш маданиятини шакллантиришдан иборат.

Ушбу мақолада кимё ўқитишда фойдаланиш мумкин бўлган дидактик ўйинларнинг айримларини “Спиртларнинг умумий хусусиятлари” мавзуси доирасида ўрганамиз.

Углеводородлардаги битта ёки бир нечта водород ўрнига «ОН» — гидроксил группасининг алмашилишидан ҳосил булган органик бирикмаларга спиртлар дейилади. Гидроксил группанинг сонига қараб спиртлар бир атомли, икки атомли, уч атомли ва ҳоказо кўп атомли бўлишлари мумкин.

### “Кимёвий эстафета” ўйини

Спиртлар	CH <sub>3</sub>	CH <sub>2</sub>		
Бир атомли спиртлар				
Икки атомли спиртлар				
Уч атомли спиртлар				

“Учинчиси ортикча”. Ўқувчиларга уч хил спирт турлари номлари ёзилган халқалар берилади. Масалан, этил спирти, метил спирти, бутил спирти ва ҳ. Улар бу учликлардаги спиртларнинг ўхшашларига “+”, “бегона”, яъни “ортикча”сига эса “-“ ишорасини қўйишлари лозим бўлади. Энг тезкор ва тўғри жавоб берган ўқувчи ғолиб бўлади.

“Ёнмайдиган қўлрўмолча”. Бунда ўқувчиларнинг мантикий фикрлашини ривожлантириш мақсадида гуруҳ билан ишлашига ижозат берилади.  
**Топшириқ:** *Керакли жиҳоз ва реактивлар: Буглатиш косачаси. Болалар қўлрўмолчаси. Тигел ушлагич. Ацетони этил спирти. Сув. Гугурт. Қўлрўмолча “сув” билан ҳўлланади. Уни тигел ушлагич билан ушлаб, ёниб турган гугурт чўпига тутилса, рўмолча ўт ичида қолади. Бир оздан сўнг ўт ўчади, аммо рўмолча ёнмаган бўлади. Бу тажрибанинг сири нимада?*

Бундай топшириқларни бажариш жараёнида олинган билимларни мустаҳкамлаш, уларни тизимлаштириш ва улардан амалда фойдаланишдек ўқув мақсадларига эришиш мумкин. Уларнинг имкониятларидан иложи борича тўла фойдаланиш эса долзарб педагогик муаммодир.

Демак, дидактик ўйинлар самарадорлиги шундаки, у назарий ва амалий моҳиятга эга бўлиб, у асосида ўқувчиларнинг фаоллиги ортади, фикрлаш доираси кенгайди. Ўқув дастурида режалаштирилган билимлар енгил, осон ва қизиқарли ўзлаштирилишига эришилади.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

- 1. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, -70 б.*
- 2. Буринская Н. Н. Учебные экскурсии по химии. – М.: Просвещение, 1989. – 158с.*
- 3. Сахаров В. Ф., Сазонов А. Д. Профессиональная ориентация школьников. – М.: Просвещение, 1982. – 192с.*
- 4. Омонов Ҳ.Т., Рахматуллаева Г.М. Мароқли кимё. – Тошкент: Адабиёт учқуни, 2015. – 222 б*

## OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI OSHIRISHDA ALISHER NAVOIYNING MA'NAVY MEROSIDAN FOYDALANISH

**Usanov Sherzod Abdulaxatovich**

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
“Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari“ kafedrasi katta o'qituvchisi

### ANNOTASIYA

*Maqolada Alisher Navoiyning ma'naviy merosida ota-onalarga bola tarbiyasi borasidagi tarbiyachilik bilimlari, ma'lumotlar berilgan hamda bola tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyatini oshirishga oid amaliy tavsiyalari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *Navoiy, oila, ota-ona, ma'naviy meros, madaniyat, bola, tarbiya, ma'lumot, tarbiyani yaxshilash, takomillashtirish, amaliy tajriba, xulq-atvor, odob, kelajak.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье духовное наследие Алишера Навои дает педагогические знания и информацию родителям о воспитании детей, практические рекомендации по повышению ответственности родителей в воспитании детей.*

**Ключевые слова:** *Послушание, семья, родители, духовное наследие, культура, ребенок, воспитание, совершенствование воспитания, совершенствование, практический опыт, поведение, манеры, будущее.*

### ABSTRACT

*In the article, Alisher Navoi's spiritual heritage provides educational knowledge and information to parents about child education, and practical recommendations on increasing the responsibility of parents in child education.*

**Key words:** *Obedience, family, parents, spiritual heritage, culture, child, education, education, improvement of education, improvement, practical experience, behavior, manners, future.*

**“Dili pok-u, o‘zi pok-u, so‘zi pok”**

**Alisher Navoiy.**

Alisher Navoiy merosini pedagogik jihatdan o‘rganish respublikamizda I.Hasanxo‘jayev, A.Zunnunov, X.Hamrayeva, K.Abdullayev, A.Hasanova, G.Rahimova, A.Abdumannotovlar tomonidan amalga oshirilgan.

Akademik Vohid Abdullayev Alisher Navoiyning hayoti va Samarqanddagi adabiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lsa, akademik B.Valixo‘jayev o‘zining qator ilmiy-tadqiqot ishlarini Navoiyning Samarqanddagi faoliyatiga bag‘ishlagan. Professorlar M.Muhiddinov, Dilorom Salohiylarning ham bu boradagi xizmatlari e‘tiborga molik.

Pedagog olimlardan O.Musurmonova, M.Ochilov, R.Mavlonova, M.Quronov, M.Inomova, S.Nishonova, U.Mahkamov, N.Ortiqov, J.Hasanboyev, S.Hasaniy, S.Rahimov, O.Hasanboyeva va boshqa bir qator olimlar milliy, ma‘naviy, tarixiy qadriyatlarimizning yoshlar ta‘lim va tarbiyasini takomillashtirishdagi o‘rnini belgilab berishda salmoqli hissalarini qo‘shdilar.

Alisher Navoiy merosini pedagogik jihatdan o‘rganish respublikamizda I.Hasanxo‘jayev, A.Zunnunov, X.Hamrayeva, K.Abdullayev, A.Hasanova, G.Rahimovalar, hamda alohida e‘tirof bilan ustozim A.Abdumannotov tomonidan amalga oshirilgan.

Alisher Navoiyning bizga qoldirgan o‘g‘itlari hayotimizning barcha yo‘nalishlarida ma‘naviy meros bo‘lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy tarbiyaning ko‘p qirralari haqida qimmatli fikrni bildirgan. U bolani juda kichik yoshidan tarbiyalamoq darkor -deb hisoblaydi. Tarbiya insonning o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi, u odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-biriga bo‘lgan ruhiy, ma‘naviy ta‘sirlari



natijasida tarkib topadi, deb ta'kidlaydi. Alisher Navoiy odamni voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiyning ta'biricha, tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga yetkazishdir. U «Mahbub ul-qulub» asarida «Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoya ketkazma»[1], -deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan ta'lim-tarbiya berishi, maktabda o'qitishi lozim.

Navoiy «Tarbiyaning yana biri unga (farzandga) ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir»[2], -deb hisoblaydi.

Navoiy reja bilan, aql bilan, halol mehnat qilishni maslahat beradi va ota-onalarni bolani shu asosda tarbiyalashga da'vat etadi. Navoiy xalq manfaati uchun ishlaydigan kishilarni haqiqiy komil odam, deb biladi.

«Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami».

Alisher Navoiy «Maxbub-ul qulub» asarida «Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa xalqlarning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tovoze' kabi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi»[3] -deb juda o'rinli ta'kidlagan. Haqiqatan ham har bir insonning o'z xalqiga va boshqa xalqlar izzat-hurmatiga sazovor bo'lishi milliy xulq-atvorni shakllantirish bilan bevosita bog'liq

Navoiy laganbardorlikni, xushomadgo'ylikni eng yomon sifatlardan deb biladi va bunday sifatlarni bolaga singdirmaslik lozimligini uqtiradi. Ota-onalarni o'z bolalarini chin insonga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da'vat etadi.

Alisher Navoiy «Himmatini yo'qning hurmati yo'q», -deydi. Uning ta'kidlashicha, mard odam maqtanchoq bo'lmasligi kerak. «Qaysi kishi, agar mardlik nishonasiga ega bo'lsa, u o'zining ming turli qilgan ishlaridan birini ham aytmaydi». Mard kishilar xalq hurmatiga sazovor bo'ladilar.

Uning fikricha, insonning insoniyligi aql va adolat bilan, halollik va poklik bilan faoliyatda bo‘lishidir. Navoiyning mazkur fikri bola tarbiyasida o‘ta dolzarb va ota-onalarga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bolalarni ota-onani hurmat qilishga, xizmat qilishga chaqiradi.

«Boshni fido ayla ota boshiga  
Jismni qil sadqa ona qoshiga,  
Ikki jahoningni tilarsan fazo  
Xosil et ushbu ikkisidan rizo.  
Tunu-kuningni aylagil nur fosh,  
Birisin oy ayla, birisin quyosh»[4].

Alisher Navoiy aytganidek, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo‘lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chizig‘idan bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so‘zidagi «dol» kabi qomatingni ham qil -deb bolalarni ota-onalarni hurmatlash, e‘zozlash, qadrlashga da’vat qiladi. Afsuski ba’zi oilalarda tarbiya topgan yoshlar orasida ota-onasini hurmat qilmaydiganlari topiladi. Ota-onasi keksayganda g‘amxo‘rlik ko‘rsatmay ulardan xabar olmay o‘z holiga tashlab qo‘yishadi. Moddiy jihatdan qiynalishadi va xakozo.

Navoiy ayollar masalasida ham jasur fikrlarni o‘rtaga tashladi. U o‘z zamonasidagi ayollarning o‘ta ayanchli ahvoliga yurakdan achinadi, ularning xo‘rlanganliklaridan shikoyat qiladi, ayollardagi qobiliyatni, mahoratni, uquvni madh etadi:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq,  
Pok xotinlar oyog‘ining izi.

Alisher Navoiyning oilada xotinning tutgan o‘rni va roli haqidagi fikri oila tarbiyasining negizini, asosini tashkil etadi hamda bola tarbiyasida pedagogik, ijtimoiy, amaliy ahamiyat kasb etadi va g‘oyat qimmatlidir. «Yaxshi xotin deydi Navoiy-

oilaning davlati va baxt -Uyning orayishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa-ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa-jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi.

Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi». Navoiy oila tarbiyasida onaning shaxsiy namunasi muhimligiga asosiy e'tiborni qaratadi va uning xushmuamala, oqila bo'lishga da'vat etadi.

Navoiy oilada o'g'il tarbiyasida otaning ona o'rnini bosaolmasligini va otasiz o'g'il haqiqiy tarbiyalanmasligiga asosiy e'tiborni qaratib, uni quyidagicha ifodalagan:

Ano o'rnin ato tutmas o'g'ilga,

Ki mumkindir o'g'il bo'lmoq atosiz.

Navoiyning tarbiya haqidagi fikrlari bola tarbiyasida o'z qadr-qimmatini oshiraveradi va barhayot bo'lib qolaveradi.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)***

1. *Alisher Navoiy. Xamsa. – T., 1960. - 104-bet.*
2. *Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror»,- T: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti», 1989. -55-bet.*
3. *Alisher Navoiy «Maxbub-ul qulub», T.: 1983. 48-bet.*
4. *Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi -T.: «O'qituvchi». 1967. 483-bet.*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI

**Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasidan foydalanish va bu borada mavjud muommolar, kamchiliklar, hamda yechilishi lozim bo'lgan masalalarga yechim sifatidagi mulohazalar haqida keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq pedagogikasi, axloq, tarbiya, milliy urf-odatlar, madaniyat, tamoyil, ijodkorlik, maktabgacha yosh.*

Axloqiy tarbiya tug'ilishdan boshlanadi, va kundalik munosabatlar jarayonida hayot davomida davom etadi. Bu atama deganda jamiyat "axloqiy" deb ataydigan axloqiy tamoyillar, sifatlar, shuningdek, xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan shaxsga ta'sirlar tizimini tushunamiz. Axloq tushunchasi xalq madaniyatiga, dinga va ma'lum bir davrga bog'liq (agar uni ma'lum bir davr ichida ko'rib chiqsak). Axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirishning asosidir. Axloqning birinchi tushunchasini chaqaloqqa uning onasi tabassum va ozgina qattiqqo'llik bilan nima yaxshi va nima yomonligini tushuntiradi. "Opangizning sochidan tortish, qo'pol so'z aytish yoki tilingizni ko'rsatish yomon, lekin mazali taom uchun minnatdorchilik bildirish, kimgadir salomlashish yoki yordam berish yaxshi" - bu misol va ularning yuzlablari bor. Axloqiy tarbiya elementlarini kundalik hayotning har bir daqiqasida kuzatish mumkin. Bola uchun axloqiy namuna har doim ota-ona bo'ladi, u nima bo'lishidan qat'i nazar. Shuning uchun mo'rt shaxsga to'g'ri o'rnak berish juda

muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasidan foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Xalq pedagogikasi xalqimizning qaxramonona o'tmishi, milliy qadriyatlari, tarixi, urfodatlari, ta'lim-tarbiyadagi ilg'or g'oya va tajribalarini o'zida aks ettiradi. Ana shu bebaho merosni o'rganish va undan o'quv tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak.

Xalq og'zaki ijodining o'lmis namunalari xalqimizning ma'lum davrdagi turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati. xalqimiz qalbidagi orzu-umidlari, g'am-tashvishlari. armon, quvonchlarini ifodalaydi. shu bilan birga har bir davrga hamnafas bo'lib yashaydi. Xalq tomonidan yaratilib. og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi yoki folklor (ingl. "folk"- xalq, "lore"- donolik, ya'ni xalq donoligi. donishmandligi) deb yuritiladi. Xalq og'zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiqlar, maqol, matal, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alia, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqlar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va b. Xalq og'zaki ijodining yuqorida sanab o'tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, olijanoblik. qadr. vafo, sadoqat. yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalilik, insonparvarlik, kabi xislatlar ulug'lanadi, yomonlik, bevafoqlik, baxillik. xasislik, qo'rqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushomadgo'ylik, andishasizlik, ochko'zlik, ma'suliyatsizlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Shu o'rinda og'zaki ijod namunalari odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasida o'ta hayotiy. xalqchil va ibratlilikini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlashimiz joiz. Xalqimiz pedagogikasi juda boy manbalarga egadir lekin axloqiy tarbiyalashda doim ham uning namunalariidan foydalanavermaymiz. Oilada ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham kam holatlarda xalq pedagogikasining manbalariga murojaat qilishadi. Interet saytlaridan chiqqan, manbasi to'liq ko'rsatilmagan turli asarlarni topib ishlatish tarbiyachilarda va ota onalarga odat bo'lib

qolmoqda. Bu holatlarni oldini olish maqsadida Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘llash mumkin bo‘lgan xalq pedagogikasi durdonalari alohida kitob yoki qo‘llanma holiga keltirilishi lozim. Ana shundagina farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan har bir shaxs bemalol ikkilanmasdan o‘sha qo‘llanmalardan foydalanisha oladilar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda muntazam ravishda xalq pedagogikasining na‘munalaridan keng tarzda foydalanish lozim. Chunki, xalq pedagogikasida xalqimizga xos bo‘lgan sharqona odob na‘munalari juda chiroyli tarzda bayon etilgan. Xalq pedagogikasi durdonalari bo‘lgan xalq ertaklari, xalq maqollari, xalq dostonlarining aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos bo‘lgan joylari tanlab olinsa yanada yaxshi bo‘ladi. Negaki, axloqiy tarbiyalash ishlari ham aynan yosh davrlariga moslashtirib olib borilsagina yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun har bir pedagog-tarbiyachi uchun moslashtirilgan qo‘llanmalar ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘proq joriy etilishi lozim deb o‘ylayman.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

- 1. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini” 2020-y*
- 2. Kayumova N.M., Ro‘ziyeva M.M. “Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma‘naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o‘rni “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning roli” mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 102-104-b*
- 3. Mutalipova M.J “Xalq pedagogikasi” Toshkent-2015*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HARAKATLI O‘YINLAR VOSITASIDA JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS YO‘LLARI

**Suvanova Sevara Baxodir Qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga harakatli o'yinlarni qay tartibda o'rgatish, tarbiyachining qanday qoidalarga amal qilishi, harakatli o'yinlarning bolalarga qanday ta'sir qilishi haqida.*

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, ta'lim, tashkilot, bolalar, harakatli o'yin, o'rgatish, usul, tashkil qilish, guruh, o'tkazish.

Tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo'lishi o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o'yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko'nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog'lig'ining ahvoli, o'ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o'tkazish o'rni, shuningdek bolalar qiziqishlarini o'ziga xos xususiyatlari. Harakatli o'yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o'sishi, ular to'plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o'zgartirib turiladi.

**Bolalarni yangi o'yin bilan tanishtirish.** Uning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab etadi. Ayrim o'yinlarning mazmuni oldindan bo'ladigan suhbatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning tasavvurlari aniqlashadi, o'yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy xayol o'sadi. O'yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko'ra har xil o'tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qizig'arli, bolalarni quvnoq o'yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o'yinni tezroq boshlash istagina



tugʻdiradigan va oʻyin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan boʻlishi kerak. Mazmunsiz oʻyinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda boʻlishi lozim. Tarbiyachi oʻyin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va oʻyin atributlarining joylashish oʻrni (kichik va oʻrta guruhda buyumlarni moʻljallab, katta guruhlarda esa moʻljalga olmay koʻrsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda koʻrsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan soʻng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi. Oʻyinni qoidasi bolalarga tushunarli boʻlsagina oʻyin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan oʻtadi. Musobaqa elementlari mavjud oʻyinlarni oʻtkazishda tarbiyachi oʻyinni tushuntirayotib qoidalarni, oʻyin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda ragʻbatlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy komoloti va yakka oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar – komandalarni birlashtiradi; oʻziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qoʻshib qoʻyadi. Baʼzan oʻyinga sport koʻrinishini berish uchun komanda sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin.

***Mazmunli oʻyinlarni tushuntirish.*** Tarbiyachining vazifasi bolalar koʻzi oʻngida oʻyin vaziyatining koʻrgazmali manzarasini gavdalantirishdan, oʻyin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga taʼsir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda oʻyinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin.

Oʻrta guruhlarda – tanish oʻyinni taklif etib, qoidalarini eslatib oʻtish bilan cheklanishi kifoya. Katta guruhlarda oʻyin mazmuni eslashni bolalarning oʻzlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri oʻyin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar oʻzlari tarbiyachining yordamisiz oʻyinni tashkil eta boshlaydilar.

***Oʻyinda rollarni taqsimlash.*** Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani ragʻbatlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir boʻlish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki oʻziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni

qo'rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni hursand qilgan holda o'yinga o'zi kirishib o'z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi. Shuningdek boshlovchi saylashni bolalarni o'ziga xavola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so'rashi mumkin. Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachini o'zi bajaradi. O'yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o'zaro munosabatlar, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko'rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o'yinni qayta o'tkazishdan oldin gapiradi.

**O'yinni yakunlash.** Harakatli o'yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan xolga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko'ra bir xil bo'lgan kam harakatli o'yin bilan almashtirish ham mumkin. O'yin tugagan zahoti uni yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o'tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta'sir etadi. Tarbiyachi o'yinni baholashida uning ijobiy tomonlarini ta'kidlaydi, o'z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o'zaro o'rtoqlik yordami ko'rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog'liq harakatini kuyinib ko'rsatib o'tadi. Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarni harakatli o'yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda o'yinlarning borishini va ayniqsa, qoidalarni bajarilishini hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib boradi. U bolalarga harakatli o'yin variantlarini uning mazmuni, qoidasini, o'yin harakatlarini o'zgartirgan holda o'ylab topish, keyinchalik yangi o'zi o'ylab o'yin topish kabi topshiriqlar beradi. Katta guruh bolalarida mustaqillik, tashkilotchilik malakasini tarbiyalash maqsadida tarbiyachi ularga kichik guruh bolalari bilan o'yin tashkil etishini taklif etadi. O'yin kichik guruh tarbiyachisi kuzatuv ostida o'tkaziladi. Harakatli o'yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O'yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg'otadi. Harakatli o'yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni bilishida o'ziga xos vosita hisoblanadi. Harakatli o'yinlardagi qoidalar o'yinning borishini belgilaydi, bolalar

harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Har bir bolaning o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishda kattalarning rahbarligi katta ahamiyatga egadir. O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy hayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmini o‘zi ham juda takomillashadi. Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi bir tomondan o‘yin vaziyatini va ko‘rish-motor reaksiyasini darhol baholashni, ikkinchi tomondan o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *O‘zbekiston Respublikasining 595-sonli “Maktabgacha ta’lim tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 16.12.2019 y*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261- son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori.*
5. *Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-y.*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198- son “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XOTIRASINI O‘RGANISH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO‘LLARI

**Yaxshiboyeva Baxtigul Azamatovna**

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bolaning xotirasiz intellektual rivojlanishi mumkin emasligi aynan uning yordami bilan bola yangi bilimlarga ega bo‘lishi, dunyoni o‘rganishi yoki maktabda o‘qish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, xotirani rivojlantirish uchun oddiy mashqlar va o‘yinlarning pedagogik va psixologik yo‘llari haqida so‘z yuritilgan.*

***kalit so‘zlar:** Maktabgacha yosh, xotira, intellektual, vizual, majoziy, taktil, mexanik xotira, yodlash, esda saqlash.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar ma’lumotni tushunmasdan, mexanik yodlash bilan tavsiflanadi. Kattalarning vazifasi bolani yangi bilimlarni mantiqiy anglagan holda ongli ravishda bajarishga o‘rgatishdir. Ma’lumotni ixtiyoriy yodlash va takrorlash asta-sekin ongli ravishda o‘tishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda u yoki bu ma’lumotni turlicha eslab qolishini payqadingizmi? Bu miya yarim sharlari va bu bilan shug‘ullanadigan uning bo‘limlari bilan bog‘liq. Xotira: motorli, emotsional, obrazli, shu bilan birga qisqa muddatli, operativ yoki uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan, yodlash qobiliyatlari ham u yoki bu qobilyatga bog‘liq-eshitish, vizual, vosita, taktil. Vizual-majoziy xotira turiga ega bo‘lgan bolalar ranglar, tovushlar, yuzlar va boshqa vizual tasvirlarni eslab qolishni tez o‘zlashtiradilar. Og‘zaki-mantiqiy tafakkur lingvistik vositalar, voqea va vaziyatlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bunday bolalar tushunmaydigan ma’lumotlarni eslab qolishlari qiyin chunki ular buni ma’lum voqealar va ko‘nikmalarga bog‘lashni o‘rganishlari

lozim bo'лади. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotirani qanday rivojlantirishni bilish uchun uning qanday kognitiv qobiliyatlari borligini aniqlash kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi turlarning har biri hayot davomida yaxshilanishi mumkin.

Bolada yomon rivojlangan xotira turini yaxshilash kerak degan fikr bor. Ammo bu nazariya har doim ham tasdiqlanmaydi. Faraz qilaylik, bolaning og'zaki-mantiqiy fikrlashi bor. U eslab qolgan barcha ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu holatda majoziy xotirani rivojlantirishga ehtiyoj bormi? Har holda, bolani uning tafakkuriga moslashtirish va shu yo'nalishda rivojlantirish kerak. Shunday qilib, eshitish, vizual, vosita va taktil xotirani o'rgatish lozim. Bu turlarni har biri uchun rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud. Keling, ularni batafsil ko'rib chiqaylik.

Buning uchun oddiy xotira testlari mavjud:

Luriya testi. Ushbu tadqiqot usuli bolaning xotirasini qanday rivojlanganligini ko'rsatadi, u ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim elementi hisoblanadi. Hech narsa bolani chalg'itmasligi uchun testni tinch muhitda, yaxshisi tinch xonada o'tkazing. Boladan qulay o'tirishni so'rang va so'zlarni eslab qolishga harakat qilishini tushuntiring. Haddan tashqari shoshilmasdan (2-3 soniya pauza bilan) bola yaxshi biladigan o'nta so'zni nomlang, lekin ular mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog'lanmasligi kerak. Misol: mushuk, maktab, qoshiq, belanchak, o'rmon, murabbo, mashina, dengiz, sut, fil. Boladan eslab qolgan so'zlarni takrorlashni so'rang va qog'ozga bir vaqtning o'zida nechta so'zni va qaysi birini eslaganini belgilang. Keyin og'zaki ketma-ketlikni takrorlang va ikkinchi urinishda bolaning boshida qaysi so'zlarni "tuzatganini" qog'ozga qayd etib boring. Unga rahmat ayting va testni davom ettirishni keyinroqqa qoldiring. Bir yarim soat o'tgach, boladan qanday so'zlarni eslab qolganligini qayta so'rang. Agar bola birinchi yondashuvda 3-4 so'zni eslab qolsa, bu oddiy yodlash qobiliyatini ko'rsatadi. Ikkinchi urinishda normal xotiraga ega bo'lgan bola kamida 6-7 so'zni takrorlashi kerak. Bir soatdan keyin bola kamida 6 ta so'zni eslab qolishi kerak. Yuqori yodlash qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar ikkinchi urinishdan keyin 8-10 ta so'zni, past ko'rsatkichga ega bo'lgan bolalar esa 0 dan 2 gacha nomlay oladi. Smirnitckaya testi. Ushbu test o'rganish uchun muhim bo'lgan

vizual xotiraning holatini baholaydi. Bolaning oldiga turli xil narsalar (to‘p, qulupnay, shar va boshqalar) tasvirlangan 10 ta rasm qo‘ying, unga butun qatorni diqqat bilan ko‘rib chiqish uchun ikki daqiqa vaqt bering, so‘ngra undan orqaga o‘girilishini ayting. Rasmlar orasidan 2-3 tasini olib qo‘ying. So‘ng bolani yana o‘girilishini ayting va qaysi rasm yetishmayotganligini so‘rang. Agar u birinchi urinishda muvaffaqiyat qozonsa, unda hamma narsa joyida, lekin agar beshinchi urinishda ham bola qaysi kartalar etishmayotganligini aytishi qiyin bo‘lsa, bu juda xavotirli belgidir.

Bolalikda xotiraning rivojlanishi odamga ilgari olingan ko‘nikma va qobiliyatlarni yanada qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, hayot sifatini belgilaydi, ko‘proq zavq va foyda keltiradigan faoliyatni topishga yordam beradi.

Xotiraning rivojlanishi, ayniqsa, bolalarda muhim jarayondir. Ularni e‘tiborsiz qoldirmang. Zero, xotira boshqa psixik jarayonlarning, masalan, fikrlash, idrok etish va hokazolarning rivojlanishiga ta‘sir qiladi. Xotira yangi ma‘lumotlar bilan oziqlanmasa, bunday odamning qobiliyati shaxsiyatning tanazzulga uchrashiga olib keladi. Shuning uchun xotirani rivojlantirish erta bolalikdan boshlanishi kerak, shunda bolalar munosib va baxtli inson bo‘lib o‘sadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

- 1. R.G‘.Qodirov(2005).Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).*
- 2. G.R To‘xtasinova, T.I. O‘rmonova (2005). Bolalarbog‘chasida intellectual psixologik o‘yinlar T.:(4-5)*
- 3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).*
- 4.Read more at: <https://minikar.ru/uz/proverbs/zadanie-razvitie-pamyati-rebenka-6-let-chem-kormit-rebenka-dlya-uluchsheniya/>*



# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANISHIDA FAOLIYAT MARKAZLARI IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

**Rasulova Shoira Yunus qizi**

Termiz Davlat Pedagogika instituti magistranti

## ANNOTATSIYA

*Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishda faoliyat markazlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida AKT hamda multimediali vositalardan foydalangan holda sifat ko'rsatkichlarida samaradorlikni ta'minlash haqida so'z yuritilgan.*

***kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh, AKT, multimediali vositalar, ijodkorlik, rivojlanish, markazlar, tarbiyachi, sifat, samaradorlik.*

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. "Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyasini olgan bola bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz Maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi", deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev<sup>1</sup>.

"Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin". "Va shuni alohida ta'kidlash kerakki,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 25-yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasidagi nutqidan



bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish muammolariga hali sifatli va to'liq holda yechim topilgani yo'q.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu muhitni yaratishdagi texnikaviy ijod erkinligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasi bilan ham tasdiqlab qo'yilgan: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi".

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ijtimoiy tajriba unga passiv tarzda emas, balki proaktiv idrok shaklida keladi. Yangi tajribalar kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Haqiqiy dunyoni tushunish bolalarda nafaqat ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, balki qiziqishni ham rivojlantiradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tushunishga bo'lgan ehtiyoj shunchalik rivojlanganki, o'quv jarayonida yangi bilimlarni olishga qiziqish paydo bo'la boshlaydi va bu ehtiyoj maktabda qondiriladi. Maktabgacha katta guruhlarida ijodiy sifatlarni rivojlantirishda faoliyat markazlarida ta'lim va tarbiya jarayonini samarali shakllantirish mumkin, agar:

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga samarali ta'sir etuvchi omillarni asoslash sifatida ochib berilsa;

-faoliya markazlarida amalga oshirilayotgan usul va vositalardan foydalangan holda yangi hamda zamonaviy vositalarning samaradorligi tahlil qilib berilsa ;

Zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet tarmog'i bilan ishlash malakasi ham tarbiyachi pedagoglar uchun ahamiyatli. Minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, ya'ni axborot olish hayotiy zaruratga aylandi. Mazkur axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib

bormoqda. Ana shu ma'lumotlarni topuvchi, saqlovchi, qayta ishlovchi va boshqalarga yetkazuvchi vazifasini bugungi kunda axborot texnologiyalari bajarmoqda. Xususan, internet tarmoqlarining maqsadi ham shulardan iborat. Tarbiyalanuvchilarga faoliyalar mobaynida ularning diqqatini bir joyga jamlashlari, mavzu mohiyatini to'liq anglab yetishlarida ko'makchi bo'ladigan bir qancha vositalar mavjud. Lekin ular faqatgina vosita ekanligini unutmaslik kerak. Ayrim jarayonlarda shu ko'zga tashlanmoqdaki, vositalarga asos sifatida qarab mohiyatdan uzoqlashish yuzaga kelmoqda. Vositalardan asosni ifodalashda to'g'ri foydalanish malakasi tarbiyachilarimizga har doimgidan-da ko'proq kerak. Mashg'ulotlar jarayonida ta'lim-tarbiya sifatini oshiruvchi jihozlar sifatida ko'p ko'zga tashlanayotgan kompyuter tizimlari, yangi metodlar, taqdimotlarni sanash barobarida multimedia vositalari ham shu tarkibda ekanligini unutmaslik lozim.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 25-yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasidagi nutqidan*
- 2. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y., O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashrga ruxsat berilgan.*
- 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 16-yanvar.*
- 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992*

**BUGUNGI KUNDAGI SHIFOXONALARNI YORITILGANLIK DARAJASI****Rasulov Shomurod Mahmudovich**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya  
jamoat salomatligi va menejment kafedrası mudiri

**Musurmonqulova Mohira Mansur qizi****Xujanazarova Shaxrizoda Bobir qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2-bosqich  
talabalari: [shaxrizodaxujanazarova@gmail.com](mailto:shaxrizodaxujanazarova@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Bugungungi kunga kelib shifoxonalarning yoritilganlik darajasi va honaga nurning tushishini ko'p shifoxonalarning qurilishida etiborga olinmaydi. Shu sababli ham bemorlar va shifokorlar shifoxonaning yaxshi yoritilmaganligi uchun aziyat chekishadi.*

***Kalit so'zlar:** kasalxona, yoritish, kasalxona qurish talablari, nurning bemor ahvoliga tasiri*

**Asosiy qism:** **Kasalxona** —bemorlarni yotqizib davolaydigan muassasa. Poliklinika bilan birlashtirilgan kasalxonalar bemorlarni poliklinikada va uyda tibbiy yordamning barcha turlari bilan davolaydigan davolash-profilaktika muassasasi hisoblanadi; poliklinika bilan birlashtirilmagan kasalxona faqat statsionarda davolaydi. Ish hajmi va ma'muriy bo'linishiga ko'ra, respublika, viloyat (o'lka), shahar, tuman va uchastka kasalxonalari farq qilinadi. Ko'p sohali (turli xil ixtisosliklari bo'yicha bo'limlari bor) va ixtisoslashgan (sil, yuqumli, ruhiy, oftalmologik va b.) kasalxonalar bo'lib, bular mazkur kasallik bo'yicha malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatadi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan

bolalar kasalxonasi ham ko'p sohali va ixtisoslashgan kasalxonalarga bo'linadi. Tibbiyot instituti yoki ilmiy tadqiqot institutining bazasi hisoblangan kasalxona klinik kasalxona deb ataladi. Bundan tashqari, aholiga kasbiga qarab xizmat qiladigan temir yo'l transporta kasalxonasi, suv xo'jaligi xodimlari kasalxonasi va boshqa kasalxonalar bo'ladi. Kasalxonada bemorni vrach ko'zdan kechiradigan, hujjatlar rasmiylashtiriladigan qabulxona, zarur sanitariya-gigiyena choralari amalga oshiriladigan xonalar, davolash bo'limlari (jarrohlik, terapiya va b.), davolashdiagnostika bo'limlari (rentgenologiya, fizioterapiya); laboratoriyalar, dorixona, oshxona, ma'muriy-xo'jalik bo'limlari va boshqalar bo'ladi. Birlashgan kasalxonaga, bundan tashqari, poliklinika ham kiradi. Kasalxonani bosh vrach boshqaradi, bemorlar davolanadigan ixtisoslashgan bo'limga esa shu ixtisoslik bo'yicha malakali vrach mudirlik qiladi. Birlashgan kasalxonaning bo'lim mudiri poliklinikadagi tegishli bo'limga ham rahbar bo'lishi mumkin. Xodimlar soni kasalxonadagi o'rinlar soniga bog'liq. Kasalxonalarning tuzilishi va funksiyasi, shuningdek, unda ishlaydigan tibbiyot xodimlarining haq-huquqlari, majburiyatlari va boshqalar O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan maxsus davlat me'yornormalari, yo'riqnoma va ko'rsatmalariga amal qilgan holda olib boriladi.

Hozirgi O'zbekistan hududida qadimda ham kasalxonaga o'xshash davolash maskanlari mavjud bo'lgan. Amir Temur boshqa mamlakatlarning mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan. Movarounnahr va Xurosonda shifoxonalar uchun alohida binolar qurilgan. Shifoxonalar ochishga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergan. Turkistonning ba'zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin o'lkada G'arbgacha xos tibbiy muassasalar vujudga kelgan. Bunga qadar mahalliy aholi xalq tabobati (tabiblar, shikastbandlar)dan foydalangan. Toshkentda birinchi davolash muassasasi 1868-yil harbiy garnizon qoshida ochilgan lazaret bo'lib, u 1869-yil harbiy gospitalga aylantirilgan. Keyinchalik Samarqandda (1872), Xivada (1872), Buxoroda (1891) kichikroq kasalxonalar ishga tushirilgan.

1883-yil oxirida Toshkentda ayollar va bolalar uchun birinchi ambulatoriya-shifoxona ochilgan. 1903-yil Yangi shahar kasalxonasi qurilgan. 1913-yil Eski shahar kasalxonasi (hoz. 1-shahar klinik kasalxonasi) ish boshlagan. 1916-yil temir yo‘l xodimlari uchun maxsus kasalxona qurilgan. 1918-yil sobiq kadetlar korpusi binosida kasalxona (hoz. 1-ToshTIning o‘quv bazasi), 1926-yil Toshsovet nomli fizioterapiya kasalxonasi; Ko‘kcha dahasida epidemiologiya kasalxonasi (hoz. 1-Yuqumli kasalliklar kasalxonasi) ishga tushgan.

Har bir zamonaviy shifoxona turli funktsiyalarni bajaradigan ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat. Ular ofislar, oshxonalar, kirxonalar va kutubxonalar kabi tibbiy bo‘lmagan joylar bo‘lishi mumkin va sanoat yoki tijoratda bo‘lgani kabi yoritilishi mumkin. Istalgan yorug‘lik, gigiena, elektr xavfsizligi, ishonchlilik va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligiga erishish uchun maxsus yoritish texnikasi va armatura talab qilinadigan operatsiya teatrlari, klinikalar, davolash xonalari va palatalar kabi ko‘plab ixtisoslashtirilgan interyerlar mavjud.

Kasalxonalarning murakkab tuzilmalari o‘zlarining qurilish tabiatiga ko‘ra maxsus yoritish va yoritish talablarini talab qiladi. Shunday qilib, shifoxonadagi har xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilayotgan xizmatlarning talablariga muvofiq turli sohalarda maxsus yoritish va yoritishga ega bo‘lishi kerak.

Kasalxonalar uchun yoritish va yoritish talablari bo‘yicha ushbu ko‘rsatmalar shifoxona binolariga xos bo‘lgan ichki hududlarni qoniqarli yoritishga qaratilgan. Kasalxonalar sirkulyatsiya zonasida, yopiq joylarda va protsedura xonalari, muassasa oldida va kasalxonaga kirish yo‘lida etarli yorug‘lik va yorug‘lik mavjudligini ta’minlashi kerak. Kasalxona, shuningdek, tabiiy yorug‘lik va energiya tejovchi lampalardan foydalanish kabi energiya tejamkor choralardan foydalanishini ta’minlashi kerak.

### **Bemorlar xonalari yoki bo‘limlarini yoritish**

Kasalxonadagi bemorlar xonalari ko‘pincha foydali maydonning yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Bemorlar xonalarining yoritilishi katta ahamiyatga ega va bemorlarning, shuningdek, tibbiyot va hamshiralarning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Bundan tashqari, umumiy yorug‘lik effekti umumiy dekoratsiyaga hissa qo‘shadigan darajada bo‘lishi kerak va yotgan bemorga porlashi yo‘q bo‘lishi kerak.

### **Bemorlar uchun yoritish**

Bo‘limlardagi bemorlar uchun yorug‘lik qulay va yoqimli muhit yaratishi kerak. Bo‘limlarda yoritishni bo‘limdagi bemorlarning o‘ziga xos talablariga javob beradigan tarzda rejalashtirish kerak, masalan, ba’zi bemorlar rejalashtirilgan "chiroq o‘chirilgan" vaqtdan oldin uxlashni yaxshi ko‘rishlari mumkin, shuning uchun yorug‘lik darajasi yuqori bo‘ladi. bu bemorlarga noqulaylik tug‘diradi.

Ushbu talablarning barchasini hisobga olgan holda, 100 lyuks yorug‘lik darajasi palatalarning umumiy yoritilishi uchun qabul qilinadi, bu hamshiralarning ehtiyojlarini qondiradi.

Umumiy yorug‘likdan tashqari, alohida bemorlarga yotoq bosh chiroqlari ko‘rinishidagi qo‘shimcha chiroqlar berilishi mumkin, ularni bemorlarning o‘zlari "yoqish" yoki "o‘chirish" mumkin. Ushbu chiroqlar umumiy yoritish natijasida yuzaga keladigan monoton bir xillikni buzish orqali palatalarning umumiy ko‘rinishiga ham hissa qo‘shadi.

**Xulosa:** Kasalxona old tomoni va kasalxonaga kirish yo‘li ko‘cha chiroqlari yordamida yaxshi yoritilgan bo‘lishini ta’minlashi kerak. Yoritgichlar kirish yo‘lida qorong‘u joylar bo‘lmaydigan tarzda o‘rnatilishi kerak. Bunga qo‘shimcha ravishda, kasalxona va tez yordam bo‘limi nomi uchun ishlatiladigan displeylar yaxshi yoritilgan bo‘lishi kerak.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. <https://vikaspedia.in/health/sanitation-and-hygiene/swachhta-abhiyaan-guidelines/illumination-and-lighting-in-hospital>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasalxona>
3. <https://www.google.com/search?q=SHIFOXONALARNI+YORITILGANLIK+DARAJASI&aq=SHIFOXONALARNI+YORITILGANLIK+DARAJASI&aqs=chrome..69i57j69i59j69i60.824j0>

**O‘ZBEKSTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA KENG TARQALGAN  
LESHMANIOZ KASALLIGINING UCHRASH TURLARI, TARQALISHI,  
PROFILAKTIKASI VA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI**

**Mustanov Javohir Abdusamat o‘g‘li**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi va  
menejment kafedrası assistenti: [mustanovjavohir@mail.ru](mailto:mustanovjavohir@mail.ru)

**Aminova Mohinur Normurod qizi**

[aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

**Xalilov Davron Baxtiyorovich**

[xalilovdavron2402@gmail.com](mailto:xalilovdavron2402@gmail.com)

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2-bosqich  
talabalari

**ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunga kelib leshmanioz kasalligining tarqalib ketganligi dolzarb muommolarga aylanmoqda. Leshmanioz kaalligi bu nima, u qanday kasallikni yuqtiradi, uni qanday turlari mavjud, inson organizmiga yuqganidan keyin qancha vaqtda kasallikni birinchi bosqichini namoyon qiladi va uni inkubatsiondavri qancha degan savol tug‘uladi. Bu maqolada quydagi keltirilgan savollarga javob va unga davo ham topishingiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Leshmaniya, Turlari, Yuqishi, Inkubatsion davri, Profilaktikasi, Oldini olish choralari, Davolash usullari*

**Mavzuning maqsadi:** leshmanioz kasalligining tarqalishini oldini olish va uni davolash.



**Asosiy qism:** Leyshmanioz bu dunyo bo'yicha 98 ta davlatdagi endemik va unitilgan tropik kasallikdir. Butun JSST ning ma'lumotiga ko'ra 350 million odam bu kasallik bilan kasallanishi mumkin. Har yili 14 million odam ushbu kasallik bilan kasallanadi va 2 millionga yaqin yangi kasallik qayd qilinmoqda. Bundan tashqari har yili visseral leyshmanioz bilan 50 mingta o'lim holatlari qayd qilinmoqda. Leyshmanioz- odamlarda va hayvonlarda uchraydigan transmissiv protozoy kasallik bo'lib, ko'zg'atuvchisi leyshmaniyalar hisoblanadi va iskabtopar chivinlar tashuvchi bo'lib, chaqish yo'li bilan yuqtiradilar. O'zbekistonda visseral zoonoz, teri antropozoz va zoonoz leyshmaniozi tarqalgan.

Visseral leyshmaniozi: Indiya, Nepal, Bangladesh, Kavkaz orti, O'rtayerdengizi, Janubiy Yevropa, Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida tarqalgan. Respublikamizda visseral leyshmanioz kasalligi asosan Namangan va Navoiy viloyatlarida, Farg'ona, Samarqand, Jizzax viloyatlarida sanoqli holatlarda qayd etilmoqda. Bunda asosan 1 dan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi.

Kasallik manbai- asosan itlar va bo'ri, tulki va boshqalar bo'lishi mumkin. Visseral leyshmanioz kasalligi shunisi bilan xavfli, agar o'z vaqtida glyukantim yoki ambizom dori vositalari bilan bemorlar davolanmasa 100% o'lim bilan yakun topishi mumkin. Visseral leyshmaniozning inkubatsion davri 3 haftadan 3 yilgacha, o'rtacha 3 o'yni tashkil etadi.

Visseral leyshmanioz (VL)- bu to'satdan tana haroratini 39-40 C ko'tarilishi bilan boshlanib, surunkali kechish bilan xarakterlanadi. Limfoid-makrofagal tizimining shikastlanishi, uzoq davom etuvchi isitma, taloq va jigarning kattalashishi, kam qonlik va ikkilamchi immunosupressiya bilan xarakterlanadi.

Ayrim hollarda kasallik asta sekinlik bilan boshlanib, umumiy xolsizlik, ishtaxaning pasayishi, terining ransizlashishi, toshmalarni paydo bo'lishi va leykopeniya bilan xarakterlanadi. Kasallikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu- jigar va taloqni kattalashishidir. Taxminan 10% bemorlarda jigar sirrozi va portal gipertenziyasi kuzatiladi. Kasallikning oxirgi bosqichlarida shishlar paydo bo'lib, xoldan toyish (kaxeksiya) va pigmentni ko'payishi (kala-azar «qora kasallik» deyiladi).

Kasallikni birinchi alomatlari boshlanganda shifokorga zudlik bilan murojaat qilish kerak, chunki kasallikni natijasi o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilgan davolashga bog'liq.

Maxsus davolash kursidan keyin bemor 1 yil davomida dispanser kuzatuvda bo'ladi, chunki kasallik qaytalanishi ham mumkin. Agarda davolash kursidan keyin bemorning ahvoli yomonlashsa, qayta davolash kursi o'tkaziladi.

Teri leyshmanioz kasalligi: O'rta Osiyo (Turkmaniston, O'zbekiston) va Kavkaz orti; Afg'onistanda, Yaqin Sharq va Afrika davlatlarida tarqalgan. Teri leyshmanioz kasalligi turizmni rivojlanishi bilan nafaqat endemik balki boshqa geografik xududlarda ham tez-tez uchramoqda. Endemik o'choqlar asosan cho'l xududlardagi qishloq va sahara hududlarida uchraydi. Yozgi mavsumiy zararlanish iskaptoparlarni faollik davri bilan aniqlanadi.

**Teri leyshmanioz kasalligi bilan barcha yoshdagilar kasallanishi mumkin. Inkubatsion davr.**

Asosan 1 va to'rt haftagacha, ba'zan 1,5-2 oygacha davom etadi. Kasallikdan so'ng mustahkam immunitet paydo bo'lib, bir umrga saqlanadi. Kasallikning 10% qaytalanishi mumkin. Kasallik asosan yozning oxiri va kuz oylarida qayd etiladi.

2. Antroponoz teri leyshmaniozi (sinonimlari: Borovski kasalligi, sharq yarasi, kech yaralanadigan leyshmanioz, Ashxabodd va Qo'qon yarasi, I tip leyshmanioz, shahar leyshmanioz, Saratov yarasi va boshqalar) o'tkir nekrotik teri leyshmaniozi, qishloq tipidagi teri leyshmaniozi, «pendinka» pendeboshi, murg'ob yarasi, afg'on yarasi, pashsha xo'rda va boshqalar. ZTL tabiiy o'choqli transmissiv zoonoz kasallikdir.

Kasallik asosan iskaptoparlar mavjud bo'lgan shahar va viloyat shaharlarida qayd etiladi. Mahalliy aholidan ko'pincha bolalar, chetdan kelganlardan barcha yoshdagilar kasallanadi. Kasallik tarqatuvchilarning faolligi bilan bog'liq bo'lib, asosan yoz va kuz mavsumida uchraydi. Infeksiya manbai — bemor odam, ba'zan itlar ham bo'lishi mumkin. Kasallik aholi zich joylashgan punktlarda ko'proq uchraydi, chunki kasallik iskaptoparlarni urg'ochisi-Phlebotomus sergenti orqali odamdan odamga yuqadi. Bemordan qonni so'rgandan keyin moskitlar 6-8 kunda zararli bo'ladi. Sog'odamni iskaptopar chivinlari chaqqanida kasallik yuqadi. Inkubatsion davri 2-3 oy va 1,5 yilgacha

davom etishi mumkin va 2 ta xarakterli belgisi bilan: tananing yuz, qo'l va oyoqlarida yaralarni sekin paydo bo'lishi va teri zoonoz leyshmanioziga nisbatan terida yaralarni kamligi bilan ajralib turadi.

VL ga quyidagilar laboratoriya tekshiruvidan o'tishi lozim: Klinik epidemiologik ko'rsatgichga ega bemorlar (terini xarakterli zararlanishi), ya'ni bemorni teri leyshmaniozi o'chog'ida bo'lganligi, endemik hududlarda va kasallik yuqish mavsumida bo'lganligiga bog'liq. Teri leyshmanioz kasalligida bemorlarni kasalxonaga yotqizish klinik ko'rsatmasiga qarab yotqiziladi. Ayrim hollarda davolashsiz ham bemorlarni tuzaishi mumkin. Kasallangan bemorlarda immunitet mustaxkam qoladi.

### **Leyshmaniozlarni profilaktikasi:**

Majmuaviy chora-tadbirlar-infeksiya manbai, yuqish mexanizmi, tarqatuvchilar va shaxsiy profilaktika choralari o'z ichiga oladi. Infeksiya manbaiga qaratilgan choralarga: visseral leyshmaniozda klinik asoratlarni oldini olishda bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va davolashdan iborat. Davolash kasalxona sharoitida o'tkaziladi.

Infeksiya manbai hisoblangan daydi itlarga qarshi veterinariya xizmati tomonidan kurash olib borish. Antraponoz leyshmanioz kasalligini profilaktikasi: Bolalar va migrantlar orasida kasallikni faol aniqlash. Bemorlarni o'z vaqtida va to'g'ri davolash. Past yuqish davrida qaytalanuvchi leyshmaniozlarni erta aniqlash. Moskitlarni zararlanishini kamaytirish uchun kechqurunlari yarani bog'lab qo'yish lozim, chunki kasallik odamdan odamga iskaptoparlarning chaqishi orqali yuqadi. Shu bilan birga daydi itlarga qarshi kurash olib borish lozim bo'ladi.

Iskaptoparlarning ko'payishiga qarshi olib boradigan chora-tadbirlardan biri bu aholi punktlari hamda xonadonlarda obodonlashtirish ishlarini olib borish. Bundan tashqari iskaptoparlarga qarshi xonadonlarni zaxarli ximikatlar bilan dorilash. Kasallik qayd qilganda xonadonlar ichi va tashqi qismi dorilanadi, hamda qo'shni xonadonlar ham dorilanadi. O'tkazilgan dezinfeksiyani samarasi iskaptoparlarni dorilashdan oldingi soni va dorilangandan keyingi sonini taqqoslash asosida baholanadi. Endemik tumanlarda shaxsiy profilaktikaga repelentlar, uzoq muddatli ta'sir qiluvchi insektitsidlar bilan ishlov berilgan pashshaxonalardan konditsionerlar, elektrik fumigatorlar foydalani

sh maqsadga muvofiqdir. Shuningdek xonadonlar devorlarining pastki qismlarini beton qoplamalari bilan qoplash, ko'chalarni asfaltlashtirish, hovlilarni pishiq g'isht bilan qoplash bilan iskaptoparlarning ko'payishini oldi olinadi.

**Xulosa:** Leshmanioz kasalligi asosan O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ya'ni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng miqyosda tarqalib ketgan. Bu kasallikni oldini olish uchun turli xil dori maz vositalaridan foydalanishimiz mumkin ya'ni NurZam dori va maz vositasidan bu maz terini tiklanishi kuchaytiradi va silliqalaydi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Leyshmaniozlar - Yomon yara - Ensiklopediya (avitsenna.uz)
2. LESHMANIOZ KASALLIGINING UCHRASH TURLARI, TARQALISHI, PROFILAKTIKASI VA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.
3. ЛЕЙШ МАНИОЗЫ - Медицинская энциклопедия - Дикая Правда (dikarka.ru)

## TEZ TIBBIY YORDAMGA MUHTOJ BO‘LGAN BEMORNING YONIDAGI SHIFOKORNING VAZIFASI VA MASULYATI

**Rasulov Shomurod Mahmudovich**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya,  
jamoat salomatligi va menejment kafedrasini mudiri

**Xujanazarova Shaxrizoda Bobir qizi**

[shaxrizodaxujanazarova@gmail.com](mailto:shaxrizodaxujanazarova@gmail.com)

**Ulug‘ova Munisa Otabek qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son  
Davolash fakulteti 2-bosqich talabalari

### ANNOTATSIYA

*Har bir shifokor Gippokrat qasamini icharkan unga berilgan masuliyatini his qilishi kerak. Shifokor tez tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan bemorlarni, nafaqat bemorlar o‘sha bemor o‘z dushmani bo‘lsada uning yordam qo‘lini cho‘zishi kerak.*

**Kalit so‘zlar:** *Tez tibbiy yordam, Bemor, Birinchi yordam, shifokor masuliyati.*

**Asosiy qism:** Qabul bo‘limida bemorlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish, tegishli tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish, kasallikning turi va og‘irligini aniqlash, bemorlarni keyinchalik qayta tiklash bo‘limiga yotqizish uchun tayyorlash, zarur hollarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, sanitariya bilan davolashni amalga oshiradi.

Klinikamiz shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun:

- dam olish kunlarisiz va tanaffuslarsiz ishlaydi;

- bemor ahvolining murakkabligidan qat'i nazar shoshilinch tibbiy, statsionar intensiv va reanimatsiya yordamini ko'rsatadi;

- oliy va yuqori malakali shifokorlar va o'rta tibbiy xodimlardan iborat;

- O'zR Sog'liqni saqlash vazirligining belgilangan standartlariga muvofiq 100% dori-darmon preparatlari to'plamiga ega;

- "Drager" (Germaniya) kompaniyasining eng yangi tibbiy uskunalar bilan jihozlangan: sun'iy shamollatish apparati va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun to'plam, 6 kanalli EKG bilan yarim avtomatik defibrilator, pulsioksimetr;

- bemorning ahvoliga qarab klinikaning statsionar bo'limiga yotqizadi.

“Shoshilinch tibbiy yordam” bo'limida qo'yidagi kasalliklar bo'yicha tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- surunkali yurak yetishmovchiliklari;

- o'tkir koronar sindrom;

- o'tkir miokard infarktidan keyin qayta tiklash;

- miya qon aylanishining o'tkir kasalliklari;

- o'tkir va surunkali bronxit;

- o'tkir va surunkali bronxit (XOBL);

- Qayd etib o'tilsinki, respublikada Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi umuman muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam tizimi — Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat markazlari va tuman markaziy shifoxonalarida ixtisoslashtirilgan bo'limlar tuzilgan bo'lib, ular aholiga tezkor bepul shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlamoqda.

- Kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam muassasalari zamonaviy tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlanmoqda.

- Shifokorlarning malakasi hamda zamonaviy tibbiy texnika bilan jihozlashni hisobga olgan holda kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam tizimi shifokorlari hamda tibbiyot xodimlarining mehnatini tashkil etish va moddiy rag'batlantirish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda.

Aholiga, eng avvalo qishloq joylardagi aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi isloh qilinmoqda. Respublikaning barcha tumanlarida zamonaviy tibbiy uskunalar va dori-darmonlar bilan ta'minlangan qishloq vrachlik punktlari tashkil etilmoqda.

Tez tibbiy yordam - inson hayoti hamda sog'lig'i uchun xavfli holatlar ro'y berganda kechasiyu kunduzi shifohonagacha ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi va tizimi. Ilk bor Tez tibbiy yordamy. 1918-yil Toshkent shahrida punkt sifatida tashkil etilib, 1926-yil mustaqil Tez tibbiy yordamy. stansiyasiga, 1974-yil Tez tibbiy yordamy. klinik kasalxonasi bilan birlashtirilib, bo'limga aylantirildi. 1983-yil kasalxonadan ajratilib, mustaqil shahar tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyasi deb ataldi. O'zbekiston Respublikasi Farmoni bilan №PF-2107 10.11.1998y. Shoshilinch Tibbiy Yordam Hizmati ta'sis etilib 2001-yildan shoshilinch tibbiy yordam va tez tibbiy yordam tushunchalari ikki xil ma'noga ega. Tez tibbiy yordamy. ning vazifasi hodisa yuz bergan joyda, uyda, bemorni kasalxonaga olib keta turib shoshilinch, shu jumladan mutaxassis vrach tomonidan yordam ko'rsatish, lozim bo'lsa, bemorlarni kasalxonaga yetkazishni ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, Tez tibbiy yordamy. xizmati ko'zi yoriydigan ayollarni yoki uyida ko'zi yoriganlarni vrach talabiga ko'ra davolash muassasalariga olib boradi. Tez tibbiy yordamy. xodimlarini chaqirish uchun yagona telefon indeksi (03) (Toshkent shahri uchun 103) joriy etilgan. Tez tibbiy yordamy. stansiyalari xodimlari mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari, sudtibbiy eksperti xulosalari, shuningdek, bemorlarga yo ularning qarindoshlariga yozma ma'lumotnoma berish huquqiga ega emas. Qishloq joylarida kunning istagan paytida Tez tibbiy yordamy. ko'rsatish vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlari zimmasiga yuklangan. Olib borish qiyin bo'lgan joylarga sanitariya aviatsiyasi vositalari bilan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatiladi. Tez tibbiy yordamy. mashinalari radiolashtirilgan bo'lib, ikki tomonlama telefon aloqasi bilan ta'minlangan, nafas va narkoz berish apparatlari, kislorod ingalyatorlar, elektrokardiograf va boshqa zaruriy asboblardan jihozlangan. Yirik shaharlar, jumladan Toshkentda ham ixtisoslashtirilgan maxsus reanimatsion, kardiologik, nevrologik, toksikologik,



pediatriya, intensiv terapiya brigadalari va boshqa tashkil etilgan. Bu uyda va yo'lda keta turib ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda tez tibbiy yordam brigadasi tashrif buyurganda 80 foizdan ortiq holatda bemorlarga shoshilinch ravishda davo choralarini ko'rish uchun shifoxonalarga yetkaziladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 15–25 foizni tashkil etadi. Shoshilinch tibbiy yordam siyosiy jihatdan muhim jihatdir ko'pincha birinchi aloqa nuqtasi bo'lgani uchun sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish shoshilinch yordam va kechikishlarni talab qiladigan ko'plab bemorlar uchun sog'liqni saqlash tizimi davolanishga kirishda "hayot yoki o'lim" masalasi tushuniladi.

Shoshilinch tibbiy yordam xizmatlariga bosim kuchayishi sabab bo'ldi turli strategiyalarni qabul qilish, jumladan, ko'proq konsolidatsiya qilish shoshilinch tibbiy yordam va bemorlarni sog'lig'ining boshqa qismlariga yo'naltirish tizimi. Mamlakatlar o'rtasida o'rganish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarini xalqaro taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar kam bo'lib qolmoqda va dalillarga asoslangan universal guruh mavjud emas ishlash ko'rsatkichlari.

**Xulosa:** Aholi salomatligi tendentsiyalarining o'zgarishi, ayniqsa ko'p kasalliklarning kuchayishi, favqulodda vaziyatga bosim o'tkazdilar parvarish xizmatlari, ayniqsa shifoxonadagi EDlarda tez-tez tez yordam xizmatlari tizimdagi eng qulay nuqtalar. Ko'pgina islohot strategiyalari a ikkala tezyordamning ko'proq konsolidatsiyasi xizmatlar va shifoxona parvarishi, shu jumladan shoshilinch yordam. Buning foydasi bor samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish lekin bemorlarning o'tkazish qobiliyatini ham oshiradi favqulodda vaziyatlar ko'nikmalarini saqlab qolish uchun parvarishlash xodimlari.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. <https://ezguniyat.uz/bizning-bolimlar/tez-tibbiy-yordam>
2. <https://lex.uz/acts/-170143>

## TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARI TRAFIKLARI HIMOYASI USULLARI

**Juraqulov Ziyodullo Saidqul o'g'li**

Termiz davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti (tarmoqlar va sohalar bo'yicha )

2 bosqich 221-guruh magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish tarixi va uning O'zbekistondagi istiqbollari, amaldagi belgilangan vazifalar borasida umumiy ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, telekommunikatsiya tarmoqlari trafiklarini himoyalash usullari va bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami keng yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, telekommunikatsiya, tarmoq, trafik, optik tola, internet, VPN, 3G, 4G, LTE.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlanishida tolali optik aloqa tizimlari, keng polosali tarmoqlar va multimediali aloqa tarmoqlari muhim o'rin tutadi, ayniqsa shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, ya'ni, qishloq aholisiga ham shaharlardagidan qolishmaydigan darajada zamon talabiga mos telekommunikatsiya va internet xizmatlarini ko'rsatishda optik kabellar hamda keng polosali tarmoqlardan foydalanish zaruriyati sezilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2013-2020 yillar mobaynida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va infrastrukturasi rivojlantirish dasturida keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish, optik tolali aloqa liniyalarini qurish, BRAS qurilmalarini o'rnatib, keng polosali tarmoq imkoniyatlarini kengaytirish, «UZMOBILE» mobil tarmog'ini hududlarda rivojlantirish – 1-bosqich yuqori

tezlikdagi internet xizmatlarini ko'rsatish (EVDO texnologiyasi), «UZMOBILE» mobil tarmog'ini hududlarda rivojlantirish – 2-bosqich yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini ko'rsatish (LTE texnologiyasi), 3G, 4G, LTE va boshqa mobil aloqa operatorlarini hisobga olgan holda mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, NGN texnologiyasi bo'yicha kommunikatsiya qurilmalarini kengaytirish, kommutatsiya markazlarini modernizatsiyalash, paketli kommutatsiya xalqaro markazlarini kengaytirish, O'zbekiston Respublikasi magistral tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirish, ma'lumotlarni uzatish multiservis tarmoqlarini qurish, magistral optik tolali aloqa liniyalarini qurish, korporativ sektorga multimediali xizmatlarni ko'rsatuvchi studiyalarni yaratish, axborot-ma'lumot xizmatlari markazlarini yaratish (call-center), ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini yaratish «Data-sentr» (quyidagi shaharlarda: Toshkent, Qo'qon, Buxoro), tez-tez foydalaniladigan ma'lumotlarni saqlash markazlarini yaratish (keshlash markazlari), davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy xokimiyat organlari korporativ va lokal hisoblash tarmoqlarini yaratish va modernizatsiya qilish kabi vazifalar rejalashtirilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. So'nggi yillar mobaynida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida, mamlakatimiz aloqa sohasi yuqori natijalarga erishilmoqda. Telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yangi raqamli texnika vositalarini o'rnatish, ularni optimallashtirish ishlari natijasida, jahon axborot integratsiyalashuvi jarayoniga O'zbekistonning jadal suratda qo'shilishi ko'zga tashlanmoqda.

Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlanishi uch omilga asosan aniqlanadi: trafikni o'sishi, jamiyatni yangi xizmatlarga bo'lgan talabini oshishi va texnologiyalar sohasida yutuqlarga erishish. Bu omillar mustaqil hisoblanmaydi, biroq ularning har biri elektr aloqani rivojlanish g'oyasini aniqlaydi. Qurilmalarni yetkazib beruvchilar orasidagi raqobat va texnologik yutuqlar qurilmalarning narxini tushishiga olib keldi,

bu esa o'z navbatida trafikni o'sishi va yangi xizmatlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Trafik — elektr aloqa tarmog'i bo'yicha uzatiladigan xabarlar to'plamidir. Shuni aytish lozimki, paketlar kommutatsiyasi usulini qo'llashda xabarlarning tasodifiy kechikish muammosidan tashqari, bu usulda protokollarning murakkabligi muammosi ham mavjuddir.

Bir vaqtning o'zida aloqa xizmatlarining soni oshishi bilan, oddiy telefon xizmatidan tortib to integral raqamli aloqa tarmoqlarini ta'minlovchi multimedia xizmatlarigacha ularning sifati o'zgardi. Ko'pgina mutaxassislar, telekommunikatsiya texnologiyalarining keyingi evolyutsiyasi, axborotlarni uzatish tezligini oshirish, tarmoqni intellektuallashtirish va foydalanuvchilarning mobilligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha ketadi deb ta'kidlashmoqda.

Ayni paytda telekommunikatsiya tarmoqlari trafiklarini himoyalashga zarurat har qachongidan ham oshgan. Har qanday korxonada, uning faoliyati davomida maxfiy ma'lumotlar, u bilan birga uni himoya qilish zarurati mavjud. Doimiy yanada ilg'or ma'lumotlarni uzatish kanallarini yaratish, bu kanallarni himoya qilish usullari, ularning ma'lumotlarni uzatish tizimining fiziologiyasi va dasturiy ta'minotini takomillashtirish va Axborot aylanayotgan ma'lumotlarni uzatish kanallariga qarab, uni himoya qilishning turli usullari qo'llaniladi, kontseptual jihatdan har xil yondashuvlar talab etiladi.

Uzluksiz o'sish bilan tavsiflangan korxonalar uchun va xodimlarni ko'paytirish, shuningdek, masofaviy ofislari bo'lganlar, eng maqbuldir virtual xususiy tarmoqlardan foydalanish bo'ladi. Virtual xususiy tarmoqlar (VPN – Virtual Private Network) - bu ichkarida yaratilgan xavfsiz ulanish shifrlangan yaratish orqali ochiq aloqa kanallaridan foydalangan holda xavfsiz tarmoq kanal. Oddiy qilib aytganda, bunday aloqani tunnel orqali o'tish deb hisoblash mumkin.

